

34.013
X-61

D.O.XIMMATALIEV
L.R.RAJABOVA

**DIFFERENSIAL YONDASHUV
ASOSIDA TALABALARNI IJTIMOIY
PEDAGOGIK FAOLİYATGA
TAYYORLASH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**



34.013.42.
R-11.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI

D.OXIMMATALIYEV, L.R.RAJABOVA

DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA
TALABALARNI IJTIMOY PEDAGOGIK
FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH

Monografiya

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

Namangan - 2023

UO'K: 37.013.42
KBK: 74.200
X-61, R-11

ISBN: 978-9943-9594-5-3

KIRISH

Ximmataliyev D.O., Rajabova L.R.
Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish. Monografiya. – Toshkent: - 130 b.

Mazkur monografiyada differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning ilmiy-metodik asoslari va uni amaliyotga tatbiq etish metodikalari yoritib berilgan. Shu bilan birga monografiyada o'qituvchi shaxsi va uning jamiyatda tutgan o'rni – pedagogik muammo sifatida, talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash tamoyillari, differensial ta'lim mazmuni, tamoyillari va uning pedagogik inkonyatlari, oliy pedagogik ta'lim jarayonini differensial yondashuv asosida tashkil etishning funksional modeli, talabalarni differensial pedagogik ta'limga tayyorlashga doir diagnostik metodlar, ijtimoiy pedagogik ta'limni differensial yondashuv asosida tashkil etish yo'llari kabi masalalar mazmuni-mohiyati keltirib o'tilgan.

Monografiya pedagogika oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar, tayanch doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistr va talabalar hamda umumta'lim maktablarining o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

O'sarov Jabbor Eshbekovich – pedagogika fanlari doktori, professor.

Tagirizchilar:

Nurullaeva Shaxlo O'ktamovna – Qarshi davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori;

Hakimova Muhabbat Fayzievna – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, pedagogika fanlari doktori;

Botirova Shaxlo Isamiddinovna – Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori, pedagogika fanlari doktori.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy kengashining 2023 yil 15 martdagi 8-sonli majlis qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9943-9594-5-3

© Ximmataliyev D.O., Rajabova L.R.,
"U'smon Nosir media", Namangan-2023

Jahon pedagogik tajribacida talabalarining individual xususiyatlarini maksimal darajada hisobga olishni nazarda tutgan holda o'qitishga differensial yondashuvni amalga oshirish ularni o'quv-biluv faoliyati hamda tarbiyasi, qiziqishlari va qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy shaxsni shakllantirish, pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida ta'lim muassasalarining oshirishning istiqbolli usullaridan biri ekanligi allaqachon o'z iboratini topgan. Zero, zamonaviy ta'limning asosiy vazifasi yuqori texnologiyalar asosida har bir talaba shaxsining qobiliyatini ochib berish, hayotga va kasbiy faoliyatga tayyorlash, raqobabardosh kadrlarni dunyo miqyosiga chiqarishdan iboratdir. Shuningdek, har bir talabaning o'z o'ldiga mustaqil ravishda jiddiy maqsadlarni qo'yishi va ularga erishishi, ularni bil kasbiy vaziyatlarga mohirona javob berishi uchun tayyorlash kerak. Bunga esa ta'lim jarayoniga differensial yondashuv asosida erishish muvofiq.

Dunyoning rivojlangan davlatlarida hozirgi davrda o'qitishga differensial yondashuv xususiyatlarini tanlash va hisobga olish muammosi yangi emas, ammo hozirgacha uning yechimida yagona yondashuv ham mavjud emasligi bilan ahamiyat kasb etmoqda. Oliy ta'limga zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish ijtimoiy soha pedagoglarining professional faalliklari shakllanishini hamda zarur hollarda kasbiy almashinuvchanlikni ta'minlaydi va kasblarni asosan bir-birini to'ldiruvchi faoliyat sohalari muassasalariga mos keladigan funksional vazifalar sifatida birlashtirish intenziv bo'radi. Talabani differensial yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tayyorlashda oliy ta'limda differensial ta'limga xos tuzilmalar tatbiq etilish va amalga oshirish muhim pedagogik muammoligicha qolmoqda.

Ma'mlakatimizda ham barcha sohalar qatori uzluksiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga katta e'tibor qaratilyapti. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatlil ta'lim xizmatlari inkonyatlarini oshirish, melnat muassasalarining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar

tayyorlash siyosatini davom ettirish¹ ustuvor vazifa etib belgilandi. Shu bilan birga, "aniq fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, jamiyat, davlat manfaatlarini himoya qiladigan, xalq hayotidagi o'zgarishlar va islohotlarda faol qatnashadigan, zamonaviy va keng ta'fakkurli yoshlar avlodini shakllantirish vazifasi ham muhim, albatta"². Bu esa oliy ta'lim tizimida talabalarni mustaqil pedagogik faoliyatga tayyorlash sifatini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish zaruriyatini ko'rsatadi. Mazkur muammo yechimiga differensial yondashuv ta'lim-tarbiya sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bunda har bir talabaga uning psixofiziologik rivojlanish xususiyatlari, talablari va ehtiyojlaridan kelib chiqib yondashish, ularni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash ishining mazmuni va shakllarini takomillashtirish, differensial yondashuv asosida ta'limni tashkil qilishning ilmiy, didaktik va texnologik jihatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bilim o'zlashtirishda zamonaviy yondashuvlar, bo'lajak mutaxassislarni faoliyatga tayyorlash ko'nikmalarini rivojlantirishning psixologik va pedagogik jihatlarini, kasbiy tayyorlash mazmuni, differensial ta'lim mazmuni, xususiyatlari va pedagogik shart-sharoitlarini ta'minlash mexanizmlari respublikamiz olimlari M.Ochilov, R.Safarova, T.G'afforova, E.Sattorov, S.Qoraev, G.Boymurodov, S.Bozorova, A.Holigov, R.H.Jo'raev, Sh.Nurullaeva, Q.Olimov, M.Magisdovalar³ hamda boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlari T.V.Masharova, A.V.Matveev, L.V.Bayborodova, S.A.Izzyumova, N.M.Shaxnaev, I.E.Untlarining tadqiqotlarida differensiallashtirilgan o'qitish imkoniyatlariga oid masalalar yoritib berilgan. Jumladan, differensial ta'limning o'zgaruvchanligini, shakllari va usullarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar V.G.Ananev, A.Asmolov, G.Soldatova, I.S.Vigotskiy, V.V.Davidov, G.K.Selevko, Yu.N.Galaguzova, Ye.S.Polat, M.Yu.Buxarkina, M.V.Moisevning tadqiqotlarida ko'zga tashlanadi. S.A.Grigorev, V.I.Jukov,

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatli strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Harakatli strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sur'i. - Toshkent: G'afar G'ulom nomidagi nashriyot-nahaa jodiy'yi, 2017. - 92 b.
²Ilmiziyov Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021. - B. 231.
³Magisdovalar M. Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligining psixologik asoslari. Psixol.fan nom ... diss. Toshkent, 2011. - 162 b.

Va V.Koyunova, E.F.Zeer, V.V.Kraevskiy, A.V.Xutorskoy, V.A.Shareninlarning tadqiqotlarida psixologik aspektida differensial ta'lim tizimida shaxsni individual rivojlantirish masalalari bayon etilgan.

Xorijlik olimlardan L.Harvey, T.Hoffmann, Malcolm, D.Dickson, F.Gallard, D.Schaeffer, A.Moore kabilarining tadqiqotlarida differensial yondashuv asosida talabalar guruhni uchun vazifalarni taqdim etish, talabaning ishlab faoliyatini faollashtirish, mustaqil pedagogik faoliyatga tayyorlash yo'llari ko'rsatib berilgan.

Mutafakkir o'zining "Aql to'g'risida" nomli risolasida axloqiy odam egallashi lozim bo'lgan o'n ikki xislatni sanab o'tadi. Inson barcha a'zolarining mukammalligi, bilim olishga muhabbatli bo'lishi, xotirasi baquvvat, zehni o'tkir, so'zlari aniq, fikri ravonligi, g'ururti, vijdonli, adolati, moddiy boylikka berilmasligi kabilar shular jumlasidandir. Shuningdek, Forobiy ustozlar haqida fikr bildirib, "ta'lim-tarbiya ahlari ham o'z bilimlarining darajasiga qarab bir-birlaridan farq qiladilar, ortiq kam bo'ladilar. Ularning ba'zi birlarida kashf, ixtiro quvvati bo'lmaydi, ba'zilarida esa bu quvvat kamroq bo'ladi" deya ta'kidlaydi. [15; 110-b.]

Forobiyning ta'kidlashicha, baxt-saodatga eltuvchi yetuk jamoa rahbari (jumladan, o'qituvchi) komil inson uchun zarur bo'lgan barcha fazilatlarni hamda yetuk rahbar uchun shart bo'lgan xislatlarni egallagan bo'lishi kerak. Aks holda, ko'zlangan maqsadga erishishda turli to'siqlar vujudga keladi. Forobiy oqil insonlar haqida gapirib, aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilati, o'tkir mulohazali, foydali ishlariga berilgan, yomon ishlardan o'zlarini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydlar, degan edi. Alloma oqillar bor joyda hech qachon muammolar va kelishmovchiliklar bo'lmagligiga ishora qiladi. Uning fikricha, ustoz shogirdga zug'un qilishga, shuningdek, ko'p hollarda yon berishga intilmasligi darkor. Chunki ortiqcha zug'un shogirda ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi. Agarda shogird ustozning ko'ngli yumshoqligini payqab qolsa, bu hol ustozni mensimaslikka, oxir-oqibada u beradigan bilimdan so'rov ketishga olib keladi. [15; 89-b.] Forobiy muallimlarning oqil bo'lishi ularning jamiyatdagi xizmatini va mavqei oshirishini ta'kidlaydi. Ular berayotgan tarbiya shu xalq, shu millatning amaliy tajribalarini keyingi avlodga yetkazish asosida yoshlarni ish-harakat, kasb-hunarga o'rgatishdir. Agar yosh avlod kasb-hunarga qiziqadigan bo'lsalar, qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga yo'llasa, demak, ular kasb-hunarining chinakam egasi bo'la oladilar, degan xulosaga keladi.

Sharq olimlaridan yana biri Abu Ali ibn Sino o'qituvchi qanday axloqiy sifatlarga ega bo'lishi lozim, degan savolga javob berib: "... O'qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo'y va bola tarbiyalash uslublarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim. O'qituvchi o'quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, uning aql

qalamlariga kira olmog'i lozim". [19; 87-b.] Abu Ali ibn Sino mulohazalariga ko'ra tarbiyachi dastlab bolalarni yaxshi ko'rishi, hurmat qilishi, ular bilan xushmuomala bo'lishi shart. Agar bola ishini yaxshi bajarsa, uni o'z vaqtida rag'batlantirish, gohida maqtab qo'yish, aksincha, bo'lganda esa, unga tanbeh berish kerak. Tanbeh bolaning izzat-nafsiga tegadigan bo'lmagligi lozim, o'quvchiga murosasozlik qilish esa bolaning o'z-bechini bo'lib qolishiga olib boradi, - deydi Ibn Sino. [19; 98-b.]

U jamiyat ma'naviyatini tashkil etuvchi asosiy axloqiy fazilatlarni sanab o'tib, uni juda ulug'laydi va axloqiy illatlarni keskin qaratadi. Olim ta'lim-tarbiya masalalariga jamiyatning yetakchi muammolaridan biri sifatida alohida e'tibor qaratadi.

Ibn Sino ta'lim jarayonini tashkil etish muammosiga alohida e'tibor qaratgan va uni quyidagicha tashkil etish lozimligini ta'kidlaydi:

- ilmi to'liblarni birdan kitobga jalb qilib qo'yimaslik kerak.
- ta'lim asta-sekin, osondan qiyinga o'tish yo'li bilan olib borilishi lozim.
- yoshlar bilan amalg'a oshiriladigan tarbiya ularning yoshiga mos bo'lishi shart.
- ta'limni jamoa tarzida uyushirish darkor.
- o'qitish o'quvchining mayli va qobiliyatini hisobga olgan holda olib borilishi zarur.
- o'qitish jismoniy mashqlar bilan qo'shilib olib borilishi shart.

Ibn Sino tarbiya masalalari ifodalangan asarlarida o'qituvchining rollari katta e'tibor bilan qaratgan. Tarbiyachi tanlashni muhim masala deb hisoblagan. U bola 6 yoshga to'lishi bilan uni ustoz tarbiyasiga berishni tavsiya qiladi. Tarbiyachi rostgo'y, dono, odil, ozoda kiyinadigan, xushmuomala bo'lishi zarurligini uqitirib, yosh avlodni o'qitadigan hamda tarbiyalaydigan kishilar oldiga bir qancha talablar qo'ygan. Uning fikricha:

Tarbiyachi – bolalar bilan muomalada bosiq bo'lishi kerak.
Muallim o'quvchilar ta'limni qanday o'zlashtirayotganini kuzatib borishi kerak.

O'qitib jarayonida muallim har xil usullarni qo'llashi darkor.
Tarbiyachi o'quvchining xotirasi va boshqa aqliy qobiliyatlarini

bilishi lozim.

Tarbiyachi bolalarni tarbiyalashda tegishli jazo choralari qo'llashi, o'tilganlarni takrorlashga majbur qilish orqali ularni fanga qiziqirishi lozim.

Tarbiyachi o'z fikrini o'quvchiga bayon qilishdan oldin undan masalaning mohiyatiga o'zi tushunib olmog'i, keyin uni qisqa adabiy tilda tushuntirishi, ortiqcha gapirishdan qochishi kerak.

Har bir fikr haqiqat bilan tasdiqlanishi, bolalarda hissiyot uyg'otadigan bo'lishi lozim. [19; 101-b.]

Ibn Sinoning fan va ta'lim-tarbiya, o'quvchilar haqidagi fikrlari uning ana shu masalalar bo'yicha chuqur bilim va katta tajribaga ega bo'lganidan dalolat beradi. Mutafakkir o'quvchi va tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi va shaxsiy fazilatlari haqida to'xtalib, ular axloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi egallagan, irodali, dono, g'amxo'r va iymon-e'tiqodli, sog'lom, tozalikni sevuvchi, sofdil va odamlarga yaxshi munosabadda bo'la oladigan inson bo'lishi zarurligini e'tirof etadi. [19; 112-b.]

O'rta asrlarda yashab ijod etgan Markaziy Osiyo mutafakklari ta'lim-tarbiyaga doir qarashlari bilan bir qatorda pedagogning ijtimoiy faoliyatiga ham alohida e'tibor qaratganlar. Yusuf Xos Hojib, Burxoniddin Zamrujiy va Ahmad Yugnakiy kabi olimlar yosh avlodning jamiyada o'z o'rnini topishida ta'lim-tarbiya, ota-ona, oila va ijtimoiy muhitning o'rnini alohida ajratib ko'rsatganlar. Ularning fikricha, ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi komil insonni tarbiyalashdan iborat. Bu vazifani amalga oshirishda esa asosiy vosita sifatida mehnatga o'rgatish va qattiqqo'llik ekanligini ta'kidlaganlar.

Burxoniddin Zamrujiyning "O'quvchiga ta'lim yo'lida qo'llanna" asari, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari Markaziy Osiyo olimlari tomonidan tarbiya va ta'lim haqidagi mashhur manbalar hisoblanadi. Mutafakkirlar jamiyada ta'lim-tarbiyaning ijtimoiy o'rnini ijtimoiylashuvga ta'sir etuvchi muhitlar: ijtimoiy muhit, oila va o'quvchilar jamaasi ta'siri ostida belgilanishini ta'kidlaydilar. Ta'lim-tarbiya mazmunini jarayon ishtirokchilari bo'lgan ota-onalar, murabbiylar va o'quvchilar harakatlarini mujassamlashtirish orqali ochib berishga

harakat qilganlar.

Burxoniddin Zamrujiy "O'quvchiga ta'lim yo'lida qo'llanna" nomli asarini yozadi. Ushbu asarda ustoz amal qilishi lozim bo'lgan qator asosiy talablar haqida to'xtalib o'tilgan:

- o'rganish uchun fanlar orasida eng muhimlarini tanlash. Bola o'ziga qiziqishi, nimani o'rganmoqchi ekanligi va kelgusi hayotda qaysi fanlarga ehtiyoj tug'itilishini hisobga olish;

- eng avvalo bilimli, olijanob muallim tanlash;

- har bir kishi muruvvatpeshalik fazilatlari egallashga intilishi;

- o'quvchi muallimdan, o'rganayotgan fanidan, tanlagan kasbidan to'la qanoat hosil qilishi;

- o'quvchining sherigi sofdil, pok fe'l-atvori bo'lishi, yalqov, ixtiyosqana, ezma bo'lmashligi va qo'li egritlardan uzoqroq yurishi;

- o'quvchining muallimga, ustoziga hurmati – undan oldin yurmaslik, uning o'rniga borib o'tirmaslik, mashg'ulotlar paytida unga yaqinroq yotibdan bilmaslik. [27; 27-b.]

Jaholiddin Davoniy o'z asarlarida muallimning kasbiy va shaxsiy ehtiyojlariga alohida e'tibor qaratgan. U yosh avlodning tarbiyasiga salbiy ta'sir etuvchi, qo'pol va badi'atli muallimlarning xatti-harakatlarini keskin qoralaydi. Uning fikricha, muallim bilimli, aqlli, bola tarbiyasidan e'tiborlan, yaxshi xislat va fazilatlarga ega bo'lishi lozim. Mutafakkir o'quvchilik kasbining asl mohiyatiga to'xtalib, shunday deydi: "Agar ota uning jamoat tarbiyalashga sababchi bo'lsa, muallim uning ma'naviy tarbiyasining kamolotiga yetishuviga sababchidir". [35; 108-b.]

Davoniyning fikricha, muallim bola qaysi kasbga qiziqsa, shu kasbni egallashda aslofdil yordam berishi, uni har tomonlama qo'llab-quvvatlashi lozimligini uqtiradi. U muallim uchun zarur bo'lgan eng yaxshi insoniy fazilatlardan – adolatlilik, sadoqatlilik, donolik, zukkolik, sabr-hushyorlik, qanoatlilik, iftallilik, xayoliilik, mehr-shafqatlilik, muvovatlilik, saxsiylik singari axloqiy fazilatlarga o'quvchining xalq o'rtasidagi obro'sini oshiradi, ustoz-shogird munosabatlarini yuksak darajaga ko'taradi va ta'limning samaradorligini ta'minlaydi, - degan fikriga keladi. [35; 108-b.]

Allah Navoiy nafaqat shoir, mutafakkir balki faol ijtimoiy mehnat

bilan xalq orasida obro' qozongan. Shu bilan birga ta'lim sohasiga va muallimlar faoliyatiga ham homiylik qilgan. U ustozlarni hurmat qilish va ularning obro'sini oshirish va qadr-qiymatini saqlash zarur, deb hisoblagan. Ustozlar faoliyati eng murakkab va qiyin faoliyat turi, deb hisoblagan. Shu sababli u asarlarida ustozlarga quyiladigan talablar haqida ham to'xtalib o'tgan. Navoiyning ta'kidlashicha, mudarris o'ta bilimli, oqil, o'zaro mulqot jarayonida xushmuomala, fikrlari dono va mantiqli, og'ir, bosiq, axloqiy jihatdan hammaga namuna bo'lishi muhimdir. Bu o'sha jamiyadagi o'qituvchiga qo'yilgan yuksak talabdir.

Navoiy mudarrislik kasbining ijtimoiy ahamiyatini va mavqeiini alohida e'tirof etadi, ulug'laydi. O'qituvchining aslo amalparsi bo'lmashini, o'zi bilmagan narsalar haqida hech qachon so'zlamashini, o'z mavqeidan foydalanib maqtanmasligini, o'z fikrini birovga tiqishtirishga urinmasligini, hurmattalab va izzattalab bo'lmashini, o'ziga ortiqcha bino berishga odatlanmasligini alohida ta'kidlaydi. O'qituvchi o'z faoliyatida shunday illatlardan xoli bo'lmasa o'quvchilar tarbiyasida va hatto keyinchalik butun jamiyatda odamlar bilan o'zaro munosabatlarda kechirib bo'lmaydigan ko'ngilsizliklar yuz berishi mumkinligini ham e'tibordan chetda qoldirmaydi. [25; 96-b.]

Alisher Navoiyning "...ba'zi mudarrislar qiynash yo'li bilan bolalar ko'nglini o'zlariga rom qilmogchi va kichikintoylarning beqaror tabiatini do'q-po'pisa bilan tartibga solmogchi bo'ladi. Ulardan ko'rinish turgan qo'pollik yosh bolalardagi kelishmagan xatti-harakatni silliqlashga yirik egovdir", degan ibratomuz so'zlari yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi. [25; 96-b.]

Uning fikricha, tarbiyaning maqsadi yosh avlodni xalqparvar, bilimli, eng yaxshi fazilatlarga ega kishi qilib voyaga yetkazishdir. Hatto inijq, yalgov, yomon xulqi bolalarni ham tarbiya va o'qitish yo'li bilan yaxshi fazilat egasi qilib tarbiyalash mumkin. Navoiy o'qituvchining bir qancha ijobiy sifatlarini - qat'iyligi, mehnatsevarligi, bilimdonligi, mehrbonligi, hatto tashqi qiyofasi, sarajom-sarishaligi, ozodaligi, yaxshi odatlari, chiroyli qaddi-qomati va yurish-turishlari bilan hammaga namuna bo'lishini, yoshlarga ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashishni, shuningdek, tarbiya ishi juda ham mashqatli va

munavvab ish ekanligini alohida e'tirof etadi. [21; 65-b.]

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinish turibdiki, Alisher Navoiy yosh avlodni tarbiyalash – o'qitish ishini tasodifiy kishiga topshirishni qaratmagan. U o'qituvchiga eng yuksak talablar qo'ygan. O'g'il-qizni tarbiyalash va unga ilm berish, qobiliyatini o'stirish uchun nihoyatda bilimdon va usta tarbiyachi bo'lishi kerakligi va bolalarga ta'lim-tarbiya beradigan o'qituvchilar yoshlarga ilm, odob o'rgatish mahoratiga ega bo'lishi, o'qitish yo'llarini yaxshi bilishi zarurligini uqtiradi.

O'zbek adabiyotining dahosi "Mabub-ul-qulub" asarida o'qituvchilik me'yorlari xususida quyidagi mulohazalarini bildiradi:

"mudarris ota-onasining mansabi, boyligiga qarab bolaga muomala qilmasligi lozim;

"muallim bolalarga o'zi biladigan narsalarini o'rgatishi, bilmagan bilimlari o'rgatishga urinmasligi kerak;

"girdavish, mammanlik, ta'magirlik, nodonlik kabi illatlar o'qituvchi asloqiga yot sifatlaridir;

"muallim yaramas ishlardan, nopoklikdan yiroq bo'lishi kerak;

"kaly nazarida olim hisoblanadigan mudarrislar yomon ishlardan, haqiqi faqirdan o'zlarini tiya bilishlari zarur. [27; 30-b.]

Navoiy "Mabub ul-qulub" ("Qalblar sevgisi") asarida shunday yozadi: "Mudarrislar – mansab va amaldorlikka qiziqmasligi, o'zi bilmayotdigan ilmdan dars berishga urinmasligi, mammanlik uchun dars berishga havo ko'rgazmasligi, mudarris din ilmidan aniq masalalarni bilimg'i kerak, ko'pchilikka dunyoviy bilimlardan ta'lim bermog'i lozim; u yaramasliklardan hazar qilmog'i va nopok odamlardan uzoq yurmog'i; o'zini olim va bilimdon, deb ko'rsatmasligi; turli-tuman ahloqqa xilof ishlarot "Qissa ham bo'ladi", deb haromni halolga chiqarmasligi; joiz bo'lmagan ishlar bilan mashg'ul bo'lib odamlarni yomon otiqqa o'rgatmasligi; qilish kerak bo'lgan ishlarni qilmaslikni ham odamlar ilmdan o'rgatmasligi kerak". [25; 24-b.]

Jadid ma'rifatparvarlari Markaziy Osiyoda ijtimoiy pedagogik fikr namoyondalarga katta hissa qo'shgan yo'nalish vakillari hisoblanadilar. Ularning yo'nalishning asosiy g'oyasi jamiyatni isloh qilishda ma'rifatdan foydalanish, ya'ni jamiyadagi hukmron kuchlar tazyiqi, rivojlanishdan

ortda qolgan jamiyatni o'zgartirishning yagona to'g'ri yo'li ta'lim sohasini isloh qilish va xalqni ma'rifati qilishdan iborat edi.

Ma'rifatparvarlik yo'nalishining yirik namoyandalaridan biri Abdullo Avloniy ta'lim tizimi, o'qitishni takomillashtirish, o'qituvchilarni tayyorlash muammolariga mutlaqo yangicha yondashgan olimdir. Uning fikricha, ijodiy izlanish, o'qish va o'qitishning yangi shakli, uslub hamda vositalarini qidirish o'qituvchining eng muhim sifatlaridan biridir. [11; 74-b.]

Mahmudxo'ja Behbudiy - adabiyot, tarix, siyosatshunoslik, dramaturgiyani chuqur egallagan. U ma'rifat, ilm-fan, badiiy ijod sohasidagi butun faoliyatida millatimiz madaniyati, ma'naviyatining ravnaqi uchun kurashib, buyuk siyimo sifatida shuhrat qozongan holda ta'lim-tarbiyaga doir qimmatli fikr-mulohazalarni bayon etdi. Ustoz ta'lim-tarbiya haqida fikr bildirar ekan, mustamlakachilik davrida bu ishda muvaffaqiyatga erishishning birdan-bir yo'li o'lkada o'zaro ixtiloflarga barham berib, ahilik bilan ilm-fanni rivojlantirish kerakligini bayon etadi. Kattalar va muallimlarga murojaat qilib, ularni yoshlarni bilimi qilishga, mehnatga jalb etishga da'vat etadi.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'qituvchilar tashkil etayotgan ta'lim-tarbiya mazmuni ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarni o'zida ifodalashi, boyitib borilishi lozimligini ta'kidlaydi. [12; 124-b.]

Sharq mutafakkirlari va o'zbek ma'rifatparvarlari o'qituvchi kuchli xotiraga, iroda va tafakkurga, aql-zakovatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi, ko'zlangan maqsadni amalga oshirish yo'lida jonbozlik, qat'iylilik ko'rsatishi, o'quvchilarning ruhiy dunyosiga to'g'ri yo'l topa olishi, ularni ta'sir o'tkazishi, vijdonli, samimiy, odobli, nazokatli, ishchan, mas'ul shaxs sifatida faoliyat ko'rsatishi zarur ekanligini o'z asarlarida ta'kidlab o'tadilar.

XX asr boshlarida Turkistondagi hokimiyatning va siyosiy tuzumning o'zgarishi natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy hayotda maktab va muallimlarning faoliyatlari alohida o'rin tutgan. Ushbu davrda ularning ijtimoiy pedagogik faoliyatlari quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilgan:

- aholi va ayniqsa, xotin-qizlar o'rtasida savodsizlikni bartaraf etish;

- yoshlarni mehnatga, kasb-hunarga yo'llash;
- siyosiy vaziyat bargoroligini ta'minlashda aholi o'rtasida ijtimoiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish;

- maktab-internatlarni yaratish.

Zamonaviy o'zbek olimlari ham o'qituvchining ijtimoiy pedagogik faoliyatini muassada qator tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan, M.Ochilov o'qituvchining axloqiy fazilatlarini va ularni shakllantirish mezonlari haqida tashkil ma'lumotlar bergan. [27; 32-b.]

Abo'ruev o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatiga ta'sir etuvchi psixologik va pedagogik omillarni tahlil qilish asosida ijtimoiy faol o'qituvchi tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Kasbiy faoliyatda muvaffaqiyat va uzluksiz ijodkorlik pozitsiyasida tura oladigan, shaxsiy va kasbiy ehtiyojlarining uyg'unlashuvi asosida jamiyatga beruvchi foydalari va jamiyatdan oluvchi manfaatlari nisbatini teran anglovchi faol o'qituvchiga ijtimoiy faol o'qituvchi deyiladi". Olim fikrini davom ettirib: "Faoliyatida deganda shaxsni (ayni paytda mutaxassisni) o'zining faol o'rni, faoliyat maydoni, muayyan holati va vaziyatiga ega bo'la olishi kerakdir. Shu bilan birga, ijodkorlik serqirra ma'no kasb etib, o'qituvchining jamoa va jamiyat rivojiga bo'lgan munosabati nazarda tutiladi" - deb asoslaydi. [20; 20-b.]

Ya.Ragimberdieva ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ish tushunchalari tahlili asosida quyidagi ma'lumotlarni beradi: "Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ish amaliy faoliyatining yaqinligi, bu ikki hamkasblar toifasini kengaytirish, ularning maqsadlarini yaqinlashuviga va bir-birlarini to'ldirishlariga olib keladi. Turli davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida, muassada, bolalar bog'chalari va maktablarda, hozirda ham ijtimoiy shaxslar va ijtimoiy pedagoglar birgalikda ish olib borishlari mumkin. Hozir ularning har biri o'z maqsadlari va vazifalariga ega.

Ijtimoiy xodimlar va ijtimoiy pedagoglarning farqlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Bilim sohasiga ko'ra: ijtimoiy pedagogika-pedagogikadan, ijtimoiy ish esa sosiologiyadan.

Amaliy faoliyatga ko'ra: ijtimoiy pedagoglar o'z faoliyatlarida pedagog faoliyatining nazariy va metodik asoslariga suyanmalar, ijtimoiy

xodimlar, asosan, ijtimoiy nazariya va texnologiyalardan foydalanadilar.

Bu ikki soha shuningdek, faoliyat ob'ekti bo'yicha ham farqlanadi. Ijtimoiy ish ob'ekti insonning barqaror faoliyat yuritishiga xalaqit beruvchi muammolarga ega shaxsdir. Ijtimoiy pedagogika ob'ekti esa bolaning ijtimoiy sub'ektki aylanishiga kerak bo'ladigan yordamdir. [14; 73-b.]

D.Ro'zieva ijtimoiy pedagogikaning vazifalarini quyidagi yo'nalishlarda bo'lishni ta'kidlaydi:

1. Shaxsni ijtimoiy hayotga moslashtirish.
2. Imkoniyati cheklangan shaxslarga ruhiy va moddiy yordam ko'rsatish.
3. Shaxsning muayyan (yangi) muhitga moslashishiga ko'maklashish.
4. Farzandlar tarbiyasini tashkil etishda oilalarga ijtimoiy-pedagogik va metodik yordam ko'rsatish.
5. Salbiy ijtimoiy holatlar (jinoyatchilik, ichkilikbozlik, narkomanlik va h.k.)larning oldini olish.
6. "Mehribonlik uylari" tarbiyalanuvchilarini ma'naviy-axloqiy, ruhiy va kasbiy tayyorlash.
7. Favqulodda holatlar (terroristik harakatlar, buzg'unchi g'oyalar ta'siri, zo'ravonlik va odam savdosi) sodir etilganda jabrlanuvchilarga ruhiy va huquqiy yordam ko'rsatish.
8. Ijtimoiy tarbiyani tashkil etish bilan shug'ullanuvchi muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish. [31; 10-b.]

Yevropada ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi uch davrga bo'linadi. *Birinchi davr* – qadimgi davrlardan XVII asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda pedagogik bilimlar falsafa fani zaminida vujudga kelgan va rivojlangan. Ta'lim-tarbiya tajribasi boyib borgan, pedagogik va ijtimoiy qarashlarning shakllanishi ro'y bergan. Ijtimoiy pedagogik tajribaning ushbu rivojlanish bosqichi tarbiyaning ijtimoiy hodisa sifatida asta-sekin tan olinishi bilan xarakterlanadi. [43; 109-b.] Falsafiy, diniy va badiiy qarashlar tarkibida tarbiyaning turli nazariyalari yuzaga kelgan. Uyg'onish davrida ijtimoiy gumanistik g'oyalar asosida ijtimoiy pedagogik faoliyatning amalga oshirila boshlanishi mashhur italiyalik pedagog-gumanist Vittorino da Feltre (1378-1446) tomonidan ilk

maria "Quvunch uyi" nomli internat-maktabining yaratilishi bilan bog'liq.

Ijtimoiy pedagogik qarashlar va faoliyatning shakllanishidagi bu davrda din, pedagogika va ijtimoiy pedagogika bir-biri bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan. Diniy karashlarda asosiy e'tibor umuminsoniy ma'naviyatni shakllantirishga, diniy dunyog'arashni tarkib topirishga qaratilishi bilan bir qatorda, cherkovlar jamiyat a'zolarining ma'naviy, ruhiy va moddiy ehtiyojmand qatlamiga yordam ko'rsatish vazifasini ham amalga oshirishgan. Diniy manbalardagi ma'naviy-axloqiy o'g'itlarda ijtimoiy munosabatlarda va yaqin insonlarga hamda nechorlarga e'tibor berish haqida bahs yuritilgan. Yevropada cherkov uzoq yillar davomida "nogiron bolalar rahnamosi" bo'lib kelgan. Cherkovga nafaqat diniy, balki tibbiy va moddiy yordam, turli adolatsizlikdan himoya so'rab kelibgan va bugungi kunga qadar ham bu borada butun dunyoda diniy tashkilotlarning boy an'analari saqlanib qolgan.

Diniy tashkilotlar va faylasufning ijtimoiy pedagogik tajribasiga dalil ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, IV asrda Yevropaning Kesarliya shahrida cherkov yepiskopi Vasilij Kesarining tashabbusi bilan ota-onasiz bolalar uchun ilk tarbiya uylari tashkil etilgan. Parijda 1640 yilda ruhoniy Vinsento Depolen tomonidan ham tarbiya uyi tashkil etilgan. Ushbu tarbiya uyida ham ota-onasiz qolgan bolalar qo'nim topibgan va Vinsento Depolen tarbiya uyiga kirol Lyudovik XIV homiylik qilishiga erishgan.

Ijtimoiy pedagogika rivojlanishining *ikkinchi davri* XVII-XIX asrlarga to'g'ri keladi. Ushbu davr ijtimoiy pedagogika ilg'or pedagogik g'oyalar va diniy konsepsiyalar bilan boyitilgan davr bo'ldi. Ya'ni, burjuva-demokratik qarashlar vakillarining davlat va jamoat institutlari bilan hamkorlikda ijtimoiy-pedagogik muammolarni hal qilishga doir g'oyalarining paydo bo'lish davridir. Tarbiya masalalari jamiyada amalga oshirilgan islohotlar, siyosiy qarashlar, inson huquqlari muammolari bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanib bordi. Shuningdek, bu davrda ijtimoiy pedagogikdagi asosiy uchta yo'nalishlarda takomillashib borishi va ularning faoliyatida amalga oshirish kuzatildi. [36; 11-b.] Ya'ni, *birinchi*, yo'nalish – ijtimoiy pedagogikaning nazariy asoslarini ishlab chikildi. Bu

uning faolatidan alohida fan sifatida ajralib chiqishiga olib keldi.

Ikkinchi yo'nalish – ta'lim sohasidagi ijtimoiy-pedagogik amaliy faoliyat vujudga keldi. Ya'ni, ijtimoiy-pedagogik ta'lim-tarbiya maqsadiga faoliyat mazmuni ochib berildi va jamiyatdagi o'zgarishlarda pedagogik faoliyat o'z ifodasini topa boshladi.

Uchinchi yo'nalish – jamiyatda faoliyat yuritib kelayotgan muallimlarning ijtimoiy-pedagogik faoliyat doirasi kengayib bordi. Endi ular faqat aholining tanlab olingan ehtiyojmand yoshlar qatlami bilan emas, balki katta yoshdagilar bilan ham shug'ullana boshladilar. XIX asrning 60-70-yillariga kelib Yevropaning qator mamlakatlarida ijtimoiy-pedagogik faoliyatga doir qonunchilik tizimlari yaratildi.

Ijtimoiy pedagogik qarashlar va faoliyat rivojining *uchinchi davri* XX asr inson sivilizatsiyasi tarixida ilmiy-texnikaviy inqiloblar va globallashuv asri sifatida nom qoldirdi. Fan ishlab chikarish ob'ektidan iqtisodiy va madaniy sohaning yetakchi omiliga aylandi. Ilmiy inqiloblar ijtimoiy pedagogikaning keyingi rivoji birinchi navbada, falsafa orqali o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ijtimoiy pedagogikaning psixologiya, fiziologiya, anatomiya, tarix, sotsiologiya va kabi qator ijtimoiy fanlar bilan yaqinlashuvi sodir bo'ldi. Eng asosiysi, XX asrda insonning muammolari, uning tarbiyasi va ta'limi uchun ijtimoiy sharoitlarni yaratish zamonining eng global muammosiga aylandi. Ijtimoiy pedagogika ijtimoiylashuv, ijtimoiy dezadaptatsiya, androgogika, kasbiy pedagogika kabi faoliyat turlari bilan ham shug'ullanishni o'z zimmasiga oldi. Ayniqsa, g'oyaviy to'qnashuvlar, ziddiyatlar avj olgan hududlarda ijtimoiy pedagogikaning o'rni va faoliyat yo'nalishlari kengayib bordi.

Shu o'rinda e'tirof etib o'tish joizki, o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatiga doir pedagogikaning ilmiy-nazariy, metodologik va amaliy yo'nalishlari Umar az Zamaxshariy, Burxoniddin Zarnudjiy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Yu.P. Azarov, T.I. Gonobolin, A.K. Kuzmina, O.A. Abdullina, A.V. Mudrik, N.V. Kuxarev, V.A. Slastyonin, V.A. Kan-Kalik, N.D. Nikandrov, A.V. Petrovskiy, M. Ochilov, T.G. afrova, Sh. Nurullaeva, N. Egamberdieva, D. Ro'ziyeva, psixolog olimlar E.G. oziev, U. Mahkamov, A. Jabborov, M. Magasдова va boshqalarning ilmiy asarlarida yoritilgan. Ularning ta'kidlashlaricha, o'qituvchi o'z fanining bilimdoni bo'lishi bilan birga, insonparvar, adolatli

bo'lish, milliy tarbiya targ'ibotchisi hamda komil inson sifatida o'zida shaxsiy – kasbiy sifatlarni tarkib topirgan kasb egasi bo'lishi lozim.

1.4.6. Talabalarini ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash tamoyillari

Pedagog jamiyat hayotida o'z o'rniga ega bo'lish bilan bir qatorda ijtimoiy faol shaxs hisoblanadi. O'qituvchilik kasbi ijodkorlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik va faol izlanuvchanlikka asoslangan soha hisoblanadi. O'z ustida izlamaydigan, tashabbus ko'rsatmaydigan hamda faol qiltishdan to'xtagan har qanday pedagog ham jamiyada o'z nufuzini, pedagogik obro'-e'tiborini yo'qotadi. Shu tufayli ham o'qituvchi ijtimoiy faollik ko'rsatishi, o'z sohasini chuqur o'zlashtirishi lozim. Pedagogikada "kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash", "o'z-o'zini boshqarish" va "o'z-o'zini ta'limli etish" mazmun-mohiyati jihatdan ijtimoiy faollikka yo'naltiruvchi omil vazifasini o'taydi.

Talabalarining ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyor bo'lib borishida o'qituvchining dars jarayonini to'g'ri tashkil etishi, talabalarni faoliyat sharoitini hamda unda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yuzlab muammoli vaziyatlar bilan ishlashga tayyorlashga bog'liq. Bunday vaziyatlarni hal etish talabadan mustaqil bilim, kasbiy ko'nikma va malakalarni egallashni talab etadi. Bu jarayonda ijtimoiy pedagogik ta'limni differensial yondashuv asosida tashkil etishga doir an'anaviy va interaktiv metodlardan muvofiq foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni bu ijtimoiy pedagogik tamoyillar asosida talabalarni ham umumkasbiy differensial (ijtimoiy mas'uliyatlik, ijtimoiy faollik, refleksivlik, kommunikativlik) va kasbiy-individual (xotira, diqqat, temperament, sozlik, axloqiy, empatiya) kabi sifatlarni nazarda tutuvchi ijtimoiy ta'limni nazariy, amaliy va metodik kabi ustuvor yo'nalishlarini jamiyat talabari va me'yoriar asosida tashkil etishning yaxlit tizimidir. [40; 30-b.]

Ushbu tizim bitiruvchilarning kasbiy raqobatbardoshligini va yaxlit shaxsiyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Differensial yondashuv asosida ijtimoiy pedagogik ta'limni tashkil etishning asosiy **maqsadi** talabalarning iqtidori, qiziqishi, layoqati va qobiliyatiga ko'ra tabaqalashtirgan holda turli ijtimoiy pedagogik

faoliyatga va sohaga doir muammolarni hal etishga tayyorlashdan iborat.

Ijtimoiy pedagogik ta'limni differensial asosda tashkil etish davomida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- talabalarning qiziqishlariga ko'ra yo'nalislar bo'yicha ijtimoiy faolligini oshirish;
- ijtimoiy faoliyat davomida zarur bo'ladigan kasbiy qobiliyat, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- shaxsiy va kasbiy sifatlar, qobiliyatlar barqarorligini ta'minlash;
- talabalarni kasbiy refleksiyaga tayyorlash orqali o'zidagi shaxsiy va kasbiy kamchiliklarni bartaraf etishga o'rgatish;
- talabalarda tashabbuskorlik, prinsipiellik, mehnatsevarlik sifatleri orqali pedagoglarning ijtimoiy hayotdagi mavqeiini yanada oshirishga erishish.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda quyidagi sub'ektiv omillarni hisobga olish ijtimoiy pedagogik ta'limning muvaffaqiyatini ta'minlaydi:

- faoliyat maqsadini aniq belgilash va motivatsiyaning mavjudligi;
- vaqtdan umumli foydalanish;
- ish faoliyatini to'g'ri rejalashtirish;
- kasbiy refleksiya ko'nikmasini egallash;
- qulay mehnat sharoitini yarata bilish;
- pedagogik mehnatga ijodiy yondashish;
- tashkilotchilik, tashabbuskorlik va kommunikativlik;
- o'z ustida ishlash va mas'uliyatlilik.

O'qituvchilarning ijtimoiy pedagogik faoliyati muvaffaqiyatli kechishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- kasbga qiziqish va motivatsiyaning mavjud emasligi;
- prinsipsizlik;
- vaqtdan to'g'ri foydalana bilmaslik;
- irodasizlik;
- mas'uliyatsizlik, tartibsizlik;
- befarqlik va loqaydlik;
- ichki safarbarlikning mavjud emasligi.

Mana shu omillar (ijobiy va salbiy) ta'sirida ijtimoiy-innovatsion omilni yuzaga keldi. Shaxs o'z-o'zini tahlil qila olsa, o'z faoliyatiga o'z'ektiv baho bera olsa va o'z imkoniyatlari hamda kuchiga ishonsa, muvaffaqiyatsizlikka olib keluvchi omillarni yengib o'ta oladi. Bu o'rinda ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat va jamiyat a'zolarining fikri hamda ijtimoiy-pedagogik muhitning faol ta'siri alohida o'rin tutadi. Chunki, ijtimoiy faollik kasbiy tarbiya bilan o'z-o'zini tarbiyalashni izchil va to'g'ri ravishda olib borishni taqozo etadi. Bu jarayonda refleksiv, kognitiv va autogen mashqlar ham ijobiy samara beradi. [44; 150-b.]

Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni o'ziga mos pedagogik tamoyillar asosida amalga oshirilishi jarayonning tartibli, tizimli va muvaffaqiyatli tashkil etilishiga xizmat qiladi. *Ijtimoiy pedagogik ta'limdagi tamoyillar* – bu ijtimoiy jamiyat tomonidan bir qator qonuniyatlar (ko'pchiliklik, yaxlitlik, tizimlilik, barqarorlik, uzviy mustamotlilik) kabi mutaxassisning bir qator sifatlarini o'z ichiga olgan talabalaridan kelib chiqqan holda pedagogik ta'limni rivojlantirishning muvovar yo'nalislaridan biri hisoblanadi va shu sababdan ta'limni ma'muriylik, davriylik, sub'ektivlik, innovatsionlik tamoyillaridan kelib chiqqan holda amalga oshirishni nazarda tutadiki, bunda ushbu tamoyilni to'yolga chiqarish bitiruvchilarning davlat va jamiyatning zamonaviy talabalariga javob berishini nazarda tutadi. [44; 152-b.]

Asosiy tamoyillar sirasiga quyidagilar kiradi:

- differensial ijtimoiy pedagogik ta'limning tabiat va jamiyatga muvofiqlik tamoyili (tabiiy va ijtimoiy jarayonlarning o'zaro aloqadorligi, tabiat va insoniyat rivojining umumiy qonuniyatlarga muvofiq kelishini ifodalaydi);
- shaxsni ijtimoiy faoliyatga tayyorlashda uning jinsi, yoshi, psixologik, pedagogik va fiziologik xususiyatlarini inobatga olish tamoyili;
- ijtimoiy pedagogik ta'lim mazmunining variativligi tamoyili (shaxsning ehtiyoj va qiziqishlari, shu bilan birga, jamiyat ehtiyojlarining shima-tilligi xanda shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi uchun hudud, mintaqaga, respublika ehtiyojlariga ko'ra ko'p variantlilikini ifodalaydi);
- talabalarni ijtimoiy faoliyatda jamoaviylikka tayanishga o'rgatish tamoyili (bolalar, o'smirlar, o'spirinlarni ijtimoiylashtirish ularning

tengdoshlari va kattalar bilan o'zaro munosabatlari jarayonida amalga oshirilishini anglatadi);

- ijtimoiy pedagogik jarayonning madaniy taraqqiyotga muvofiqlik tamoyili (tarbiya mazmunining umuminsoniy madaniy qadriyatlariga muvofiq o'zgarib borishi, ma'naviy qadriyatlar va me'yorlar, u yoki bu hududning o'ziga xos xususiyatlari asosida tashkili etilishini anglatadi);

- ijtimoiy pedagogik shaxsga yo'naltirilganlik tamoyili (ijtimoiy tarbiyaning bolalar, o'smirlar, o'spirinlarni shaxs sifatida takomillashtirishga yo'naltirilishini anglatadi, ya'ni jamiyat markurasi, tarbiya g'oyasi, asosiy qadriyat sifatida shaxsning e'tirof etilishini ifodalaydi);

- kommunikativlik tamoyili (shaxslararo mulqotning tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar, tarbiyalanuvchi hamda tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro aloqa, tajriba almashish vositasi sifatida ustuvor o'rin tutishini ifodalaydi);

- ijtimoiy tarbiyaning insonparvarligi tamoyili (bola shaxsini hurmat qilish, uning shaxsiy, or-nomusi, qadri-qimmatini qadrlash e'tiborda ekanligini ifodalaydi). [38; 15-b.]

Ijtimoiy pedagogik faoliyat murakkab jarayon bo'lib, talabalarda birdaniga vujudga kelmaydi. Izlanishlarimizning ko'rsatishicha, o'qituvchi shaxsining ijtimoiy faolligini shakllanishi uni ushbu kasbni tanlagan davriga to'g'ri keldi. Ijtimoiy faol o'qituvchi shaxsining shakllanishida pedagogik va psixologik omillar ta'sirini o'rganish alohida tadqiqot mavzusi hisoblanib, talaba-yoshlarda yangicha dunyoqarash, shaxs va jamiyat manfaatlarining uyg'unligini ta'minlash hamda ijtimoiy sog'lomlashuv jarayonida yetakchi motivatorlik xizmatini bajaradi.

Shundan kelib chiqib, ijtimoiy pedagogika ruhan va qalban to'g'ri o'rnatilgan munosabatlar san'ati hamda madaniyati to'g'risida bahs yurituvchi fan sifatida o'qituvchi shaxsi oldiga ma'naviy-axloqiy va kasbiy vazifalar yuklaydi.

Bo'lajak ijtimoiy pedagog quyidagi muassasalarda faoliyat yuritishlari mumkin:

- turli ta'lim muassasalarining ijtimoiy-pedagogik xizmatlari (maktabgacha ta'lim muassasalari, qo'shimcha ta'lim muassasalari, umumiy ta'lim maktablari, maxsus axloq tuzatish muassasalari, litseylar, gimnaziyalar, maktab-internatlar, bolalar uylari, o'rta maxsus ta'lim muassasalari, universitetlar);

- tashkilatlashtirilgan muassasalarining ijtimoiy xizmatlari (rehabilitatsiya markazlari, ijtimoiy boshpanalar);

- shahar organlari xizmatlari (vasiylik va homiylik organlari, ijtimoiy psixologik va pedagogik yordam markazlari, aholini ijtimoiy himoya qilish bo'limlari, oilalar va bolalarga ijtimoiy yordam bo'limlari).

Shunday qilib, ijtimoiy pedagog o'z faoliyati davomida quyidagi turdagi vazifalarni bajaradi:

- sinfda, guruhda, talabalar turar joyida, ta'lim muassasalarida shaxsning umumiy madaniyatini shakllantirishga, shaxsni jamiyat hayotiga moslashtirishga, atrof-muhitga hurmat ko'rsatishga qaratilgan tarbiyaviy tadbirlar tizimini tashkili etadi;

- shaxsning psixologik-pedagogik xususiyatlarini va uning individual xususiyatlarini, yashash sharoitlarini o'rganadi, qiziqishlari va ehtiyojlarini, qiyinchiliklari va muammolarini, ziddiyatli vaziyatlarini, kelg-ukeydagi og'ishlarni aniqlaydi va ijtimoiy yordamga muhtoj yoshlarga o'z vaqtida ijtimoiy yordam ko'rsatadi;

- shaxs va ta'lim muassasasi, oila, atrof-muhit, jamoat tashkilotlari, uyushmalar muassasalari o'rtasida vositachi vazifasini bajaradi;

- yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarishga, qulay va xavfsiz muhitni yaratishga, ularning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni ta'minlashga yordam beradi;

- darsdan tashqari vaqtda yoshlarning iste'dodi, aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi;

- o'qituvchilar, ota-onalar (yoki ular o'rini bosuvchi vasiylar, homiyilar), ijtimoiy xizmat tashkilotlari, oila va yoshlarni ish bilan ta'minlash xizmatlari mutaxassislari va talabalar, homiylik va homiylikka muhtoj bolalar, nogironligi bor yoshlar, o'ta og'ir vaziyatda bo'lganlarga yordam tashkili qilish vazifasini bajaradi;

• muassasa ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirishda qatnashadi, o'z vakolati doirasida ularni sifati amalga oshirish uchun javobgarlikni zimmasiga oladi.

Ijtimoiy pedagogning faoliyat yo'nalishlari va vazifalari borasidagi qarashlar ularning professiogrammasi borasidagi qarashlarni tahlil qilishni taqozo etadi. O'qituvchilarning psixologik va pedagogik professiogrammasi borasida juda ko'plab olimlar izlanishlar olib borishgan. Jumladan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning psixologik-pedagogik professiogrammasi muammosi ustida izlanish olib borgan M.Magsadova professiogrammani quyidagi bo'limlardan iborat tarzda tavsiflaydi. [23: 122-b.]

1.1-jadval

№	Professiogramma bo'limlari	Mazmuni
I	Mutaxassislik haqida umumiy ma'lumot	1.1. Mutaxassislikning yuzaga kelishi tarixi. 1.2. Ilmiy texnika taraqqiyoti bilan bog'liq holatda kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan o'zgarishlar. 1.3. O'quv-tarbiyaning texnologik jarayonida kasbning o'rni va roli. 1.4. Kasb rivojining istiqbollari. 1.5. Turdosh (yaqin) kasblar. 1.6. Mutaxassisning ishlashi lozim bo'lgan joylar. 1.7. Mehnatga haq to'lash tizimi va o'rtacha ish haqi.
II	Mehnat jarayoni tavsifi	2.1. Faoliyat doirasi (sfera) va ish turi. 2.2. Mehnatning maqsadi va predmeti. 2.3. Asosiy mehnat qurollarining tipi va ularning qisqacha tavsifi. 2.4. Asosiy (yetakchi) ishlab chiqarish jarayoni. 2.5. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ish faoliyatining tarkibiy qismlari. 2.6. Qiyinchilik turlari.

III	Mehnatning sanitariy-ekologik sharoitlari	3.1. Mehnat sharoitining mikroiklimi. 3.2. Ish rejimi va ritmi. 3.3. Kasb uchun zarariy omillar. 3.4. Mehnat faoliyati jarohatlari (travma). 3.5. Kasb kasalligi. 3.6. Mehnatni himoya qilish va yengilliklar bo'yicha tadbirlar.
IV	Kasbiy faoliyatning psixofiziologik tavsifi	4.1. O'qituvchining axborotlarni qabul qilish hajmi va xarakteriga umumiy baho. 4.2. Sezgi a'zolarining sezuvchanlik xususiyatlari. 4.3. O'qituvchining aqliy faoliyatiga (kuzatuvchanligi, diqqati, xotirasi, tafakkuri, xayoli) umumiy baho. 4.4. Harakatlarga umumiy baho. 4.5. Rubiy-asab kuchlanishini (bosimini) talab qiladigan shaxslik xususiyatlari. 5.1. O'quv muassasasi tiplari va ularga qisqacha tavsif. 5.2. O'qishga qabul qilish shartlari. 5.3. Kasbiy bilimning asosiy mazmuni. 5.4. Kasbiy o'sishning istiqboli.
V	Kasbiy tayyorgarlikning shakli va tavsifi	


Boshlang'ich sinf o'qituvchisining psixologik-pedagogik professiogrammasi

Demak, ijtimoiy pedagogning professiogrammasi va bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan to'rtta asosiy komponentdan iborat:

- umumiy fuqarolik fazilatlar;
- shaxsiy kasbiy xususiyatlar;
- o'qituvchilik kasbining o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydigan fazilatlar;
- maxsus bilimlar, ko'nikmalar va texnikalar.

Ijtimoiy o'qituvchi faoliyatida mafkuraviy e'tiqod uning ijtimoiy va ekologiy yo'nalishini, xususan, ijtimoiy ehtiyojlarni, axloqiy va qadriyatli yo'nalishini, jamoat burchini va fuqarolik javobgarligini ifoda etadigan bo'libqa barcha shaxsiy xususiyatlar va xususiyatlarini belgilaydi.

Ma'ruvaviy e'tiqod tarbiyachining ijtimoiy faoliyati asosida yotadi. Shuning uchun u haqli ravishda tarbiyachi shaxsining eng chuqur fundamental xarakteristikasi, deb hisoblanadi. Ijtimoiy pedagog shaxsining tuzilishida kasbiy va pedagogik yo'nalishga alohida ahamiyat beriladi. Bu o'qituvchi shaxsiyatining asosiy kasbga oid muhim xususiyatlari yig'ilgan doiradir. Ijtimoiy pedagogik faoliyatining tuzilishini quyidagi chizmada keltirib o'tishimiz mumkin.



1.1-rasm. O'qituvchining ijtimoiy-pedagogik faoliyati turlari

1. Kognitiv faoliyat:

- o'z sohasiga doir nazariy bilimlarni puxta bilishi;
- nutq madaniyatiga (o'quv materialini tushunari va rayon tilda bayon qila olish malakasiga) ega bo'lishi;
- o'zlashtirgan bilimlarini gumanitarlashira olishi;
- faoliyatiga doir metod va vositalarni qo'llay olish malakasini (tevarak-atrofdagi buyumlar, harakatlar, modellar, sxemalar, jadvallar va hokazolar, o'qitishning texnika vositalari: diapozitivlar, diafilmlar, o'quv kinofilmlari, ovoz va videoyozuvlar, o'quv qo'llanmalar, talabalar bilimi, malaka va ko'nikmalarini nazorat qilish uchun moslamalar, mikrokompyuterlar)ni egallanganligi;
- yoshlarning psixologik, pedagogik va fiziologik ko'rsatkichlarini tahlil qila olishi va ularni baholay olishi;
- o'zlashtirgan bilimlarini uzluksiz takomillashtirib bora olishi;

- kasbiy fazilatlar va shaxsiy sifatlar (mehnatsevarlik, ishga ijodiy yondashish, mustaqillik, kamtarlik, yuksak madaniyatlik, epcchilik, hoziyjavoblik, vazminlik, mas'uliyatlik, sinchkovlik, qar'yatlik, hatortiblik, sabotlilik, tirishqoqlik, ijrochilik, vijdonlilik, xolislik, har tomonlama bilimdonlik, kuzatuvchanlik, xushmuomaliik, talabalar shaxsini hurmat qilish va boshqalar)ni egallay olganlik.

2. Rivojlantiruvchilik faoliyati:

- yoshlarning yosh va individual xususiyatlari, o'quv-biluv imkoniyatlari va qiziqishlarini bilishi;
- yoshlarda ijtimoiy vaziyat va faoliyatga nisbatan qiziqish uyg'ota olishi;
- shaxs pedagogik, fiziologik va psixologik rivojlanishiga doir ma'lumotga egalik va shaxsni rivojlantirish usullarini egallaganlik.

3. Yo'nalituvchilik faoliyati:

- yoshlarni kasbga, qiziqishlariga ko'ra faoliyat turlariga yo'nalitirish;
- ijtimoiy maqsadlarga va ijtimoiy foydali faoliyatga tayyorlashga oid metod va tamoyillar tizimini o'zlashtirganlik.

4. Safarbarlik:

- ijtimoiy-pedagogik faoliyatga talabalarning diqqatini to'g'irlash;
- har xil tipdagi ijtimoiy ahamiyatli mashg'ulotlar (yangi bilimlarni o'zlashtirish, malaka va ko'nikmalarni egallash, ularni qo'llash, bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirish, bilim, malaka va ko'nikmalarni nazorat qilish va tuzatish, aralash dars)ni o'tkaza olishi;
- pollexnik ta'limga oid va kasbga yo'nalitirish ishlarini amalga oshira olishi;
- egallangan bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirish;
- muammoli vaziyatlarni boshqara olish;
- mehnatni ilmiy asosda tashkil qila olishi va unga qo'yiladigan estetik va gijyenik talablarga rioya qila olishi.

5. Konstruktiv faoliyat:

- o'z mutaxassisligiga oid ta'lim muassasasi kursini puxta bilishi;
- jamoani tashkili eta olish va boshqara olish ko'nikmasini egallashi;
- o'z faoliyati va jamoa faoliyatini to'g'ri rejalashtira olish;

- ijtimoiy ahamiyati mashg'ulotlarni, tadbirlarni to'g'ri rejalashtirish va tashkil etish;
- kerakli hujjatlarni to'g'ri olib borish va rasmiylashtirish;
- asosiy tarbiyaviy ishlarning turlarini aniqlash va uni o'tkazish shakllarini tanlash;
- ijtimoiy ahamiyati mashg'ulotlar va tadbirlar uchun xonani jihozlash, zarur vositalarni aniqlash va uni ko'rsatmali qurollar hisobiga boyitib borish malakasi;
- guruh rahbari ishini rejalashtirishi;
- guruhdan va darsdan tashqari ishlarni, o'z faniga oid ommaviy tadbirlarni tashkil qilishi va ularni mohirona o'tkazishi.

6. Kommunikativ faoliyati:

- mulotoqot madaniyati va nutq texnikasini bilishi;
- ta'lim va tarbiya jarayonida mulotoqotni tashkil qilish shakllari (frontal, individual, guruh)ni egallagan bo'lishi;
- ijtimoiy-pedagogik jarayon ishtirokchilari bilan samarali mulotoqot o'rnatish;
- mulotoqot jarayonida axloqiy normalarga rioya qilishi;
- ta'g'iribotchi malakasini egallagan bo'lishi.

7. Tadqiqotchilik:

- ijtimoiy vaziyat, faoliyat jarayonini, tadbirlarni tanqidiy tahlil qila olishi va boyitib borishi;
- ijtimoiy ta'lim-tarbiyaga oid pedagogik tajribalarni o'tkazishi va ishlab chiqishi;
- boshqa o'qituvchilarning tajribalarini tahlil qilish va ulardan tanqidiy foydalanishi;
- ilmiy va pedagogik ijodiyotga qiziqishi;

- mulohaza yuritganda fikrlashning dialektik usulini qo'llashi.

Demak, pedagogik faoliyat muhim ijtimoiy-pedagogik hodisa. Uni to'g'ri tashkil qilish, talaba-yoshlar bilim olish jarayonini, ularning ehtiyojlari, qiziqishlari, motivlari, maqsadlari, amalga oshirish shakllarini to'g'ri yo'naltirish pedagogik mahoratning shakllanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Har qanday faoliyat singari, ijtimoiy-pedagogik faoliyat ham maxsus kasbiy va amaliy tayyorgarlik, tajriba, ixtisoslik bo'yicha

bilimga ega bo'lishini talab etadi.

Ijtimoiy pedagogning shaxsiy kasbiy sifatlari asosini bolalarga va kasbiyga bo'lgan muhabbat tashkil etadi. Ushbu asosiy fazilat o'qituvchining kasbiy va ijtimoiy-pedagogik yo'nalishini tavsiflovchi ko'plab professional ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarni rivojlantirish, maqsadli o'zini o'zi rivojlantirish uchun zaruriy shartdir.

Ijtimoiy pedagogning kasbiy sifatlari sirasiga pedagogik burch va mas'uliyat hissi ham kiradi. Pedagogik burchni his qilib, o'qituvchi har doim bolalar va kattalarga, unga muhtoj bo'lgan har kimga o'z huquqlari va vakolatlari doirasida yordam berishga shoshiladi; u pedagogik axloqning o'ziga xos qoidalariga, tartib-intizomga qat'iy rioya qilib, o'z oldiga aniq maqsad qo'yadi va maqsad sari qat'iyat bilan harakat qiladi.

Pedagogik burchning eng yuqori namoyon bo'lishi bu fidoyilikdir. Fidoyilik pedagogning mehnatga bo'lgan motivation-qadriyatli munosabatida o'z ifodasini topadi. O'qituvchining kasb burchini tan olish va mas'uliyatlik hissi asosida o'qituvchining hamkasblari, ota-onalar va bolalar bilan o'zaro munosabati pedagogik taktikaning mohiyatini tashkil etadi, bu ikkalasi ham mutanosiblik, harakatlarning ongli darajasi va uni boshqarish qobiliyatidir.

Pedagogik xushmuomalalik ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiy fazilatlari, uning dunyog'arashi, madaniyati, irodasi, fuqarolik mavqei va kasbiy mahoratiga bog'liq. Bu o'qituvchi va bolalar o'rtasidagi ishonchli munosabatlar rivojiga asos bo'ladi. Pedagogik takt, ayniqsa, o'qituvchini nazorat qilish va baholash faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi, bu yerda aholida g'amxo'rlik va adolat juda muhimdir.

Pedagogik adolat - bu tarbiyachining ob'ektivligini, uning axloqiy tarbiya darajasini o'lchovi. V.A. Suxomlinskiy shunday deb yozgan: "Adolat - bu bolaning o'qituvchiga bo'lgan ishonchining asosidir. Ammo muvqim adolat yo'q - shaxsiyat tashqarisida, shaxsiy manfaatlar, ehtiyojlar, g'ayratlar tashqarisida. Adolatlari bo'lish uchun har bir bolaning ruhiy olamini eng yaxshi darajada bilish kerak. [45: 83-b.]

Ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlanish jarayonida mutaxassislar quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni puxta uzlashtirib borishlari zarurdir:

1) ijtimoiy yordamga muhtoj hamda imkoniyati cheklangai shaxslar bilan ishlash;

2) ularning ruhiy va fiziologik salomatliklarini saqlash va salbiy ta'sirlardan muhofazalash;

3) turli yosh va guruhga mansub shaxslarni muayyan muhitga adaptatsiyasiga ko'maklashish;

4) ijtimoiy yordamga muhtoj hamda imkoniyati cheklangani shaxslarga ularning ijtimoiy va psixologik muammolarini hal etishda ko'maklashish;

5) ijtimoiy yordamga muhtoj aholi qatlamini ijtimoiy munosabatlarning faol ishtirokchisi sifatida shakllantirish.

Ta'lim jarayonida mutaxassislar quyidagi asosiy ijtimoiy-pedagogik bilimlarning asoslarini o'zlashtiradilar:

- ixtisoslik bilimlari;
- ijtimoiy-pedagogik faoliyat mazmuni, maqsadi, ijtimoiy pedagog zimmasidagi vazifalarni anglash xamda ijtimoiy-pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish imkonini beruvchi shakl, metod va vositalarni o'zlashtirishga bo'lgan motivatsiya;
- ijtimoiy va shaxsiy qadriyati yo'nalislar (malakali, yetuk mutaxassis bo'lish, ixtisoslik ma'lumotiga egalikni tasdiklovchi diplomga egalik);
- ijtimoiy yordamga muhtoj tarbiyalanuvchilarni hayotga tayyorlash, ularni salbiy ijtimoiy ta'sirlardan himoyalash yo'lida faollik ko'rsatish;
- ijtimoiy pedagog-tarbiyachi sifatida atrofdagilarning hurmatini qozonish (ijtimoiy-pedagogik faoliyatining jamiyat tomonidan alohida qadrlanishi);
- shaxsiy va kasbiy sifatlari;
- ixtisoslik ko'nikma va malakalari.

1.3-§. Differensial ta'lim mazmuni, tamoyillari va uning pedagogik imkoniyatlari

Differensial ta'lim o'quv jarayoni tashkiliy shakllaridan biri bo'lib,

bunday ta'lim jarayonida o'quvchilar ma'lum bir xususiyatlariga ko'ra guruhlarga ajratiladi va shunga ko'ra o'quv jarayoni tashkil etiladi. Differentsiya lotin tilidan olingan bo'lib, "differentia" - farq, tabaqa ma'nosini anglatadi.

Differentsiallashgan ta'limning asosiy belgilaridan biri bu o'quvchilarning turli xususiyatlariga ko'ra guruhlarga ajratish hamda o'quv materialini taqdim etishda har bir guruhning ushbu jihatarini hisobga olgan holda moslashtirish, to'ldirish yoki optimallashtirishdan iboratdir.

Differensial ta'lim muammosi pedagog va psixolog olimlar tomonidan turli nuqtai nazardan tadqiq etilgan bo'lib, turlicha ta'rif berilgan.

Ko'zmon Keldiyorov, Nurilla Ahmedovlar tabaqalashtirilgan ta'limni kelajakda o'quvchilarning kasb tanlashida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar: "Tabaqalashtirilgan ta'limda o'quvchilar o'z qiziqishlari asosida yo'nalislar bo'yicha guruhlariga bo'linib, ta'lim ma'lum kasbga yo'natirilgan tarzda amalga oshiriladi. Tabaqalashtirilgan ta'lim kasbga yo'natirish va yo'llashning muhim asosi hisoblanadi hamda faqat mutaxassislik sohasidagi bilim va ko'nikmalarni egallash bilan bog'liq bilimlar asosida amalga oshiriladi. Tabaqalashtirilgan ta'limda o'quvchilar kasbga yo'nalish va qiziqishidan qat'i nazar, barcha o'quv predmetlari bo'yicha to'liq o'rta ma'lumotga ega bo'lishadi. Tabaqalashtirilgan ta'lim asosida o'quvchilar tanlangan mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilim asoslarini egallashadi va amaliy malakalarga ega bo'lishadi. Tabaqalashtirilgan ta'lim kasb tanlashning asosi hisoblanadi va o'quvchilarning o'z qiziqish va moyilliklari asosida kasb tayyorgarligi shartlari egallashlarida muhim o'rin tutadi". Ushbu qarashda o'quvchilarni tabaqalashtirishda asosiy mezon sifatida ularning qaysi predmetga qiziqishlari yuqori ekanligi hamda bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatlari hisoblab olingan.

E.N.Sattorov tabaqalashtirib o'qitishning o'ziga xos jihatlari sifatida quyidagilarni qayd etadi:

- o'quvchilarning dastur materiallarini o'zlashtirishiga erishiladi;
- ularning bilim va malakalarida, ijodiy ishlarida o'sish kuzatiladi,

ularning fanga qiziqishlari orta boradi;

- o'quvchilarning faolligi oshadi;
- o'quvchilarning qobiliyati va imkoniyatlariga qarab bilim berilayotganligi sababi, ularda o'quv yuklamalarini o'zlashtirishda zo'rliq hollari bo'lmaydi;

- iqtidori o'quvchilarning chuqur bilimlar olishga bo'lgan ehtiyojlari qondiriladi;

- tabaqalashtirib o'qitish, uni demokratlashtirishga va insonparvarlashtirishga yordam beradi. [33; 118-b.]

R.Safarova tabaqalashtirish mezonlari hamda zaruriy shart-sharoitlar borasida to'xtalib o'tadi: "Tabaqalashtirib o'qitishni o'quvchilarning aqliy salohiyatidan kelib chiqqan holda tashkil etish noto'g'ri. Uni tashkil etishda o'quvchilarning individualligi, qiziqishlari, iqtidori kabilariga tayanish lozim. Chunki bu jarayonda o'quvchining individualligini namoyon qilishi uchun qulay imkoniyat vujudga keladi. O'quvchilarning qiziqishlari, iqtidori, intilish va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta'lim mazmunini tabaqalashtirish demokratik yondashuv bo'lib, u o'quvchi shaxsining o'zligini namoyon qila olishi uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Bugungi kunda pedagogika fani oldida tabaqalashtirilgan ta'limning ilmiy asoslarini yaratish, o'quvchilarni tabaqalashtirib o'qitish jarayonini nazariy metodik jihatdan ta'minlash, tabaqalashtirib o'qitishni tashkil etish shakl, metod, vosita va texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliy faoliyatga joriy qilish kabi muhim masalalar ko'ndalang turibdi va ular o'z yechimini kutmoqda". [32; 124-b.]

S.Qoraev differensial ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil ishlardan foydalanishga alohida e'tibor qaratadi va o'quvchilarni tabaqalashtirishda quyidagi xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatadi:

- mustaqil faoliyatida o'quvchilarning o'ziga xos individual xususiyatlari;
- fanlarga munosabati, layoqatligi;
- boy dunyoqarashi va intellektual xususiyatlari, ijodiyligi;
- mustaqil bilim olish ko'nikmalarining shakllanganligi;

- o'z faoliyatiga ijodiy yondasha bilishi, fan mashg'ulotlari bo'yicha mustaqil shug'ullana olishi;

- ularda fanga oid bilim, ko'nikma va malakalarning mavjudligi, ularning mustaqil ismini qiziqib bajarishi;

- faolligi, tashabbuskorligi, ijodkorligi kabilar. [28; 45-b.]

M.DH olimlaridan D.Kosyakov differensial ta'limni tadqiq etar ekan, ta'lim oluvchilarni guruhlariga ajratish mezonlariga alohida to'xtaladi va bunda quyidagi belgilarni inobatga olmaslik lozimligini alohida ta'kidlaydi:

- inson ichki organlari faoliyatidagi o'ziga xosliklar;
- shaxsning konstitutsion o'ziga xosliklari;
- salomatligi;
- mavjud layoqatni namoyon etishdagi to'sqinliklar;
- nerv tizimidagi o'ziga xosliklar;
- yosh va jinsga oid farqlar;
- temperament;
- fiziologik rivojlanishdagi defektlar.

Differensiallashtirish natijasida quyidagi xususiyatlarni aniqlash mumkin bo'ladi:

- qiziqishlar;
- psixofiziologik o'ziga xosliklar;
- kasbga qiziqish;
- diniy munosabatlar;
- qobiliyatlar;
- etnomadaniy xususiyatlar;
- bilim darajasi. [41; 54-b.]

T.V.Masharova, A.V.Matveev, L.V.Bayborodova o'quv jarayonini differensiallashtirishni ta'limning demokrativligi va insonparvarligi tamoyillarining amaldagi tabiqi sifatida qaraydi: "Ta'limni differensiallashtirish konsepsiyasi ta'lim tizimini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish tamoyillarini aniqlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi." [39; 16-b.]

B.A.Layumova ta'lim jarayonini differensiallashtirish jarayonini fiziologik va pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etadi. U shaxsning

mnemik qobiliyatini miya faoliyati hamda motivatsiya, xarakter, temperament kabi individual xususiyatlari bilan uzviy aloqadorlikda o'rganadi. Ushbu aloqadorlik tadqiqi natijasidan ta'limni differensiallashtirishda foydalanishda foydalanishga doir tavsiyalar ishlab chiqadi.

Pedagogikada ta'limni individuallashtirish va differensiallashtirish tushunchalari birga ishlatiladi. Ba'zi manbalarda ushbu tushunchalar umumiy holda ham qo'llaniladi. 1. Urt ushbu tushunchalarni pedagogik nuqtai nazardan farqlab ko'rsatadi. Uningcha, ta'limni individuallashtirish bu – o'qitish jarayonida o'quvchilarning qaysi xususiyati bo'lishidan qat'iy nazar ta'limning barcha shakl va metodlarida ularning individual xususiyatlarini inobatga olishdir.

Ta'limni differensiallashtirish esa bu o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olishning shunday shakliki, unda o'quvchilar ma'lum bir xususiyatlariga ko'ra guruhlariga ajratiladi va alohida talab oladilar; odatda bunday ta'lim jarayoni bir nechta o'quv rejasi va dasturi asosida amalga oshiriladi. [46; 190-b.]

Demak, differensial ta'lim bu – o'quvchilarning o'quv jarayonida muhim bo'lgan umumiy xususiyatlariga ko'ra ajratilgan (gomogen) guruhlar bilan olib boriladigan ta'limning tashkiliy shakli; o'quvchilarning muhim didaktik xususiyatlariga ko'ra tabaqalashtirilgan guruhlar uchun o'quv materialini moslashtirishni nazarda tutuvchi pedagogik tizim bo'limi.

Differensial ta'lim tushunchasi ta'limga differensial yondashuv muammosini o'rganishni taqozo etadi. Ta'lim jarayoniga differensial yondashuv bu – turi tipdagi guruhlar uchun uning kontingentining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish maqsadida turlicha ta'lim vaziyatini yaratish; gomogen guruhlar ta'lim jarayonini amalga oshirish maqsadida o'quv, metodik, boshqaruv, pedagogik va psixologik tadbirlar tizimini tashkil etishdir.

Zamonaviy pedagogikada ta'limni texnologiyalashtirish muammosi chuqur kirib borayotganligini inobatga olgan holda, differensial ta'lim texnologiyasi tushunchasiga ham to'xtalib o'tamiz. Differensial ta'lim texnologiyasi o'quv jarayoni maqsadiga erishish uchun o'qituvchi,

tabaqalashtirilgan talabalar guruhlar, ta'lim vositalarining o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini loyihalashtirish, tashkil etish va boshqarish tizimidir. Ta'lim texnologiyasining ushbu turi pedagogik jarayonda ikkita muhim vazifani bajaradi:

1. Talabalarining imkoniyatlari va qobiliyatlari darajasida ta'lim berish.
2. O'qitish jarayonini turi xususiyatlariga ko'ra tabaqalashtirilgan talabalar guruhiga moslashtirish.

Differensial ta'lim quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- Ta'lim oluvchilarning aniq akademik yoki psixologik xususiyatlariga ko'ra tabaqalashtirilishi;
- Talabalar guruhining dinamik xarakterda ekanligi;
- O'quv materiallarining variativligi va adaptivligi;
- Differensial ta'limning individualligi;
- Ta'limning demokratik va insonparvar xarakterda ekanligi. [42; 68-b.]

Differensial ta'limda ta'lim oluvchilar quyidagi xususiyatlariga ko'ra tabaqalashtiriladi:

1. Intellektual rivojlanishiga ko'ra (IQ test bilan aniqlanadi).
2. Tafakkur turiga ko'ra.
3. Temperamentiga ko'ra.
4. Qiziqishlariga ko'ra.
5. Layoqati va qobiliyatiga ko'ra.
6. Tanlagan mutaxassisligiga ko'ra va h.k.

Yuqoridagi xususiyatlariga ko'ra ta'lim oluvchilarni tabaqalashtirish uchun diagnostik tadbirlar o'tkaziladi va natijalarga ko'ra guruhlariga ajratiladi. Masalan, intellektual rivojlanishiga ko'ra uch darajaga ajratiladi:

- yuqori darajaga IQ test natijalari bo'yicha 20 baldan 14-20 ball to'plagan talabalar kiritiladi. Bunday talabalar faol va nostandart, ijodiy fikrlash tarziga, ixtiyoriy diqqat hamda xotiraga ega bo'ladilar.

- o'rta darajaga IQ test natijalari bo'yicha 20 baldan 8-13 ball to'plagan talabalar kiritiladi. Bunday talabalar o'rta darajada analitik fikrlash tarziga ega bo'ladilar, o'quv materialini takrorlashlar natijasida o'qishadilar.

• quyi darajaga IQ test natijalari bo'yicha 20 baldan 8 baldan past ball to'plagan talabalar kiritiladi. Bunday talabalarda bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan motivatsiyaning mavjud emasligi, tez charchash, chetidan yordam kutish holatlari kuzatiladi. Bunday talabalarga, odatda, o'qituvchi tomonidan bilimlarni o'zlashtirish algoritmi ham berib boriladi.

Ta'lim oluvchilarni guruhlariga tabaqalashtirish shartli xarakterda bo'lib, o'zlashtirishga ko'ra ular yuqoriroq darajaga ko'tarilishi mumkin.

Intellectual darajasi turlicha bo'lgan talabalarni guruhlariga ajratish o'qituvchidan o'quv materiallarini turlicha shakl va metodlardan foydalangan holda taqdim etishni talab etadi. Ya'ni, o'quv materiallari odatda o'ra darajada o'zlashtiruvchi talabalar uchun mo'ljallanadi. O'qituvchining vazifasi ushbu materialni o'zlashtirishlari uchun yuqori va quyida darajada intellektual salohiyatga ega talabalar uchun qo'shimcha materiallar ishlab chiqishdan iborat. Ya'ni, yuqori darajada o'zlashtiruvchilar guruhi uchun qo'shimcha topshiriqlar tizimi tayyorlanadi. Past darajada o'zlashtiruvchilar uchun esa ushbu o'quv materialni o'zlashtirishga yordam beruvchi qo'shimcha algoritmlar, eslatmalar, tavsiyalar tizimi ishlab chiqiladi.

Talabalarning psixologik xususiyatlariga ko'ra tabaqalashtirishda anglash jarayonidagi o'ziga xos psixologik xususiyatlar inobatga olinadi. Masalan, topshiriqlarni bajarishda namoyon bo'ladigan xotirasi, tafakkuri, diqqati kabilar. Differensial ta'lim jarayonida o'qituvchining vazifasi talabalarning faqat individual-tipologik xususiyatlarini aniqlash, shunga ko'ra guruhlariga ajratish emas, balki topshiriqlar tizimi asosida ularning rivojlanishdan orqada bo'lgan psixologik xususiyatlarini takomillashtirish, zaruriy darajaga ko'tarishdan iborat.

Bilimlarni o'zlashtirish darajasiga ko'ra differensiallashtirish past va o'ra darajada o'zlashtiruvchi talabalar bilimlar doirasidagi bo'shliqlarni to'ldirish, bilim o'zlashtirishga rag'batlantirishdan iboratdir. Bilim o'zlashtirishlariga ko'ra tabaqalashtirishda talabalarning o'zlashtirishlarini doimiy ravishda diagnostika qilib borish talab etiladi. Aks holda past o'zlashtiruvchilarda bilimga bo'lgan motivatsiya susayishi kuzatilishi mumkin.

Bilimlarni o'zlashtirishga ko'ra tabaqalashtirishda talabalar odatda bilimlarni o'zlashtirgan va o'zlashtira olmagan ikki guruhga ajratiladi. Bunda yakuniy nazorat me'yorlaridan foydalaniladi. Bilimlarni o'zlashtirgan talabalarga murakkab mazmundagi qo'shimcha topshiriqlar beriladi, o'zlashtirmagan talabalarga bilimlarni o'zlashtirishlaridagi muammolar aniqlanadi va koreksiya ishlari amalga oshiriladi.

Talabalarning maxsus qobiliyatlariga ko'ra differensiallashtirishda ta'lim jarayoni ham o'ziga xos tarzda amalga oshiriladi. Masalan, talabalar kommunikativ qobiliyatiga, akademik qobiliyatiga ko'ra, didaktik qobiliyatiga ko'ra, kognitiv qobiliyatiga ko'ra guruhlariga ajratilishi mumkin. Bunday guruhlariga ajratilgan talabalarda pedagogik qobiliyatning yaxshi rivojlanmagan turlarini rivojlantirishga doir topshiriqlar tizimi berib boriladi.

Qiziqishlari va moyilliklari ko'ra tabaqalashtirish differensial yondashuvda keng qo'llaniladi. Ushbu guruhlarda talabalar qiziqishlariga ko'ra topshiriqlar bilan mashg'ul bo'ladi. Ushbu qiziqishlar keyinchalik ma'lum bir qobiliyatning rivojlanishiga va o'z navbatida boshqa qobiliyatlar bilan ham takomillashtirishga xizmat qiladi.

Differensial ta'lim jarayoni individual va guruhli shakllarda tashkil etiladi. Differensial ta'lim ishtirokchilar masshtabiga ko'ra ikki turga ajratiladi:

1. Tekki differentsiatsiya – bir guruh ichida talabalarni kichik guruhlariga ajratish. Bu kichik guruhlar bitta auditoriyada bir xil fanni o'qiydilar, ammo bilim berish metod va vositalari turlicha tanlanadi. Shundaydek, o'quv materialini o'zlashtirishga doir qo'shimcha material va tavsiyalar har bir guruh uchun alohida tanlab olinadi.

2. Tasbeqi differentsiatsiya – talabalarni qiziqishlariga qarab guruhlariga ajratish va har bir guruhni alohida dastur asosida o'qitishni nazarda tutadi. Bunday differentsiatsiya asosida odatda elektiv kurslar va darsdan tashqari mashg'ulotlar yoki tor mutaxassisliklar bo'yicha tahsil tashkil etiladi.

Differensial ta'lim jarayonida bir qator zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan ham foydalaniladi. Jumladan:

• modulli ta'lim;

- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi;
- rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi;
- muammoli ta'lim texnologiyasi;
- o'yinli texnologiyalar.

Ta'lim jarayonida ta'lim texnologiyalari, shakl va metodlaridan o'qituvchi qanchalik keng va umumli foydalansa, ta'limga nisbatan talabalarning qiziqishlari ham oshib boradi va samaradorlik darajasi ham yuqori bo'ladi.

Pedagogik ta'lim jarayonida differensial ta'limni tashkil etishning asosiy tashkiliy shakllaridan biri bu amaliy va laboratoriya mashg'ulotlaridir. Differensiallashtirish jarayonida o'qituvchi talabalarning turi shaxsiy sifatlarini o'rganadi, aniqlaydi, tahlil qiladi va tasniflaydi.

Ichki differentsiatsiya asosidagi mashg'ulotlarda turi murakkablik darajasidagi topshiriqlar keng qo'llaniladi. Shuningdek, talabalarning mustaqil bajarish darajasi, mustaqillik darajasi, o'quv materialini hajmi, talabalarga yordam ko'lamiga ko'ra ham topshiriqlar tabaqalashtiriladi.

Differensial ta'lim texnologiyasi rivojlantiruvchi va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida amalga oshirilganda muvaffaqiyatli kechadi. Shuningdek, muammoli izlanish metodlari, interaktiv metodlar, o'yin metodlari, diskussiya, ijodiy topshiriqlar, intintiv va simulyatsion mashqlar differensial ta'lim jarayonida qo'llash uchun samarali hisoblanadi.

Differensial ta'lim faqatgina ta'lim mazmunini differensiallashirishni emas, balki ta'limning tashkiliy shakllari (individual, guruhli, frontal), metodlari, o'quv materialini va topshiriqlarni ham differensiallashirishni taqozo etadi.

Differensial ta'lim umumiy holda quyidagi afzalliklarga ega:

- bilim oluvchilarni rivojlantirish uchun ularning individual xususiyatlari va qiziqishlariga ko'ra optimal shart-sharoit yaratilganligi;
- o'quv jarayonining samaradorligi;
- bo'lajak pedagoglarning kasbga ijobiy va ijodiy munosabatlarining shakllantirilishi;

- talabalarning pedagogik qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish imkoniyatining mavjudligi;

- turli darajada o'zlashtiruvchi talabalarning o'z kuchi va muvaffaqiyatiga ishonchning mavjudligi. [36; 11-b.]

O'qituvchi ta'lim jarayonining asosiy tashkil etuvchisi va talabalar uchun sifatida differensial ta'lim davomida quyidagi vazifalarni bajaradi:

- talabalarni tabaqalashtirish uchun diagnostik tadbirlarni amalga oshiradi. Ya'ni, talabalarning tafakkuri, intellektual darajasi, xotirasi, diqqati, qiziqishlari, layoqati va qobiliyatlarini aniqlaydi;
- talabalarni guruhlariga ajratish uchun mezonlarni belgilaydi;
- har bir guruh uchun o'quv materiallari (nazariy ma'lumotlar, topshiriqlar, tavsiyalar, mustaqil ishlarni tayyorlaydi;
- talabalarning o'zlashtirish darajalarini doimiy ravishda nazorat qiladi va tahlil qiladi;
- o'zlashtirish darajalariga ko'ra talabalarni qayta guruhlaydi.

Ta'lim jarayonini differensiallashirish o'qituvchiga bir qancha qo'shimcha vazifalar yuklatish bilan bir qatorda, uning faoliyati uchun bir qancha afzalliklarga ham ega. Birinchidan, o'qituvchi yuqori darajadagi va past darajadagi talabalar bilan ishlashning optimal metodikasiga ega bo'ladi. Ikkinchidan, muntazam olib boriladigan diagnostik tadbirlar o'qituvchiga faoliyat natijasini ob'ektiv baholash imkonini beradi.

Talabalar esa differensial ta'lim natijasida individual yondashuv asosida ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, kuchli intellektual salohiyatga ega bo'lgan talabalarda yangi bilimlarni olishga ko'proq motivatsiya kuchayadi, ish tempi kuchayadi, past o'zlashtiruvchi talabalar uchun muvaffaqiyatga intilish hissi paydo bo'ladi.

Differensial ta'limning muhim jihati shundaki, bunday ta'lim ma'lum shaxsga yo'naltiriladi va o'ziga xos predmetlar tizimi o'qitiladi. Faqat bunday ta'lim ta'lim muassasasidagi imkoniyatlar puxta o'rganiladi. Ya'ni, ma'lum miqdorda qo'shimcha dars mashg'ulotlari o'tkazish yoki o'quv jarayonidagi ayrim predmetlarni tanlab olib, ularni chuqurroq o'qitish uchun metodik texnika va metodik ta'minot yetarli darajada bo'lishi lozim.

Shuningdek, u yoki bu ta'lim shakli, metodi va vositasini tanlashda ta'lim muassasasi, o'qituvchi va talabalarning imkoniyatlaridan kelib chiqiladi.

Differensiallashtirilgan mashg'ulot quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1-bosqich: motivatsion bosqich. Har bir guruh uchun maqsad belgilanadi va ushbu maqsadga erishish uchun talabalarda motivatsiya hosil qilinadi.

2-bosqich: analiz bosqichi. Turli guruhlar uchun maxsus ishlab chiqilgan topshiriqlar asosida talabalarning o'zlashtirish darajalari aniqlanadi, o'tilgan mavzu takrorlanadi.

3-bosqich: yangi bilimlar berish bosqichi. Ushbu bosqichda barcha talabalar uchun umumiy bo'lgan va differensiallashtirilgan guruhlar uchun alohida topshiriqlar beriladi. Bu bosqichda talabalarning turli guruhlariga muammoli topshiriqlar, harakatlar algoritmi, qo'shimcha topshiriqlar, qo'shimcha metodik yordam va tavsiyalar berib boriladi. Talabalar tegishli topshiriqlarni bajaradilar.

4-bosqich: mustahkamlash bosqichi. Yangi o'zlashtirilgan bilimlar turli darajadagi didaktik materiallar asosida mustahkamlanadi.

5-bosqich: natijalarni baholash bosqichi. Bu bosqichda tabaqalashtirilgan turli murakkablik darajasidagi testlar va mustaqil ishlar orqali talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari aniqlanadi.

6-bosqich: refleksiya bosqichi. Topshiriqlarning bajarilganlik darajasi o'rganiladi. Bunda tekshiruvlar o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi yoki o'z-o'zini tekshirish va o'zaro tekshirish shaklida ham amalga oshirilishi mumkin.

7-bosqich: differensiallashtirilgan topshiriqlar va mustaqil ishlar, Tekshiruv natijasiga ko'ra talabalar qayta guruhlanadi va har bir guruhga mos ravishda mashg'ulot mavzusiga doir differensiallashtirilgan mustaqil ishlar beriladi.

Mustaqil ishlar va topshiriqlar murakablashib borishiga ko'ra differensiallashtiriladi. Differensiallashgan topshiriqlarni uch toifaga ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

1-toifa topshiriqlar: o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy qayta ishlash, bilimlarni noma'lum amaliy vaziyatda qo'llash, muammoli vaziyat

hal qilish, muammoli savollarga javob topishga doir topshiriqlar, integrativ topshiriqlar. Bunday topshiriqlar yuqori darajadagi guruhga beriladi.

2-toifa topshiriqlar: o'rtacha darajada o'zlashtiruvchi talabalar uchun mo'ljallangan bo'ladi. Odatda dastur va darsliklar topshiriqlari o'rtacha darajada o'zlashtiruvchi talabalar uchun mos keladi. Bunga qo'shimcha ravishda qisman izlanishni talab etuvchi topshiriqlar, sxemalar bilan ishlash, qiyoslash, tavsiyalar asosida bajariladigan amaliy topshiriqlar berib boriladi.

3-toifa topshiriqlar: past o'zlashtiruvchi talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, bu topshiriqlar harakatlar algoritmi, qo'shimcha tavsiyalar, metodik ko'rsatkichlar bilan birga beriladi. Topshiriqlar, asosan, reproduktiv amaliyotlarda bo'ladi. Namuna asosidagi topshiriqlar, hayotiy vaziyatlarga doir topshiriqlar shular jumlasidandir.

Tadqiqotimiz davomida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda mutaxassislik fanlarini differensiallashtirib o'qitish borasida talabalar olib borilgan va bu boradagi amaliy ishlarni tashkil etishda o'qituvchi quyidagi vazifalarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq ekanligini aniqladik:

- differensial ta'lim, differensiallashtirish va ta'lim jarayonida ta'lim olovchilari shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda individual yondashuv asosida tabaqalashtirib o'qitishga doir mavjud nazariy va amaliy to'g'ri baholarni o'rganish, tahlil qilish, umumlashtirish va fan amaliyotlaridan kelib chiqqan holda amaliyotda qo'llash mexanizmlarini tashkil etish;

- differensial ta'limning ta'lim olovchilari, jamiyat va umumdavlat manfaatlaridagi ahamiyatli jihatlari aniqlash;

- ta'lim olovchilarni turli xususiyatlariga ko'ra differensiallashtirish hamda differensial ta'limni tashkil etishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar tayyorlash;

- pedagogik ta'lim jarayonini differensiallashtirib tashkil etishning tamoyillari, yo'nalishlari, mazmuni, tashkiliy shakllari, vosita va metodlarini tanlash;

- differensial ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan,

37.01
R-1
42

rivojlantiruvchi, muammoli, integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish yo'llarini ishlab chiqish;

- tabaqalashirilgan guruhlar bilan ishlashga doir differensial pedagogik ta'lim mazmuniga mos topshiriqlar va nazariy-metodik keyslarini tayyorlash;

- talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda individual yondashuv tashkiliy shakllarini ijtimoiy taraqqiyot, ilm-fani, ishlab chiqarish talablariga moslashtirishga yo'naltirilgan metodikani ishlab chiqish;

- talabalarining individual xususiyatlari, qiziqishlari, pedagogik layoqat va qobiliyatlarini rivojlantirishga va muayyan ijtimoiy pedagogik faoliyatga yo'naltirishga xizmat qiladigan nazariy va metodik tavsiyalarni tayyorlash hamda ommalashtirish.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarni differensiallashtirish o'qitish quyidagi pedagogik shartlarni inobatga olgan holda tashkil etilganda muvaffaqiyati kechadi:

1. Differensial ta'limni tashkil etish uchun pedagoglarni metodik jihatdan tayyorlash zarur.

2. Mutaxassislik fanlaridan turli xususiyatlariga ko'ra differensiallashtirilgan topshiriqlar, testlar, mustaqil ishlar bankini yaratish shart.

3. Talabalarni tabaqalashgan guruhlariga ajratishda faqat sinov natijalariga tayammasdan, o'qituvchilar va talabalarining fikrlarini ham inobatga olish lozim.

4. Topshiriqlarni bajarish davomida talabalarining kommunikativ faoliyati hamda sog'lom raqobatni yo'lga qo'yish kerak.

Birinchi bob yuzasidan xulosalar

1. O'qituvchi shaxsining jamiyatdagi o'rni muhim ekanligi muqol nazardan u egallashi lozim bo'lgan shaxsiy va kasbiy fazilatlarini diniy va falsafiy manbalar, Sharq mutafakkirlari, Yevropa olimlari asarlarida chuqur tahlil qilingan. Ushbu tahlillar asosida o'qituvchining ijtimoiy-pedagogik faoliyatiga qo'yiladigan talablar alohida ahamiyat kasb etishini ko'rishimiz mumkin.

2. Ta'lim jarayonida ta'limni insonparvarlashtirish va individuallashtirish tamoyillarining tabiqi sifatida differensial yondashuv kommunikativ pedagogik yondashuvlardan biri hisoblanadi. Agarda ta'lim jarayoni ixtirokchilarining turli individual xususiyatlariga ega bo'lgan talabalar bo'lsak, pedagog va psixolog olimlar tomonidan ishlab chiqarilgan differensiallashtirish tamoyillari, metodlari asosida ijtimoiy-pedagogik ta'limni tashkil etish muvaffaqiyat omili hisoblanadi.

3. Differensial yondashuv asosida ijtimoiy-pedagogik ta'limni tashkil etishning asosiy maqsadi talabalarining qiziqishlari, ehtiyojlari va qobiliyatlariga ko'ra amaliy faoliyatga o'rgatishdan iborat bo'lib, ijtimoiy-pedagogik faoliyat kommunikativ, konstruktiv, safarbarlik, tadqiqotchilik, rivojlantiruvchi, yo'naltiruvchi kabi yo'naltirishlarda amalga oshiriladi.

II BOB. TALABALARNI IJTIMOY PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASI

2.1-§. Oliy pedagogik ta'lim jarayonini differensial yondashuv asosida tashkil etishning funksional modeli

Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda modellashirish metodidan foydalanamiz.

Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorgarligini amalga oshirishda muammoni hal qilishda yetakchi ahamiyat "pedagogik tizim"ga qaratilishi muhim. Chunki, tizimning yaxlitligi barcha faoliyat ko'rsatuvchi elementlarning birligi, izchilligini ta'minlaydi.

Shuning uchun, birinchi navbatda, talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimiga kiritish mumkin bo'lgan elementlarning optimal sonini aniqlash lozim. Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimlarning o'ziga xos xususiyati ularda nazorat jarayonlarining mavjudligidir. Shu munosabat bilan talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash muammosini tizimli o'rganish natijasi uzoqsiz kasbiy tayyorgarlik parametrlarini ochib berish imkonini beradi, balki ularning pedagogik vositalarini, ya'ni talabalarining ijtimoiy ta'lim sohasidagi bilim va ko'nikmalarini shakllantirishni boshqarish imkonini ham beradi. Ijtimoiy pedagogik faoliyatda menejmentning mohiyati ijtimoiy xizmatlar va muassasalar tizimida ishlash uchun zarur bo'lgan mutaxassisning asosiy bilim va ko'nikmalari, malakalarini hamda shaxsiy sifatlarini shakllantirish maqsadida talabalarining ish usullari, faoliyat shakllarini izlashdan iborat. [37; 95-b.]

Bizga ma'lumki, boshqaruv sikli bir necha bosqichlardan iborat: maqsadni shakllantirish, maqsadli rejalashtirish, ijtimoiy pedagogik faoliyatni tashkil etish, mulohazalarni tahlil qilish, talabalarining o'quv faoliyati samaradorligini aniqlash. Ko'zlangan maqsad bilan natijalarning tasodifiyligi ta'lim jarayonining eng yaxshi variantidir.

Talabalarni ijtimoiy pedagogik kasbiy faoliyatga tayyorlash metodik tizimni qurishga nisbatan tizimli yondashuv, bizning nazarinizda, ushbu tizimning turli jihatlari haqida o'ziga xos ilmiy-nazariy bilimlarni qo'llash, buning uchun:

- talabalarni ijtimoiy pedagogik kasbiy faoliyatga tayyorlash metodik tizimning asosiy elementlarini aniqlash;

- tizim tuzilmasini ushbu elementlar va uning turli darajalari o'rtasidagi barqaror tizim hosil qiluvchi ierarxik munosabatlarning birligi sifatida aniqlash;

- tizimning shaxsiy darajalari va elementlarining funksiyalarini aniqlash ishlari muhimdir.

Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash metodik tizimi bir butunlikni tashkil etadi, uning elementlari bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lib, bir-birini to'ldiradi va yagona maqsad bilan birlashadi. Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda tizimli modellashirish predmetiga tizim sifatida qaraladi va modeli kognitiv jarayonning o'zi modeli tizimning fan kesimini aks ettiruvchi modellar tizimiga bo'linadi va ularning hammasi birgalikda umumlashadi.

Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash ijtimoiy-pedagogik hodisa va jarayondir. Tizimli modellashirishning amaliy asosi esa ijtimoiy fanlarning integratsiyalashuv darajasidir. Modellashirish dasturi mohiyatan cheksizdir. Uning asosiy vazifasi mavjud ob'ekt, uning o'zini boshqaruvchi boshqa ob'ekt bilan o'xshashlikka asoslangan holda qayta talablab chiqishdir. Model esa asl nusxaning analogidir. U aslga o'xshash bo'lishi kerak, lekin uni almashtirmasligi kerak, aks holda modellashirish o'z ma'nosini yo'qotadi. Modellashirish ko'p o'lchovli tadqiqot usuli bo'lib, birlash usullaridan biridir.

Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning funksional modelini ishlab chiqishda quyidagi ijtimoiy talabalariga amal qilish ko'zda tutiladi:

- to'liqlik, yetarilish va tadrijiylik kabi sifatlarga ega bo'lish; ijtimoiy ob'ekt, hodisa, jarayonni qayta ishlab chiqish uchun keng ko'lamdagi o'rganishlar, qo'shimchalarni imkoniyatini ta'minlash;

37.
R-
47-
- mavjud imkoniyatlardan foydalanib amalga oshirishga e'tibor qaratish, ya'ni jamiyat taraqqiyotining ma'lum darajasida faoliyat olib borish;

- tadqiqot vazifasi bo'yicha ijtimoiy ob'ekt (hodisa, jarayon) haqqida yangi foydali ma'lumotlar berish;

- o'z faoliyatini o'rganilayotgan ijtimoiy ob'ekt, hodisa, jarayonga muvofiqligi to'liqligini tekshirish.

Modellarni baholashning asosiy mezonlari:

- refleksiyani yangiligi (intuitiv, sifat tavsifi, vizual imitatsiya, tizimni ko'paytirish);

- tarqalishni (umuman ijtimoiy faoliyat, ijtimoiy guruh va boshqalar), rivojlanish darajasi (g'oya ilgari suriladi, sxema quriladi, algoritim ishlab chiqiladi va hokazo).

Shunday qilib, talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash mazmunini aks ettiruvchi taklif etiladigan model quyidagi asosiy xususiyatlar orqali aniqlanadi:

- sub'ektiv faoliyat (o'quv faoliyati sub'ektlari, ularning turli, ko'pligi, xilma-xilligi, bog'lanish va munosabatlar xarakteri);

- qadriyatli (ta'lim talablari, qadriyatlar va yo'nalishlar, maqsadlar, mintaqaviy, shahar, mahalliy va sublokal darajalarda ta'limni pastga qurab farqlash va diversifikatsiya qilish yo'nalishlari dars va pedagogik ta'lim maydoniga qadar);

- mazmuni (konseptual, jumladan, ta'lim mazmunini tashkil etish modellari - sub'ekt-axborot, faoliyat-texnologik, shaxsga yo'natirilgan, ijtimoiy-madaniy; predmet proektsiyalari-ta'lim muhiti, ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni);

- tashkiliy-boshqaruv (ta'lim siyosati, uning maqsad va vositalari orqali ochib berilganligi, ta'limni tashkil etishning asosiy shakllari-ta'lim tizimi, ta'lim loyihasi, ta'lim majmuasi, ta'lim hududi, idoralararo, sohavi boshqarish usullari). [26; 76-b.]

Ma'lumki, ta'lim tizimi ta'lim muassasalari va ijtimoiy muassasalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni amalga oshirish mexanizmlari majmuri bo'lsa, unda ta'lim makoniga nafaqat muassasalar, balki ta'limga qaratilgan ommaviy axborot vositalari, ta'lim muammolarini hal qilishda

talabot etiladigan jamoatchilik, shuningdek, shaxslarning ta'limga bo'lgan munosabati haqida xatti-harakatlarini tartibga soluvchi ta'lim nazariyalari va ijtimoiy-psixologik stereotiplar kiradi. Chunki, ta'lim makoni pedagogik voqelikning bir qismi sifatida, muayyan ta'lim turining mavjudligini belgilaydigan birtiq hajmining o'Ichovi sifatida qaratiladi.

Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash modeli ijtimoiy ta'limning ko'p funksiyali ekanligini hisobga olib quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ixtisilik-ob'ektning yaxlitligini va uni ta'minlovchi mexanizmlarni olib berishga, murakkab ob'ektning xilma-xil munosabatlarini aniqlashga va ularni yagona namunaga keltirishga qaratilgan;

- yaxlitlik-ob'ektning ichki birligini, uning nisbiy avtonomligini, sharoit muhitidan mustaqilligini aks ettiradi;

- sub'ektivlik-talabani maqsadlarni belgilash va rostdash, motivlardan sabablar bo'lish, harakatlarni mustaqil amalga oshirish va rejaga muvofiqligini baholash, hayot rejalarini tuzish qobiliyati nuqtai nazaridan ko'rib chiqilishni o'z ichiga oladi;

- integrallash-tartibsiz hodisalar, qismlar, elementlarning bir butun (barcha) va strukturali) integrallanishini ta'minlaydi.

Diversifikatsiya - ta'limda xilma-xillik, ko'rsatiladigan xizmat turlarini kengaytirish va yangi faoliyat turlarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu tamoyil ko'proq o'ziga xos tamoyillari majmuini o'z ichiga oladi. Bu ta'lim, shaxsiy yo'natirilganlik, tanlov erkinligi. Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash modelida ijtimoiy pedagoglar faoliyat olib boradigan uzluksiz ta'lim, davlat va jamoat tuzilmalari va ijtimoiy yo'nalishdagi muassasalar: tibbiyot, ta'lim, huquq, ijtimoiy rivojlanish institutlari, qo'llab-quvvatlash, aholini himoya qilish va boshqalarning o'zaro aloqadorligi ta'minlangan.

Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash modelining asosiy tizim tarkibiy funksional blok diagrammasi o'qituvchilik, professional gnostik, prognostik muvofiqdastiruvchi tizimlashtiruvchi modelni o'rtasida o'zaro hamkorlik shaklida paydo bo'ladi, ularning har biri o'z maqsadlarini amalga oshiradi. Uzluksiz ta'limda talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash quyidagi funksiyalar orqali

amalgaga oshiriladi: aksiologik, marketing, tashkiliy jarayoniy, monitoring.

Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda kasbiy fazilatlarini rivojlantirishni amalga oshiradigan kompleks hamda differensial o'qitish mazmuniga muvofiq, kasbiy rivojlanishning ko'p funksiyali fazoviy modeli quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: ijtimoiy - fazoviy, ta'limiy - fazoviy va shaxsiy - fazoviy. Talabalar ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda differensiallashgan kasbiy tayyorgarligini qo'llab-quvvatlovchi tuzilmalarga quyidagilar kiradi: muvofiqlashtiruvchi kengash, bitiruvchilar uyushmasi, vasiylik Kengashi, OTM Kengashi, mutaxassisliklar bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar va boshqalar. Tuzilmaning ta'lim makoni bevosita differensiallashgan ta'lim, ilmiy maslahat Kengashi, o'quv-uslubiy Kengash, bitiruvchi talabalar Kengashi va hokazolarni integrativ amalga oshirishga kiritiladi.

Bu makonning asosini talabalar kengashi tashkil etib, unga murabbiylar kengashi, oqsoqollar kengashi, kuratorlar kengashi, talabalar ilmiy-tadqiqot ishlari kengashi kiradi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasidagi asosiy tendensiya talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda bo'lajak pedagoglarning ijodiy salohiyatini ochib berish, o'z maqsadini to'liq chiqarish uchun shaxsiy mas'uliyatini mustahkamlash hamda aniq muammolarni hal etishdir. [36; 14-b.] Bo'lajak pedagog shaxsini to'liq faol ijtimoiy rivojlantirish shartlaridan biri janoviy o'z-o'zini tashkil etishning turli shakllarini yaratishdir. Talabalar o'z-o'zini boshqaruvini yangilash jarayoni ijtimoiy amaliy xarakterni berishga qaratilgan bo'lib, bu talabalar kashbiy va madaniy-axloqiy o'z-o'zini tashkil etish hamda ijtimoiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish imkoniyatlari va istiqbollari ongli, mas'uliyatli munosabatlarda bo'lish zaruriyatidan kelib chiqadi. Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda zamonaviy talaba o'z-o'zini boshqarishda quyidagi muammolarni hal qilishga qaratilgan.

- ta'lim, bilim, ilmiy, kasbiy va madaniy sohalarida ijodiy faoliyat va havaskorlik faoliyatini amalga oshirish;

- tegishli huquqiy bilimga va mas'uliyatga ega bo'lish;

- ijtimoiy va huquqiy o'z-o'zini himoya qilish.

Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda shaxsning

o'z-o'zini boshqarishi - bu faol hayotiy pozitsiyaga ega bo'lgan, ijtimoiy muhitlarda o'z-o'ziga ega, o'zini o'zi ijodiy rivojlantirishga qaratilgan o'quv-tarbiya ishlarning shakllaridan biridir. Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy institutning asosiy vazifalari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorligi;

- ijtimoiy faol talabalarni pedagogik faoliyatga jalb qilish, talabalar faollashtirilishi faoliyatini rag'batlantirish;

- o'quv jarayonini tashkil etishda va boshqarishda ishtirok etish;

- mutaxassislar tayyorlash sifatini nazorat qilish tizimida ishtirok etish;

- ta'lim makonlarini qiziqishlarini, imkoniyatlarini barcha darajalarda

faollashtirish;

- ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish hamda talabalar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash;

- talabalar, o'quvchilar va xodimlar uchun yagona axborot makonini yaratish;

- huquqni muhofaza qilish organlari bilan o'zaro hamkorlik;

- bandlik munosabatlari bilan hamkorlik;

- stipendiya berish va yotoqxonalarda joy ajratish jarayonida ishtirok etish;

- talabalarni qo'llab-quvvatlashda ishtirok etish;

- talabalar kashbiy va madaniy-axloqiy o'z-o'zini tashkil etish hamda ijtimoiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish imkoniyatlari va istiqbollari ongli, mas'uliyatli munosabatlarda bo'lish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda zamonaviy talaba o'z-o'zini boshqarishda quyidagi muammolarni hal qilishga qaratilgan.

- ta'lim, bilim, ilmiy, kasbiy va madaniy sohalarida ijodiy faoliyat va havaskorlik faoliyatini amalga oshirish;

- tegishli huquqiy bilimga va mas'uliyatga ega bo'lish;

- ijtimoiy va huquqiy o'z-o'zini himoya qilish.

Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda shaxsning

o'z-o'zini boshqarishi - bu faol hayotiy pozitsiyaga ega bo'lgan, ijtimoiy muhitlarda o'z-o'ziga ega, o'zini o'zi ijodiy rivojlantirishga qaratilgan o'quv-tarbiya ishlarning shakllaridan biridir. Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy institutning asosiy vazifalari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorligi;

- ijtimoiy faol talabalarni pedagogik faoliyatga jalb qilish, talabalar faollashtirilishi faoliyatini rag'batlantirish;

- o'quv jarayonini tashkil etishda va boshqarishda ishtirok etish;

- mutaxassislar tayyorlash sifatini nazorat qilish tizimida ishtirok etish;

- ta'lim makonlarini qiziqishlarini, imkoniyatlarini barcha darajalarda

faollashtirish;

- ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish hamda talabalar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash;

- talabalar, o'quvchilar va xodimlar uchun yagona axborot makonini yaratish;

- huquqni muhofaza qilish organlari bilan o'zaro hamkorlik;


- bandlik munosabatlari bilan hamkorlik;

- stipendiya berish va yotoqxonalarda joy ajratish jarayonida ishtirok etish;

- talabalarni qo'llab-quvvatlashda ishtirok etish;

- talabalar kashbiy va madaniy-axloqiy o'z-o'zini tashkil etish hamda ijtimoiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish imkoniyatlari va istiqbollari ongli, mas'uliyatli munosabatlarda bo'lish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda zamonaviy talaba o'z-o'zini boshqarishda quyidagi muammolarni hal qilishga qaratilgan.



Differentsial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda taklif etilgan modelni barcha bosqichlarda qo'llash (professional yo'naltirilganlik, ta'lim, fan, kasb tanlash va sertifikatlash, kasallik xizmati va hokazo) hamda pedagogik faoliyatda o'zgarishlar dinamikasi uning uzluksiz kasbiy rivojlanishining barcha bosqichlarida aks etiriladi (kasbiy moslashish, kasbiy mahorat va kasbiy ijodkorlik). Har bir bosqichda pedagogik faoliyatning tarkibiy qismlari aniqlanadi (strategik maqsadlar va motivlar asosida boshqariladigan aniq faoliyat turlari, taklik maqsadlariga yo'naltirilgan kasbiy harakatlar, harakatlarni aniq sharoitlarda bajarish hamda ularning samaradorligini baholash yo'llari va boshqalar), ijtimoiy pedagogning kasbiy funksiyalarini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi (motivatsiya, maqsadli va fezkor) va rivojlantirishga olib keladi.

Shunday qilib, ishlab chiqilgan metodik model talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda vazifalarni rejalashtirish va ta'lim dasturi maqsadlariga erishish strategiyasini belgilaydi.

Ijtimoiy institutlar tomonlar ehtiyojlariga asosan (ish beruvchilar va boshqalar) talabalarining kasbiy tayyorgarligini baholash tashkiliy va mazmuniy modelning tashqi sikli bilan belgilanadi hamda bunday ta'lim maqsadlarini aniqlash uchun dastlabki ma'lumotlar aniqlanadi va ichki siklini rejalashtirish uchun ta'lim strategiyasini belgilaydi.

Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlarini ko'rib chiqaylik:

- maqsadlar: umumpedagogik va kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish;
- yondashuvlar: differentsial, amaliyotga yo'naltirilgan, kompetentlikka asoslangan;
- usullar: ta'limning uzluksizligi, ko'p o'zgaruvchanligi, integrativligi, insonparvarlashuvi va demokratlashuvi;
- innovatsion mazmuni: mutaxassisligi bo'yicha o'quv-uslubiy maqbuliy;
- innovatsion tashkiliy shakllar: ijtimoiy muassasalarda amaliy maqbuliy;
- pedagogik jarayonning didaktik shart-sharoitlari: yaxlitlik,

integrativlik, differensial, innovatsion mazmuni, moslanuvchanlik, samaradorlik;

- o'zlashtirish darajalari: faoliyatli, reproduktiv, evristik, konseptual-kreativ, intellektual-tashabbusli;

- natijalar: akademik va professional yo'naltirilgan bilim va kompetensiyalar, asosiy amaliy ko'nikmalar muvozanatga erishish, intellektual va ijodiy tashabbusni shakllantirish, professional o'z-o'zini rivojlantirish, uzluksiz o'z-o'zini takomillashtirish.

Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashni differensial yondashuv asosida amalga oshirish har bir o'quv kursida bosqichma-bosqich shakllantirishga muvofiq amalga oshiriladi.

Pedagog maqomini ro'yobga chiqarish bosqichida differensial yondashuv (birinchi kurs) shaxsning yangi ijtimoiy roli, kasbning umumiy ilmiy asoslarini o'zlashtirish bilan bog'liq yaxli rivojlanishi kuzatiladi.

Shaxsning boshqalar ta'siriga moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Bu davrda talabalar odatda o'z rollarini farqlamaydilar. Talabalar jamon hayotining o'ziga xos shakllari bilan tanishadilar. Bu bosqichda talabalar yangi ijtimoiy aloqalarni o'rnatadilar, turli sharoitlarga moslashadilar.


Kasbiy o'z-o'zini bilish bosqichida (ikkinchi kurs) talabalar shaxsining ixtisoslashtirilgan rivojlanishi davom etadi, ularning madaniy talab va ehtiyojlari shakllanadi. Ular ishonch va mustaqillikka erishadi, nafaqat ta'lim va tarbiyaning barcha shakllariga kiritiladi, balki jamoat tashkilotlarida ham faol ishtirok etadi. Bu davrda, asosan, umumkasbiy fanlarga e'tibor ortadi.

Kasbiy o'z-o'zini aniqlash bosqichida (uchinchi kurs) talabalarning ixtisoslik o'quv fanlariga bo'lgan diqqati mustahkamlanib, ularning kasbiy faoliyat motivlari mustahkamlanadi. Bu bosqichda ilmiy izlanishga qiziqish ortadi va tanlangan kasbning xususiyatlari o'rganiladi. Shu bilan birga, talabalarining ijtimoiy faolligi rivojlanadi va o'z-o'zini tashkil etish darajasi ortadi.

Kasbiy tayyorlik bosqichi (to'rtinchi kurs) pedagogik faoliyatga bo'lgan munosabat bilan bog'liq bo'lib, mutaxassis ishining usul va texnologiyalarini o'zlashtirishga undaydi. Bu bosqichda talaba pedagogik tajribani egallash uchun amaliyot joyini tanlashga ko'proq ongli ravishda

yondashadi.

Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning asosiy yo'nalishlari nazariy, amaliy, ilmiy-tadqiqot va umummadaniy bo'lib, nazariy yo'nalish Davlat ta'lim standartini tashkil etuvchi ta'lim mazmunining barcha bloklarini amalga oshiradi, amaliy yo'nalish turli amaliyot turlari – amaliyot, sanoat amaliyoti va stajorlik amaliyoti bilan ifodalanadi. Tadqiqot yo'nalishi ta'lim tizimida tadqiqot faoliyatining tashkiliy asoslarini ochib beradi. Unga ko'ra u ta'lim jarayoniga qo'shilishi, unga qo'shimcha yoki unga parallel bo'lishi mumkin. Umummadaniy yo'nalish turli xil uyushgan faoliyat turlari bilan ifodalanadi: madaniy va dam olish, kasb-hunarga yo'naltirish, fuqarolik huquqi, axborotni anglash, sog'liqni saqlash. Barchasini amalga oshirish natijasi ijtimoiy pedagogik faoliyatda bo'lajak pedagog tomonidan namoyon bo'ladi, ularning sifati turli vakillik shakllarida – davlat attestatsiyasida, portfolio shaklida namoyon bo'ladi.



2.3-rasm. Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashga differensial yondashuvni amalga oshirish

Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorligini amalga oshirish texnologiyalari, shakllari,

usullari va yo'llari quyidagi jadvalda ko'rsatil o'tilgan.

2.1-jadval

Talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorgarlik bosqichlari

Tayyorlash yo'nalishlari	Talabalarining kompetensiyalarini shakllantirish bosqichlari	Talabalarining kasbiy raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari
	I kurs	
	<i>Talabalikni anglash</i>	<i>Hankorilik</i> <i>ijtimoiy mas'uliyat</i>
Nazariy	<i>Umummadaniy kompetensiyalar:</i> -hamkasblar bilan hankorilik qilishga, jamoada ishlashga tayyor bo'lish; -nostandart vaziyatlarda tashkiliy va boshqaruv yechimlarini topa olish; -o'z faoliyatida normativ-huquqiy hujjatlardan foydalana olish; -kuchli va zaif tomonlarini tanqidiy baholay olish, kamchiliklarini bararaf etish vositalarini tanlay olish; <i>Kasbiy kompetensiyalar:</i> -mijozning muammolarini tegishli mutaxassislarni jalb qilish, o'z kuchini, jismoniy, aqliy va ijtimoiy resurslarini safarbar qilish orqali hal qilish, o'z fikrlarini izchil va malakali shakllantirish.	Ma'ruza va seminarlar; nazorat ishlari; mustaqil ishlar; "O'quv faoliyati madaniyati" kursi va boshqalar.
Amaliy		Nogiron bolalarni tarbiyalovchi oilalarda tanishish amaliyoti; ijtimoiy muassasalarga ekskursiyalar; "Ko'ngilli faoliyat asoslari" kursi; yetimlar uchun bayramlarni tashkil etish va boshqalar.
Ilmiy		Insho yozish; ilmiy-amaliy anjumanlarda ishtirok etish; talabalar faoliyati bilan tanishish; "Tadqiqotchisi ishini tashkil etish" kursi va boshqalar.
umum-madaniy		To'garaklar tashkil etish; tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etish (ijodiy, harbiy-vatanparvarlik, sport va boshqalar).
	II kurs	
	<i>Kasbiy bilim</i>	<i>Hankorilik</i> <i>ijtimoiy mas'uliyat</i> <i>Refleksivlik</i>
Nazariy	<i>Umummadaniy kompetensiyalar.</i> bo'lajak kasbining ijtimoiy	Ma'ruza va seminarlar, testlar va mustaqil ishlar; "Talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etish" kursi;

Amaliy	atamiyatidan xabardor bo'lish; fikrlash madaniyatini egallash, axborotlarni umumlashtirish, tahlil qilish, idrok etish, maqsadlar qo'yish va unga erishish yo'llarini tanlash qobiliyatini rivojlantirish; og'zaki va yozma nutqni maniqan to'g'ri, bahsli va aniq tuza olish;	Yozgi sog'lomlashtirish lagerlarida o'quv amaliyoti; faxriyalar uchun dam olish tadbirlarini tashkil etish; ko'ngilli harakatlarda ishtirok etish; ijtimoiy muassasalar mutaxassislari bilan uchrashuvlar;
Ilmiy	<i>Kasbiy kompetensiyalar:</i> - ijtimoiylashuv, maslahat va ijtimoiy-psixologik faoliyatga tayyorgarlik; - ijtimoiy himoya, yordam va qo'llab-quvvatlash, jismoniy va ijtimoiy guruhlariga ijtimoiy xizmat ko'rsatishga tayyorgarlik; - ijtimoiy tashkilotlar va xizmatlarda ijtimoiy va psixologik jihatdan qulay muhit yaratish olish;	Referat yozish; talabalarining ilmiy-amaliy konferensiyalarda ishtiroki; universitetda va universitetlararo muhokamalar; kurs ishi doirasida tadqiqotlar olib borish; "notiqlik madaniyati" kursi va boshqalar.
umum-madaniy		Talabalar guruhlarida ishtirok etish; olimpiadalar, tanlovlar tayyorlash, o'tkazish va boshqalar.
Amaliy	III kurs	
	<i>Kasbiy o'z-o'zini aniqlash</i>	<i>Ijtimoiy faollik</i> <i>Empatiya</i> <i>Tolerantlik</i>
	<i>Umummadaniy kompetensiyalar:</i> - jamoat faoliyatida innovatsion va an'anaviy, ijtimoiy-tarixiy va kundalik-pragmatik, sosio-genetik va dolzarb tarmoq, texnologik va fenomenologik zamonaviy kombinatsiyani tushunish va ishlatish qobiliyatiga ega bo'lish.	Ma'ruza va seminarlar, testlar va mustaqil ishlar; "Talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etish" kursi; press-konferensiyalar; "Yetakchiga qiyimi?" kursi va boshqalar.
Amaliy		Ta'lim muassasalari integratsiyalashgan ijtimoiy xizmat ko'rsatish markazlarida mashg'ulotlar; vazirlik va idoralar xodimlari bilan uchrashuvlar;

Ilmiy	<i>Kasbiy kompetensiyalar:</i> milliy va mintaqaviy, jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ijtimoiy texnologiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish; – ijtimoiy tashkilotlar va		Hisobotlar, maqolalar yozish shartnoma va grant ishlari bilan ishlash; o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirish bo'yicha talabalar ilmiy-amaliy anjumanlarini tayyorlash va o'tkazish;
umum-madaniy			Xayriya tadbirlarida ishtirok etish, olimpiadalar, tanlovlar tayyorlash va o'tkazish va boshqalar.
IV kurs			
	<i>Kasbiy tayorgarlik</i>	<i>Ijtimoiy faollik</i> <i>Empatiya</i> <i>Talabalarlik</i>	
nazariy	<i>Kasbiy kompetensiyalar:</i> – shaxsiy kasbiy deformatsiyaning oldini olish, kasbiy charchoq va boshqalarga tayyor bo'lish;	Ma'ruzalar (ma'ruza-konferentsiya, ma'ruza-konsultatsiya), seminarlar, maslahat anjumanlari, kollokviumlar va boshqalar.	
Amaliy	– zamonaviy kvalimetriya va standartlashtirish yutuqlari asosida ijtimoiy xizmatlar sifatini baholay olish; – o'z-o'zini rivojlantirish, malaka oshirish va mahoratni oshirishga intilish;	Boshqaruv amaliyoti; rivojlantirish dasturini amalga oshirish kompyuter savodxonligi va boshqalar. Kichik yoshdagi talabalar uchun mahorat darslari, seminarlar; kurs va bitiruv malakaviy ishlar doirasida ilmiy-tadqiqot ishlari; tanlovlarda, grantlarda ishtirok etish, loyihalarni ishlab chiqish va boshqalar.	
Ilmiy			
umum-madaniy	– mintaqaviy darajadagi qonunchilik va boshqa normativ hujjatlardan vakolatli foydalanishga qodir; – kasbiy faoliyat jarayonida kasbiy va axloqiy talablarga rioya qilishga tayyor; – ijtimoiy-madaniy makoning o'ziga xos xususiyatlarini, turli ijtimoiy guruhlarning vakillarining ijtimoiy farovonligini ta'minlash infratuzilmasini tahlil qilish qobiliyatiga ega.	Tanlovlarda ishtirok etish, kasbiy mahorat, kichik yoshdagi talabalar uchun auditoriyadan tashqari ishlarni tashkil etish va boshqalar.	

Ta'limning uzluksizligi shaxsning hayotiy muvaffaqiyati, millat farovonligi va mamlakat raqobatbardoshligi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy hayotdagi dinamik o'zgarishlar va bilimlarning tez yangilanishi sharoitida differensial yondashuv inson kapitalining o'sishi, innovatsion rivojlanish va har qanday mamlakatning raqobatbardoshligi uchun muhimdir.

Bunday tizim uchta asosiy shartni ta'minlashi kerak:

- differensial ta'limning turli darajadagi to'pshiriqlarining uzviyligi;
- differensial ta'limni individual ta'lim traektoriyasida, malaka oshirish, qayta tayyorlash va boshqalarda davom ettirish imkoniyatini yaratish;

- pedagogik kasbiy tayyorgarlikni davom ettirish imkonini beradigan differensial ta'lim dasturlari ta'lim muassasalari, ijtimoiy institutlarda ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq. Chunki, differensial ta'lim davlat va jamoat xarakteriga ega bo'lishi, uning sifat, samaradorligi va raqobatbardoshligining to'g'ri darajasini ta'minlab, turli shakllarda ta'lim bilan shug'ullanuvchi barcha mulkchilik shaklidagi (davlat, korporativ, nodavlat) muassasa va tashkilotlarni o'z ichiga olishi mumkin.

2.2-6. Talabalarni differensial pedagogik ta'limga tayyorlashga doir diagnostik metodlar

Mamlakatimizning jahon ta'lim makoniga integratsiyalashuvi bilan bog'liq g'oyalarning rivojlanishi kontekstida ta'lim jarayonini zamonaviy postsiyoliyatlardan farglash bo'yicha mavjud tajribaga baho berish, uni muvaffaqiyatli ta'limda namoyon bo'layotgan tendensiyalar bilan bog'lash zarurati yuzaga keladi. Milliy nazariya va ta'limni differensiallashtirish amaliyotiga mos keladigan ilg'or, innovatsion g'oyalarni amalga oshirish yo'llarini topish, bizning fikrimizcha, ta'lim jarayonini insonparvarlashuviga olib keladi. Chunki, insoniyat jamiyati taraqqiyoti tarixida ta'lim-tarbiyaning differensiallashuvi shaxs imkoniyatlarini to'liq chiqarishga imkon berganligi bilan ahamiyat kasb etadi.

Shu bois tadqiqotimizda insonparvarlik paradigmasiga amal qilamiz, bunda ta'limni tabaqalashtirish talabalarni tanlash uchun emas, balki

ularning o'z hayotidagi ma'nosini, uning traektoriyasini, qobiliyatlariga ko'ra izlanishi uchun maqbul sharoitlarni yaratishdan iboratligiga asoslanamiz. Bu borada:

1. Talabalarining ijtimoiy-madaniy farqlari: qadriyatlar, dinlar, turli oilaviy munosabatlar, tillar, moddiy qadriyatlar va madaniy xususiyatlar;
2. Talabalarining psixologik xususiyatlari, ularning motivatsiyasi, istagi, e'tibori, ijodkorligini ochib berish;

3. Bilimlarning kerakli hajmini o'zlashtirishda, aqliy rivojlanishida, o'rganish strategiyalarida kognitiv qobiliyatlaridagi farqlarni ajrata olishga ahamiyat qaratish muhim.

Talabalarni differensial ta'lim asosida ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda asosiy e'tibor differentsiatsiya pedagoglarning auditoriyadagi talabalar o'rtasidagi tafovutga javob berish harakatlaridan iborat. Qachonki, o'qituvchi eng yaxshi ta'lim tajribasini taklif etgan holda ta'lim berish uslublarini o'zgartirsa, ta'limni differensiyalash imkoniga ega bo'ladi.

Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda pedagoglar talabalarining tayyorgarligi, qiziqishlari yoki o'rganish profiliga qarab kamida to'rt guruhni farqlashi mumkin:

Kontenti - talaba nimani o'rganishi kerakligi yoki talaba ma'lumotni qanday olishi mumkinligi;

Jarayoni - o'rganiladigan mavzu mazmunini anglash yoki o'zlashtirish uchun talaba shug'ullanadigan faoliyat;

Mahsuldor - talabadan bir bo'limda o'rganigan materiallarni mashq qilish, qo'llash va rivojlantirish bilan bog'liq yakuniy loyihalar;

O'quv muhiti - talabalarining faolligi va his qilish usullarini tanlash.

Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning kontenti darajasidagi tarkibni farqlash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- turli o'quv darajasidagi o'quv materiallaridan foydalanish;
- matnli materiallarni taqdimotga joylashtirish;
- talabalarining tayyorgarlik darajasiga ko'ra turli topshiriqlardan foydalanish;
- mavzuni eshitish va vizual vositalar orqali taqdim etishga erishish;

Bu jarayonda qiyin o'zlashtiruvchi talabalarga g'oya yoki ko'nikmani qayta o'rganish yoki faol talabalarining fikrlash ko'nikmalarini kengaytirish uchun kichik guruhlar bilan ishlash tizimini yo'lga qo'yishga erishish muvofiq.

Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning **jarayoni** darajasidagi o'quv faoliyatini differensiyalash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- talabalar bir xil muhim tushunchalar va ko'nikmalar bilan tashlagan, lekin turli darajadagi yordam, qiyinchilik yoki murakkablik bilan davom etadigan bosqichli mashg'ulotlardan foydalanish;

- talabalarni alohida qiziqish uyg'otadigan mavzusini o'rganishga undaydigan motivatsion faoliyatlarini ta'minlash;

- faol talabalar ko'magigiga ehtiyoj sezgan talabalar uchun manipulyatorlar yoki boshqa amaliy yordamlarni taklif qilishga doir topshiriqlar;

- o'zlashtirishi qiyin talabaga qo'shimcha yordam berish yoki faol talabani mavzuni chuqurroq o'rganishga undash uchun vazifalar berish samadorlikni kafolatlaydi.

Talabalarni differensial yondashuv asosida ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning **mahsuldor** darajasida differensial topshiriqlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- talabalarga mavzu bo'yicha variantlarni berish (masalan, oila bilan ishlashda o'z strategiyalarini taklif etish, ijtimoiy himoyaga muhtojlar bilan ishlashni o'rganish va boshqalar);

- talabalarining turli bilim darajalariga mos keladigan va rivojlantiruvchi rubrikalardan foydalanish;

- talabalarga o'z mustaqil ijodiy ishlari ustida individual yoki kichik guruhlarda taqdimot qilishiga imkon berish;

- mazkur jarayonda beriladigan differensial topshiriqlar zarur elementlarni o'z ichiga olgan ekan, ularga mustaqil topshiriqlar taklif etishga undash.

Differensial ta'lim berish jarayonida **o'quv muhiti** quyidagi sharoitlarga javob berishi muhim:

- auditoriya tinch va chalg'itmasdan ishlash uchun sharoit shuningdek, talabalarni hamkorlikka taklif qiladigan kichik guruhlar bilan ishlashlarini amalga oshirish;

- turli ijtimoiy institutlarni aks ettiruvchi materiallar bilan ta'minlash;

- kichik guruhlarni o'quv-biluv imkoniyatlariga mos keladigan mustaqil ish uchun aniq ko'rsatmalarni belgilash;

- pedagog boshqa talabalar bilan band bo'lgan va ularga darhol yordam bera olmaganlarida talabalarga yordam olish imkonini beradigan tartiblarni ishlab chiqish;

- talabalarga ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyor bo'lish ijtimoiy zarurat ekanligini tushunishlariga yordam berish.

Bizningcha, differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash - talaba nimani bilishi, uni qanday o'rganishi, talaba o'rganagan narsalarini qanday amalda qo'llashi o'sha talabaning tayyorgarlik darajasiga, qiziqishlariga mos keladigan samarali usullar bilan ta'minlash jarayonidir.

Bugungi kunda pedagoglar talabalarining ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash mazmuniga qanday kirishlari, konsepsiyani o'zlashtirish uchun qiladigan faoliyat turlari bo'yicha variantlarni taklif qilish orqali bir-biridan farqli talabalar bilan bog'lanish uchun differensial topshiriqlardan foydalanadilar.

Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda differensial ta'lim samarali o'qitish uchun asos yoki falsafa bo'lib, talabalarining yangi ma'lumotlarni (ko'pincha) tushunish uchun turli xil yo'llar bilan ta'minlashni o'z ichiga oladi. Bu borada talaba ijtimoiy pedagogik faoliyat va uning o'ziga xos xususiyatlarini anglashi muhim hisoblanadi.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat quyidagi ko'rinishlarda amalga oshirib boriladi:

• bolalarga beriladigan ijtimoiy yordam va xizmat ko'rsatish spektrlari haqida ma'lumot berish;

- ijtimoiy-huquqiy yordam berish;
- ijtimoiy-reabilitatsion xizmat;
- ijtimoiy-iqtisodiy yordam;
- ijtimoiy-tibbiy yordam berish;

• ijtimoiy-psixologik yordam berish;

• ijtimoiy-pedagogik xizmat kabiylardan iborat.

Shuningdek, ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyor bo'lishda talaba malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi:

- ijtimoiy jarayonda ro'y berayotgan voqealarni tahlil qila olishi;
- ijtimoiy muammolarni hal etish imkoniyatlarini prognoz qila olishi;
- ijtimoiy pedagogik jarayonlar mazmunini loyihalay olishi;
- o'z faoliyatini muntazam baholab borishi lozim.

Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda har bir talaba uchun mavzuni o'rganishni muvakkablashtiradigan hamda ko'nikmalarini rivojlantiradigan qiziqarli vazirlarni taklif etish lozim.

Shunday ekan, talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda differensial ta'limning imkoniyatlaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiq. Buning uchun talabalarni differensial pedagogik ta'limga tayyorlashning o'ziga xos metodlarni tahlil qilish va taklif etish maqsadga muvofiq, deb hisobladik.

Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga differensial yondashuv asosida tayyorlashda ijtimoiy sohada o'z bilimlarini tezda yangilash, o'zgaruvchan axborot muhitida moslashuvchan harakat qilish qobiliyati talab qilinadi. Fan, texnika va ijtimoiy sohada erishilgan yutuqlar, shuningdek, ishlab chiqarishni texnologiyalashtirish va axborotlashtirishning keng ko'lamli jarayonlarini tobora kengaytirish, yangi sohalarining paydo bo'lishi mutaxassislarining kasbiy malakasiga yuqori talablar qo'yilmogda.

Shu sababli talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga differensial yondashuv asosida tayyorlashda ularning ijtimoiy mas'uliyatli, refleksiv, moslashuvchan, harakatchan, tez qaror qabul qilish qobiliyati kabi shaxsiy fazilatlarni shakllantirib borishini nazarda tutali. Bunda pedagogik faoliyatga tayyorgarlik natijasi sifati hozirgi kunda uzluksiz ta'lim tizimida pedagog mutaxassislar tayyorlash sifati bilan bog'liqdir. Mazkur sifatlarning mazmuni quyidagicha ifodalanadi. Bu sifatlarni bir-biri bilan bog'liq va uyg'unidir.

Ijtimoiy mas'uliyat deganda biz ijtimoiy manfaatlarni ro'yobga

chigarishda boshqaruv sub'ektlari o'rtasidagi ob'ektiv bog'liqlik shaklini, shuningdek, sub'ektning o'z faoliyati natijalari uchun ijtimoiy borliq oldida javob berish qobiliyati.

Refleksiv - aks ettirish hodisasi bo'lib, sub'ektning o'z ongi mazmuni va funksiyalariga e'tiborini qaratish mutaxassisning nazariy faoliyati shaklini tavsiflovchi, uning o'z harakatlarini va butun madaniyatni tushunishga qaratilgan faoliyat.

Kasbiy moslashuvchanlik (didaktik nuqtai nazardan) - kasbiy faoliyatning kompetentlik, me'yor va funksiyalariga ega bo'lish, (psixologik) - tanlangan kasbga sub'ektiv qanoatlanish hissida paydo bo'ladigan turg'un ijobiy munosabatlarning rivojlanishi (ijtimoiy) - bo'lajak pedagogning yangi ijtimoiy muxitga, aynan ma'lum jamoaning shaxslararo munosabatlari tizimiga kirish qobiliyati.

Tez qaror qabul qilish - ma'lum hollarda ma'lum harakat usullarini tanlash va baholashdir; o'ta og'ir sharoitlarda ishlash bilan bog'liq, kutilmagan vaziyat, zarur tezlik va aniqlik stereotiplardan foydalanishga to'sqinlik qiladi. Kutilmagan holatlarda qabul qilingan qarorlarning yetarliligi darajasi va harakatlarning ishonchiligi bilan bog'liq shaxs harakati.

Talabalarda shakllantirish muhim bo'lgan mazkur sifatlar ijtimoiy tashkilotlarda muvaffaqiyatli faoliyat olib borishda hayotning barqarorligi, kelajakka ishonch hamda "xodim va uning kelajakda istiqbollari o'chadigan" imtiyozli yondashuv bilan bog'liqligini unutilib qo'yimaslik lozim.

Fikrimizcha, an'anaviy ta'lim tizimi har doim ham yetarli darajada talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash vazifasini bajara olmaydi. Ta'lim muassasalari bitiruvchilarining aksariyatida amaliy ko'nikma va zarur malakalar yetishmaydi. Zamonaviy ta'limning umumiy inqirozi ijtimoiy sharoitlar dinamikasiga sekin moslashishdan iborat bo'lib, ta'lim jarayonining barcha makonidagi (mintaqaviy va boshqa darajalarda) ta'lim jarayonining sifati o'rtasidagi tengsizlik shaxs, jamiyat, davlatning talablari va buyruqlari, ya'ni tez o'zgaruvchan jamiyadan ta'lim tizimining kechikishi, ta'limning eskirgan paradigmasi o'rin egallaydi.

Muvaffaqiyatli ijtimoiy pedagogik faoliyat olib borish uchun oliy

ta'lim bitiruvchisi mavjud vaziyatga mos holda qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Shu ma'noda, innovatsion taraqqiyot yo'lga o'tgan ta'lim muassasalari yosh avlodni tarbiyalash va maqsadli kasbiy pedagogik tayyorgarlikni ta'minlash uchun eng samarali bo'lib qolmoqda.

Bizga ma'lumki, maxsus kasbiy tayyorgarliksiz bo'lajak pedagoglar o'z sharoitidan kelib chiqib, o'z kasbiy vazifalari doirasini kengaytirishga majbur bo'ladi. Dastlab ijtimoiy pedagoglar ijtimoiy ta'minot idoralarda (oilalar va bolalar markazlari, aholi ijtimoiy xizmat ko'rsatish markazlarining turli toifalari uchun reabilitatsiya markazlari va boshqalar) faoliyat olib borayotgan bo'lsalar, bugungi kunda ular sog'liqni saqlash, ta'lim, voyaga yetmaganlar jazo muassasalari va hokazolarda faoliyat olib bormoqda. Bu esa ijtimoiy pedagoglarning faoliyat olib borish spektrini yanada kengaytiradi.

Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda Oliy ta'limda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish ijtimoiy pedagoglarning professional fazilatlarini shakllantirishni hamda zarur hollarda kasbiy almashinuvchanlikni ta'minlaydi va kasblarni asosan bir-birini to'ldiruvchi faoliyat sohalari mas'uliyatiga mos keladigan funksional vazifalar sifatida birlashtirish imkonini beradi. Differensial yondashuv ijtimoiy bilimlar bir vaqtning o'zida ularni "yaqindan bog'liq" deb hisoblashga imkon beradi va hozirgi kunda ijtimoiy fanlarning yangi paradigmasi mavjudligiga e'tibor qaratadi. Bu yerda ilmiy fanlar nafaqat uning ob'ektlari va usullariga, balki insonlarning hayoti va faoliyati nuqtai nazaridan ham bog'liqdir. Bu ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy faoliyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rnatishga imkon beradi.

Tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqib, talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga differensial yondashuv asosida tayyorlashda oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlari (DTS) talablarini tahlil qilib, talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatning tabaqalashtirilgan xususiyatlarini umumlashtirib o'tamiz. (2.2-jadval).

2.2-jadval

Ijtimoiy pedagogning kvalifikatsion xususiyatlari

<i>Tahtiy komponentlar</i>	<i>Ijtimoiy pedagog</i>
Faoliyat maqsadi	Umumiy – ijtimoiy individdning rivojlanishi, davlat tashkilotlari va ta'lim tashkilotlari integratsiyasini ta'minlash, shaxsning umumiy ma'daniy kompetensiyalarini shakllantirish.
Faoliyat ob'ekti	Maxsus - Ta'lim sohasida ijtimoiy-pedagogik faoliyat. Umumiy - bolalar, yoshlar, oila. Maxsus-Ta'lim va tarbiya.
Faoliyat sohasi	Umumiy - Ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash, ma'daniyat, ijtimoiy himoya. Maxsus - Ta'lim sohasida ijtimoiy pedagogik faoliyat.
Faoliyat predmeti	Umumiy - ijtimoiy yordam. Maxsus - Ijtimoiy tarbiya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.
Asosiy shakllar	Umumiy - huquqiy, ijtimoiy-psixologik, Maxsus - psixologik, pedagogik.
Faoliyat ko'rinishlari	Umumiy - ijtimoiy-pedagogik, tadqiqotchilik, tashkiliy-boshqaruv, loyihalash, ilmiy-usuliy. Maxsus - O'quv-tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, ma'daniyatli
Faoliyat natijasi	Umumiy - ijtimoiy barqarorlik. Maxsus- ijtimoiy qulay sharoit yaratish.

Ma'lumki, bo'lajak ijtimoiy pedagoglarda kasbiy sifatlarni rivojlantirish ham juda muhimdir, chunki ularning kasbiy faoliyati ko'p o'lchovli va ko'p qirrali hisoblanadi. Bu ularning kasbiy vazifalari (diagnostik, prognostik, profilaktik, inson huquqlari, psixologik, ijtimoiy-pedagogik, tashkiliy va boshqalar);

-kasbiy faoliyat sohalari (ijtimoiy himoya, sog'liqni saqlash, ma'daniyat, ta'lim, huquq, davlat va nodavlat xizmatlari va boshqalar);

- kasbiy faoliyat ob'ektlari (shaxslar, oilalar, aholi guruhlari va jamoalar);

- mijozlarning muammolari – ijtimoiy xizmatlardan foydalanuvchilar (gijohvandlik, alkogolizm, yolg'izlik, ziddiyat, ishsizlik va boshqalar);

- ijtimoiy rollar (yurist, assistent, psixoterapevt, konfliktolog, animator, ekspert, jamoatchilik) va boshqalar.

Ijtimoiy pedagoglar faoliyatining barcha bu noyob jihatlari muvaffaqiyatini amalga oshirishda ijtimoiy pedagoglarning axborot, tashabbus, refleksiv, mas'uliyatlik, bag'rikenglik va bu fazilatlarini rivojlantirish jamiyada samarali ijtimoiy va kasbiy-pedagogik faoliyat olib borishga imkon beradi.

Differensial ta'lim berish esa zamonaviy oliy ta'limdagi eng samarali texnologiyalardan biridir, chunki u talabalarda bilimdan differensial foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi; elektiv va tor empirik yo'nalishni istisno qiluvchi murakkab muammolarni hal qilishning oqilona yo'llarini ishlab chiqaradi; yangi fikrlash usulini, xususiy umumiylikni ko'rish va xususiylikni umumiy nuqtai nazardan tahlil qilish qobiliyatini ishlab chiqaradi; ta'lim faoliyatini sezilarli darajada faollashtiradi.

Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga differensial yondashuv asosida tayyorlash talabani doimiy o'zgaruvchan sharoitda yashash va ishlab chiqarishga tayyor bo'lgan kuchli shaxs, o'z xatti-harakatlarini jasorat bilan muvaffaqiyatli va noan'anaviy tarzda o'ylab, axloqiy tanlov qilish va o'zi va jamiyat uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, hayotini va harakatlarining hayotini mazmunli, qiziqarli hamda baxtli qilishga qodir bo'lishga tayyorlash imkonini beradi.

Shunday qilib, faoliyat sub'ekti sifatida bo'lajak ijtimoiy pedagoglar to'yinlashda gapirganda, quyidagilar haqida ta'kidlash kerak:

- pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish imkoniyatini yaratuvchi har qanday shaxsiy sifatlarni tizimini shakllantirish;

- qobiliyatlarini rivojlantirish;

- bilimlarni rivojlantirish;

- shaxsning kasbiy yo'nalganligini shakllantirish;

- maqsadli belgilash tizimini shakllantirish;

- jamoada munosabatlar tizimini rivojlantirish;

- shaxsning muayyan kasbiy jamoa vakili sifatida o'z-o'zini anglashini shakllantirish;

- adekvat o'z-o'zini baholashni shakllantirish;

- shaxsning mazmunli ustuvorliklarni belgilash qobiliyatini rivojlantirish;

- qurilmalarni shakllantirish;

- maqsad yo'nalishlarini shakllantirish;
- emosional barqarorlik va emosional ekspressivlikni shakllantirish;
- shaxsning irodaviy komponentini shakllantirish.

Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga differensial yondashuv asosida tayyorlash ijtimoiy faoliyatining talabalarga to'la javob beradigan muayyan faoliyat sohasidagi kasbiy faoliyatni amalga oshirish va yuqori sifatli mehnat vazifalarini bajara olish qobiliyatini namoyon qilishga imkon beradi.

Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga differensial yondashuv asosida tayyorlash talabalarining ijtimoiy faoliyatga nazariy va amaliy tayyorgarligini yuzaga chiqishini kafolatlaydi. Bunda talabaning mehnat qilish qobiliyatining quyidagi uch darajasini ifodalaydi:

- 1) ishlash qobiliyatini tavsiflovchi fazilatlar majmuri;
- 2) ko'nikmalar va mos ish topish, ish beruvchini bosqich nomzodlarga nisbatan afzalliklariga ishonitirish qobiliyati;
- 3) ish joyining ishchi kuchi talablari sifatiga muvofiqligi, xaridorning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish qobiliyati.

Differensial yondashuv natijasida talaba ijtimoiy faoliyat sohasidagi quyidagi ko'nikmaga ega bo'lishi ko'zda tutiladi:

1) kasbiy kompetentlik (bilim, ko'nikma, malakalar) kasbiy ijtimoiy vazifalarni hal qilish uchun yetarli darajada (ta'lim darajasi, ish tajribasiga ega, kasbiy bilim darajasi, ish sohasidagi ta'lim, tegishli mutaxassisliklar bo'yicha bilim olgan) tayyorlanganlik;

2) maxsus shaxsiy fazilatlar majmuri. Bular: faollik, samaradorlik, mehnatsevarlik, maqsadga muvofiqlik, dilkashlik, qat'iyatlilik, majburiyat, intizom, aloqa, tashabbuskorlik, ishonch, harakatchanlik, yetakchilik, diqqatlilik, mustaqillik.

Ijtimoiy mas'uliyat, axborot, refleksivlik umumiy kasbiy sifatlar guruhidir; ijtimoiy faollik, empatiya va tolerantlik ijtimoiy mutaxassis faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Ijtimoiy faoliyat ko'p qirrali va ko'p qiyamali hodisa bo'lib, differensiallash xususiyatlariga ega. Bundan tashqari, uni tashkil etuvchi sifatlar (ijtimoiy mas'uliyat, ijtimoiy faollik, dilkashlik, tolerantlik, empatiya, refleksivlik) ham differensial xususiyatlarning tashuvchilaridir. Shuning uchun ta'limning barcha

zamonaviy texnologiyalari ichida differensial o'qitish texnologiyasi eng umumiy bo'lishi ayon bo'ladi.

Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda talabalarining tayyorgarlik darajasi, qiziqishlari va o'rganish profilidagi xilma-xilligiga javob bera olish imkoniyatiga qarab taqdimlanishi lozim. Bu barcha talabalarni o'z ichiga olgan va muvaffaqiyatga erishishga imkon beradigan topshiriqlar tizimi bo'lishi shart. Chunki, differensial topshiriqlar har bir talabaning bo'lajak pedagog sifatida maksimal rivojlanishiga erishish uchun o'qitish usullarini faol ravishda tanlashning uyushgan, ammo moslashuvchan usuli sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'lim mazmuni talabalarining bilimiga qarab differensiallashni nazarda tutishi mumkin. Darsning eng asosiy maqsadi davlat ta'lim standartlarini qamrab olishi kerak. Chunki, ba'zi talabalar darsdagi tushunchalar bilan umuman tanish bo'lmastigi, ba'zi talabalar mavzuni qamran o'zlashtirib olishlari yoki mazmun haqida noto'g'ri fikr bildirishlari, ayrimlari esa dars boshlanishidan avval mazmunni o'zlashtirganliklarini ko'rsatishlari mumkin. Shu sababli mazkur jarayonda bilim taksonomiyasining turli darajalarini qamrab oluvchi talabalar guruhlari uchun mashg'ulotlarni loyihalash orqali mazmunni farqlashi mumkin. Masalan, tushunchalar bilan tanish bo'lmagan talabalardan bilim taksonomiyasining quyi bosqichlari: bilim, tushunish va qo'llash bo'yicha topshiriqlarni bajarish talab qilinishi mumkin. Qisman o'zlashtirgan talabalardan qo'llash, tahlil qilish va baholash yo'nalishlari bo'yicha topshiriqlarni bajarish, o'zlashtirish darajasi yuqori bo'lgan talabalardan esa baholash va sintez bo'yicha topshiriqlarni bajarish talab qilinishi mumkin.

O'qituvchilar tarkibni farqlashganda, ular talabalar nimani o'rganishni ko'llashlarini yoki o'quvchilar bilim, tushunish va ko'nikmalarga qanday kirishlarini moslashtirishi mumkin. Bunday hollarda o'qituvchilar talabalarining maqsadlarini o'zgartirmaydilar yoki talabalar uchun ishlash standartlarini pasaytirmaydilar. Ular har bir talaba uchun mos o'qish darajasida turli topshiriqlardan foydalanadilar.


Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda differentsial topshiriqlarni grafik organayzerlar orqali ham amalga oshirishi maqsadga muvofiq. Mazkur differentsial topshiriqlarni esa kichik guruhlarda olib borish muhim. Bu kabi diagnostik metodlar tasnif quyidagilar bilan ifodalanadi:

Chig'iriq metodi. Talabalarni hamkorlikda ishlashi uchun o'zlashtirish darajasi turi bo'lgan besh yoki olti kishilik kichik guruhlariga bo'linishadi. Kichik guruh a'zolarining har biri o'z raqamiga ega bo'ladi. Guruhlarning a'zolari o'zlariga berilgan kartochkalarga tayangan holda munosabatga kirishadilar. Har bir kichik guruh kartochkalardagi topshiriqlarni o'zicha bajaradi, ya'ni kartochkalardagi topshiriqlar bo'yicha javoblarni tayyorlaydilar.

Barcha kichik guruhlarining tayyorgarligi nihoyasiga yetgach, taqdimot boshlanadi. Shunda o'qituvchi qandaydir bir raqamni, misol uchun, "4" raqamini aytadi. Har bir guruhning 4-raqamli ishtirokchisi o'z guruhining javoblarini taqdim qiladi. Shunday qilinganda, kichik guruhlardagi faol talabaning har safar taqdimotchi bo'lib qolish xavfi bartaraf qilinadi. Bir kichik guruhning javobini eshitishga ko'p vaqt ketib qolmasligi uchun har biri guruhdan ikkita dan savolga javob tinglanadi. Savolga qaysi raqamdagi talaba javob qilsa, uning javobiga boshqa guruhlardagi ayni shu raqamli talabalar munosabat bildirishlari, to'ldirishlari, to'g'rilashlari mumkin. Navbatdagi savollarga beriladigan javob ham shu yo'sinda tinglanadi va muhokama etiladi. Bunday qilinsa, har qanday savolga hamisha javob bera oladiganlarga emas, guruhdagi barcha talabalarining faollashishiga erishiladi. (1-chizma).

Kichik guruhlarining taqdimoti tugagandan so'ng o'qituvchi javoblarni umumlashtiradi, kichik guruhlarini baholaydi, e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan jihatlarga qo'shimcha ravishda to'xtaladi.

"Chig'iriq" metodi qo'llanganda amalga oshiriladigan o'qitish jarayoni chizmada quyidagicha aks ettirilishi mumkin:



"KWHL" metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod talabalarga o'zlashtirilishi lozim bo'lgan mavzuni qabul qilish va mavzu yuzasidan bilimlarni tizimlashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod talabalarining qiziqishlari, imkoniyatlari bo'yicha qo'yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

*Know – nimalarni bilaman?
Want – nimalarni bilishim kerak?
How – qanday bilib olsam bo'ladi?
Learn - nimani o'rganib oldim?*

2.3-jadval

"KWHL" metodidan foydalanishga doir namuna

"KWHL" metodi	
1. Nimalarni bilaman:	2. Nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak:
3. Qanday qilib bilib va topib olaman:	4. Nimalarni bilib oldim:

"WHL" metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod talabalarda yangi mavzu tizimlarni qabul qilish va bilimlarni tizimlashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod talabalarda mavzu bo'yicha quyidagi jadvalda berilgan oltita savolga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi. Mazkur savollarga talabalar o'z imkoniyati va

bilish darajalari bo'yicha javob beradilar.

“WIH” metodidan foydalanishga doir namuna
2.4-jadval

What?	Nima?	
Where?	(ta'rif, mazmuni, nima uchun ishlatiladi)	
What kind?	Qaerda (joylashgan, qaerda olish mumkin)?	
When?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	
Why?	Qachon? (ishlatiladi)	
How?	Nima uchun? (ishlatiladi)	
	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to'ldiriladi, tahrirlash mumkin)	

“SCAMPER” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod iqtidori talabalar uchun samarali hisoblanadi. Metod muammolarni bartaraf etish bo'yicha yangi innovatsion g'oyalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan. SCAMPER “tez yugurish” degan ma'noni anglatadi. SCAMPER tushunchasi kengaytmasi (7 ta) ning har biridan 7 qatordan va 3 ustundan iborat jadval yaratish talab etiladi.

2.5-jadval
“Ijtimoiy pedagogik tizimni takomillashtirish omillarini rivojlantirish” bo'yicha “SCAMPER” metodidan foydalanish

SCAMPER savollari	SCAMPER Savollari (yangi g'oyani ishlab chiqish)	Ijtimoiy pedagogik tizimni takomillashtirish omillarini rivojlantirish
S	Nima bilan almashtirish mumkin?	
C	Nima bilan birlashtirish mumkin?	

A	Nimaga moslashtirish kerak?	
M	Qanday yaxshilash mumkin?	
P	Nimalarni o'zgartirish mumkin? (shakl, tur, belgi, rang va boshqalar)	
E	Yana qanday holda qo'llash mumkin?	
R	Nimani qayta tiklash mumkin?	

Mazkur modellarning pozitsiyasi shundan iboratki, o'rganish individual darajada emas, balki talabalar tushunchalarni o'rganish bilan shug'ullanayotgan shaxslar ichida sodir bo'ladi. Bunda tabaqalashtirilgan ta'limning uyg'unligi talabalarga bir vaqtning o'zida “standartlar hukmron bo'lgan davrda talabalarining to'liq spektri uchun akademik muvaffaqiyatni ta'minlashga” imkon berishni nazarda tutadi.

Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda talabani muvaffaqiyatli o'rganishini ta'minlash uchun pedagog dars mashg'ulotini barcha talabalarining individual xususiyatlarini hisobga oladigan tarzda tashkil qilish kerak. Buning uchun eng mos tanlov - differensial yondashuv texnologiyasidir. Differensial yondashuv talabalarining kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga yordam beradi, shuningdek, oliy ta'limning mohiyati va maqsadlarini ifodalaydi. Differensial yondashuv muayyan usullar orqali amalga oshiriladi. Shuningcha, differensial o'qitish usuli - bu o'quv jarayonini tashkil etilishning samarali usuli bo'lib, unda mutlaqo har bir talabani yoki talabalarining alohida guruhlarning imkoniyatlari va ehtiyojlari maksimal darajada hisobga olinadi. Shu bilan birga, darsda o'qitishni differentsiatsiyalash mazmunini o'zgartirish, qiyinchilikni tartibga solish, shuningdek, individual topshiriqlarni bajarish muddati, talabalarining imkoniyatlari va tayyorgarligiga muvofiq uslubiy yordam berish vositalarini tartibga solish orqali amalga oshiriladi. Shunga ko'ra, mazkur o'qitish usulining maqsadi har bir talaba shaxsining qobiliyatini maksimal darajada rivojlantirish, ularning kognitiv ehtiyojlarini qondirish uchun

sharoitlarni ta'minlashdan iborat. Bu esa har bir talabani o'qitish ummimos keladigan darajada amalga oshirilishini nazarda tutadi.

Differensiallashgan o'qitish usulining asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, u ta'limning eng muhim elementi - psixologik qulay sharoit yaratishni ham o'z ichiga oladi. Ushbu element o'zlashtirishi qiyin talabaga muvaffaqiyat istiqbolini ko'rishga imkon beradi. Yetarlicha faol talaba esa ijodiy va intellektual o'sish imkoniyatiga ega bo'ladi. Differensial o'qitish usullari orqali talaba o'quv jarayonining sub'ektiv aylanadi. Bunga vazifalarni hajmi va murakkabligi bo'yicha differensiallash hamda talabalarga psixologik va uslubiy yordam ko'rsatish orqali erishiladi.

O'quv jarayonini differensiallashtirish uchun quyidagilar zarur:

Guruhlarni shakllantirish. Guruhlarga bo'linish har bir talabaning individual tayyorgarligi asosida amalga oshiriladi. Odatda uchta talabalar guruhli mavjud:

Birinchi guruhga - asosan tez-tez dars qoldirganligi sababli bilimida bo'shliqqa ega bo'lgan talabalar kiradi. Ko'pincha bunday talaba eng oddiy topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarishlari mumkin va mashqni bajarish usulini maqsadli qidirishni bilishmaydi.

Ikkinchi guruh - talabalar standart masalalarni yechishda qo'llashlari mumkin bo'lgan yetarli bilimga ega. Biroq, ular yangi turdagi muammolarni hal qilishda qiyinchiliklarga duch kelishadi yoki murakkabroq muammolarni mustaqil ravishda hal qila olmaydilar.

Uchinchi guruhni - murakkab topshiriqni oddiy qadamlar ketma-ketligiga qisqartirish bilan birga ancha murakkab masalalarni mustaqil hal qila oladigan, qo'shimcha ravishda ular yangi materialni mustaqil ravishda erkin o'zlashtira oladigan va murakkabligi oshgan vazifalarni hal qilishning bir qancha usullarini topadigan talabalardan iborat.

Guruhlarga bo'linish o'qituvchiga darsga tayyorgarlik ko'rishda yordam beradi, chunki o'qituvchi o'z darsining borishini oldindan rejalashtira oladi, har bir guruh talabalari uchun mos vazifalarni tanlaydi, ularning tayyorgarlik darajasi va bilimlariga e'tibor beradi.

Bu borada bir qator shartlarni bajarish muhimlik kasb etadi.

1. Tanlangan mezon bo'yicha talabalarni differensiallash imkonini beradigan tayyor topshiriqlar, testlardan foydalanish.

2. Agar alohida talabalar bir qator differensial vazifalarni bajara olmasalar yoki aksincha, bu vazifalar ular uchun juda oddiy bo'lsa, unda talabani uning bilim, ko'nikma va qobiliyatlariga mos keladigan guruhga o'tkazish kerak. Agar talaba past murakkablikdagi bir qator vazifalarni muvaffaqiyatli bajarsa, uning muvaffaqiyatlari va yutuqlarini ta'kidlab, uni kuchliroq guruhga o'tkazish.

3. Talabalarga differensial yondashuv darsning barcha bosqichlarida amalga oshirilishi mumkin:

Birinchi bosqichda talabalar bilan suhbat o'tkaziladi:

Yozma so'rov - turli darajadagi qiyinchilikdagi kartalardan, shuningdek, uchta darajadagi testlardan foydalanish mumkin (har bir guruh uchun o'z darajasi). Shuningdek, siz so'rovning noan'anaviy shakllaridan, masalan, krossvordlar, rebuslar va boshqalardan foydalanishingiz mumkin.

Og'zaki so'rov - aksariyat hollarda birinchi va ikkinchi guruh talabalari bilan suhbat o'tkaziladi va kuchliroq, uchinchi guruh vakillari javoblarni to'g'riyladi yoki to'ldiradi.

Yangi materialni tushuntirish - muammoli savollar qo'yiladi, ularga ko'pincha kuchli talabalar javob beradilar, kuchsiz talabalar esa o'rganilgan material bo'yicha savollarga javob berishlari yoki mustaqil ravishda yangi materialning ba'zi savollarini tayyorlashlari mumkin.

Yangi materialni mustahkamlash - bu bosqichda birinchi guruh talabalari darhol amaliy topshiriqni bajarishga kirishishlari mumkin, ikkinchi guruh talabalari darslik bilan ishlashni boshlaydilar, kuchsiz talabalar bilan esa asosiy fikrlarni takrorlash va ularni kasbiy tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirish mumkin bo'ladi.

Uyga vazifa - kuchli talabalar qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashga, ijodiy xarakterdagi turli vazifalarni bajarishga, tadqiqot o'tkazishga, shuningdek, taqdimotlar qilishga da'vat etiladi. Kuchsiz va o'rta talabalar himn taqdimot qilishadi, lekin ayni paytda tayyorgarlik uchun qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish taklif etiladi.

Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda differensial o'qitish usulini tahlil qilish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, o'qitishning puxta o'ylangan differentsiatsiyasi talabalarining tayyorgarlik darajasini tenglashtirish, ta'lim sifatini oshirish va shu orqali talaba shaxsini ijtimoiy pedagogik faoliyatga qiziqishini rivojlantirish imkonini beradi.

Ma'lumki, talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashga "bir o'lcham hammaga mos keladi" tamoyili emas, differensial yondashuv orqali amalga oshirish talabalarining individual markazida bo'lib, adolatlil, moslashuvchan, qiyin va mazmunli tarzda talabalarni o'quv dasturini o'zlashtirishga jalb qiladigan tegishli ta'lim va baholash vositalariga e'tibor qaratiladi.

Talabalar madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy holati, tili, jinsi, motivatsiyasi, qobiliyati, o'rganish uslublari, shaxsiy qiziqishlari va boshqalar bo'yicha tabaqalashtiriladi va talabalar o'quv dasturlariga muvofiq rejalashtirayotganda bu turlardan xabardor bo'lishlari talab etiladi. Turli xil ta'lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda, pedagoglar talabalarni samarali ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashlari uchun differensial topshiriqlar tizimini ishlab chiqishi mumkin.

Ta'lim jarayonidagi materialni qanday o'zlashtirish o'quvchilarning o'rganish uslublariga qarab, bilish darajasi uchun qanday ishlash standartlari talab qilinishini hisobga olgan holda farqlanishi mumkin. Differentsiatsiyaning ushbu bosqichi talabalarga bilim olishning qaysi usuli eng oson ekanligi yoki ularga nima qiyin bo'lishi mumkinligi asosida o'rganish imkonini beradi: ba'zi talabalar mavzu bo'yicha o'qishni afzal ko'rishlari mumkin (yoki o'qishda amaliyot talab qilishi mumkin), boshqalari esa tinglashni afzal ko'rishlari mumkin. (yoki tinglashda mashq qilishni talab qilish) yoki kontent bilan bog'liq narsalarni boshqarish orqali bilimga ega bo'lish. Ma'lumot o'qituvchi tomonidan bir necha usulda taqdim etilishi mumkin va har qanday mavjud usullar yoki materiallarga asoslangan bo'lishi lozim.

Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga differensial yondashuv asosida tayyorlashda baholash natijalarining umumiyligini ham e'tiborga olish muhim. Bu talabalarining imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradigan

jarayon- amaliyotlarni guruhlashga olib keladi. "Qanday qilib" o'qituvchi ko'rsatmani topshirishni rejalashtiradi, bu ehtiyojlar, o'rganish uslublari, qiziqishlari va oldingi bilim darajasini ko'rsatadigan baholash natijalariga asoslanadi. Guruhlashdagi amaliyoti moslashuvchan bo'lishi kerak, chunki guruhlar hal qilinishi kerak bo'lgan ehtiyojga qarab o'zgaradi. Ta'limning differentsiatsiyasi talabalarining tayyorgarligi, qiziqishlari yoki ehtiyojlariga asoslanganni yoki yo'qligidan qat'i nazar, guruhlash va qayta guruhlashning dinamik oqimi tabaqalashtirilgan ta'limning asoslaridan biridir. Differensial yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tayyorlashda talabaning faktlar, tushunchalar va ko'nikmalarni qanday namoyishi va o'zlashtirayotganini aniqlashni anglatadi. Darsni o'tkazgandan so'ng, o'qituvchi talabalarni tayyorgarligiga qarab kichik "qobiliyat" guruhlariga ajratishi mumkin. Shundan so'ng o'qituvchi har bir guruhga dars maqsadlari bilan, ularning tegishli tayyorgarlik-ko'nikma darajasidan kelib chiqqan holda bir qator savollar beradi. Talabalarni guruhlashning yana bir usuli ularning o'rganish uslublariga asoslanishi mumkin. Buning ortidagi asosiy g'oya shundan iboratki, talabalar turli darajada bo'lib, turli yo'llar bilan o'rganadilar, shuning uchun ham o'qituvchi ularning hammasini bir xilda o'rgata olmaydi.

Differentsiatsiyaning yana bir modeli, o'quv dasturi asosida talabaga topshiriqlarni tanlash imkoniyatini beradi, lekin ular topshiriqni bajarishni o'rganishni ko'rsatib talab qilinadi. Bu oldindan baholashga bo'lgan ehtiyojni yo'q qiladi va mavzuni o'zlashtirish yuklamasi iqtidorli talabalarga beriladi.

Biz bo'lajak mutaxassisning uzluksiz kasbiy tayyorgarligi jarayonida unga ma'lum vaziyatlarda harakat qilishga tayyor bilim va ko'nikmalar berish bilan birga, fikrlash, ong va xulq-atvorning harakatchanligi bilan belgilanadigan mustaqil va o'zgaruvchan faoliyatga o'rgatish juda muhim ekanligini ta'kidlaymiz.

Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga differensial yondashuv asosida tayyorlashning bir qator usullari bo'lib ular o'ziga xoslikka ega.

Differentsiatsiyaning odatiy usullaridan biri bu moslashuvchan guruhlash hisoblanadi. Moslashuvchan guruhlash talabalarga do'stlari bilan ular uchun eng mos keladigan guruh tuzilmalarida ishlash imkonini

beradi. Bitta topshiriq uchun talaba aralash qobiliyati guruhda eng yaxshi natija berishi mumkin, shunda har bir talaba o'zining shaxsiy kuchli tomonlarini qo'shishi mumkin. Boshqa topshiriqda o'sha talaba bir hali guruh tuzilishida eng yaxshi ishlashi mumkin. Talabalarining ehtiyojlari bir necha omillarga qarab doimiy ravishda o'zgarib turadi va moslashuvchan guruhlash buni hisobga oladi.

Guruhlash strategiyalarining ko'p turlari mavjud, jumladan:

Qiziqishlar asosida guruhlash, bu talabalarni o'rganmoqchi bo'lgan mavzular bo'yicha guruhlashni o'z ichiga oladi.

Ko'nikma va qobiliyat darajasi o'xshash talabalarni birlashtirishni o'z ichiga olgan qobiliyatlarni guruhlash.

Guruhdagi har bir talabaga uning qiziqishlari va ko'nikmalariga ko'ra, ijtimoiy pedagog yoki taqdimotchi kabi muayyan rolni berishni o'z ichiga olgan.

Hamkorlikda guruhlash - turli bilim darajasidagi talabalarni bir-biridan o'rganish uchun birlashtirishni o'z ichiga olgan aralash qobiliyatli guruhlash.

Talabalar o'rganishni o'zlar uchun qiziqarli va shaxsiy kuchli tomonlariga mos keladigan tarzda namoyish etishga undashlari kerak. Agar siz barcha talabalarga oilalar bilan faoliyat olib borishning sabablari haqida muammoli topshiriq bersangiz, muammoni uzoq muddatda hal qilishni qattiq yomon ko'radigan talabalar imkon qadar harakat qilmasliklari mumkin. Natijada, o'sha talabalar ko'nikmaga ega bo'lmagan deb taxmin qilinadi. Buning o'rniga, talabalarga tanlash uchun baholash variantlari menyusini berish maqsadga muvofiq. Badiiy loyihalarni afzal ko'rgan talabalar oilaviy nizolarning sabablarini ko'rsatadigan plakat yoki vizual diagramma yaratishlari mumkin. Musiqiy iqtidori talabalar sabablar haqida qo'shiq yozishlari va ijro etishlari mumkin edi, harakatga asoslangan faoliyatni afzal ko'rganlar esa oiladagi asosiy shaxslar o'rtasida dialog yoki qisqa rolik ijro etishlari mumkin.

Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga differensial yondashuv asosida tayyorlashda o'quv jarayonining bosqichlari quyidalarni o'z ichiga oladi:

- o'rganiladigan muammoni qiyinchilik darajasi bo'yicha bosqich

murakkablik bo'yicha Blum taksonomiyasi.

- murakkablik darajasi bo'yicha bosqich - talabaning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan turli xil vazifalar taqdim etiladi, bu kirish darajasidan mavhumroq, aniqroq, mahsuldor topshiriqlarga qadar.

- resurslar bo'yicha bosqichlarni ajratish. Bunda mavzu yuzasidan turli xil materiallar tanlanganda bilim darajalari va mazmunning murakkabligi, topshiriqlarni natijalar bo'yicha resurslar darajasiga ko'ra bosqichma-bosqich ajratiladi. Bosqichi resurslardan foydalanadigan talabalar bir xil faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin yoki ular boshqa, o'zaro bog'liq faoliyat ustida ishlashlari mumkin.

Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida talabalar bir xil muammo ustida ishtirokchilar, lekin yakuniy mahsulotlar jarayonga qarab farq qiladi.

- yakuniy mahsulotlar bir xil, lekin talabalarining bu natijalarga erishish usullari mahsulotga qarab farq qilishi mumkin.

Differensial o'qitishda bir nechta intellekt yoki o'rganish usullari bo'yicha guruhlash va keyin o'sha afzalliklarga mos keladigan topshiriqlar berish esa o'qituvchidan mas'uliyat talab qiladi.

Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda uchta darajada topshiriqlar tizimini ishlab chiqish ko'zda tutiladi.

1. Birinchi daraja - bunday o'quv topshiriqlari talabalar o'quv-biluv faoliyati turiga ko'ra farqlanadi va ular reproduktiv yoki produktiv (mahsuldor) o'quv topshiriqlari tarzida tuzilishi mumkin. Reproductiv o'quv topshiriqlari ijodiy yondashuvni talab etmaydi va asosan namuna asosida bajariladigan topshiriqlar kiradi. Produktiv (mahsuldor) o'quv topshiriqlarini bajarish jarayonida ijodiy yondashuv talab etiladi va an'anaviy topshiriqlardan bajarilishi lozim bo'lgan ishlarning xilma-xilligi bilan farq qiladi.

Topshiriq: Xususan, ijtimoiy pedagogik faoliyat mazmunini yoritib beradigan diagramma yoki modelni taklif eting (vizual-fazoviy).

Ikkinchi daraja-differensiallashgan ta'limni tashkil etishning bu turida murakkablashtirilgan o'quv topshiriqlari o'zlashtirishi birmuncha yuqori

bo'lgan talabalar guruhida uchun foydalanilib ular quyidagicha mazmunli bo'lishi mumkin:

Topshiriq: Ijtimoiy pedagogik faoliyat sub'ektlariga (tana-kinestetik) nisbatan ta'sir etish konsepsiyasini taklif eting va faoliyatda qo'llang (harakatlantiring).

Uchinchi daraja – differensial ta'limning bu turida asosiy o'quv topshiriqlaridan tashqari, unga o'xshash bo'lgan qo'shimcha material ham beriladi. Bunday o'quv topshiriqlarini bajarish turi tezlikda amalga oshirishi bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishga yordam beradi. Bu iqtidorli va faol talabalar uchun beriladigan qo'shimcha topshiriqlar bo'lib, ular vaqtining behuda sarflanmasligiga yordam beradi.

Topshiriq: Fitrating oila tarbiyasida otaning o'rnini batafsil ko'rsatuvchi grafik yil jadvalini tuzing (mantiqiy).

Umuman, talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda talabalarining imkoniyatini hisobga olish maqsadga erishishni kafolatlaydi. Mazkur muammoning metodik imkoniyatlarini keyingi paragrafimizda batafsil keltirib o'tamiz.

2.3-§. Ijtimoiy pedagogik ta'limni differensial yondashuv asosida tashkil etish yo'llari

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni differensial yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tayyorlashning metodik modelini amalga oshirish uchun bunday tayyorgarlikning didaktik ta'minotini ishlab chiqish zarur. Shu bilan birga, har qanday konsepsiyani yaratish jarayonini uni amalga oshirish jarayonidan ajratib bo'lmaydi, bu davrda dastlabki qoidalar tuzatiladi va aniqlashtiriladi.

Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash o'qituvchilar jamoasi tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatning ajralmas tizimi sifatida o'ziga xos tendensiyalari, tamoyillari, maqsadlari, vazifalari, mazmuni, ish shakllari va usullari, shuningdek, samaradorligini oshirish vositalari mavjud. Shu bilan birga, o'rganilayotgan muammo bo'yicha ishlashning maqsadlari, vazifalari, mazmuni, shakllari va usullari shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlari mos kelishi lozim. Ro'yxatdagi tarkibiy qismlarning:

muvoqlashtirilishi, ierarxiyasi va ajralmas tuzilishda ishlashi har qanday pedagogik tizimda boshqaruv elementlari mavjudligini taxmin qiladi. Bu esa differensial yondashuvni amalga oshirish uchun talabani ijtimoiy faoliyatga tayyorlash tizimiga to'liq taalluqlidir. Bu esa tizimning muayyan sharoitlarda barqaror ishlashiga mos keladigan nazariy asoslarni ishlab chiqishni ham o'z ichiga oladi.

Differensial yondashuv asosida talabani ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimi ilmiy xarakterga ega, uzluksizlik, sistemlilik, nazariy va amaliy mashg'ulotlar birligi tamoyillariga asoslanishi lozim.

Talabani ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorgarligining ilmiy xarakteri - bu zamonaviy ilmiy yutuqlar, ilg'or pedagogik tajribalar, o'qitish va tarbiyalashning yangi konsepsiyalari va albatta, ilmiy pedagogik tadqiqotlar usullarini o'rganish psixologik-pedagogik fanlar tarkibidagi aksidir.

Tadqiqotimiz davomida shunga amin bo'ldikki, talabalarining ijtimoiy pedagogik tayyorgarligi nazariy jihatdan o'ziga xoslik kasb etsa-da, ammo amaliy faoliyatda muammolar mavjudligi sezilib qolmoqda. Bu esa ta'lim nazariyasi va amaliyotining birligi tamoyiliga ustuvor ahamiyat berilmasligi sababidir.

O'rganilayotgan muammoning asosiy maqsadi sifatida biz talabalarni differensial yondashuv asosida ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarini shakllantirishni istiqbolli ish deb bilamiz. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan tizimning ishlashi maqsadga erishish, mumkin bo'lgan alternativalar orasida maqbul yo'llarni tanlash jarayoniga bo'yundirilgan. Ta'lim tizimi natijasi deganda biz differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy faoliyatga tayyorlash jarayonida ifodalangan hamda talabani kasbiy rivojlanishidagi ma'lum bir qadarni tushunamiz.

Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashni ta'minlaydigan tizim tarkibini ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki, bugungi kunda mehnat bozori ob'ektiv ravishda ijtimoiy va kasbiy jihatdan vakolatli, dialektik fikrlaydigan, chuqur bilimga ega, madaniyatni biladigan va raqobatbardosh shaxsni talab qilmogda.

Shu munosabat bilan biz differensial yondashuv asosida talabalarni

ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash mazmuni quyidagilarni nazarda tutishi kerak deb hisoblaymiz:

- ushbu faoliyat turini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarning universal tizimini shakllantirish;

- oliy ta'lim asosiy rejasining majburiy fanlari bilan bir qatorda tanlov kurslari tashkil etishi;

- o'qituvchi va talabani birgalikdagi samarali faoliyatida amalga oshiriladigan tadqiqot va individual o'quv dasturlarining ustuvorligiga e'tibor qaratish, uning haqiqiy ta'lim imkoniyatlari va qobiliyatlarining o'ziga xosligiga yo'naltirilgan bo'lajak pedagog (mutaxassis) bilan ishlashning individual shaklini qo'llash, inson qobiliyatlarini rivojlantirish va undan foydalanish, bilim va ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha xorijiy mamlakatlarning tajribalarini qo'llash.

Bundan tashqari, har bir topshiriq guruh doirasida mantiqiy-izlanish, kognitiv-izlanish, tadqiqiy-ijodiy vazifalar belgilab beriladi. Ushbu tasnif talabani ijtimoiy faoliyat jarayonida turli muammolarni ijodiy hal qilishga tayyorlashga qaratilgan.

Ushbu dissertatsiya tadqiqotida aynan shu metodika differensial yondashuv asosida ta'limni amalga oshirish uchun talabani ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash bilan bog'liq kasbiy-pedagogik vazifalar turlarini tasniflashda qo'llaniladi. Har bir topshiriq quyidagi turlarni o'z ichiga olgan: o'quv-mantiqiy izlanish, tadqiqot, ijodiy baholash va tuzatish. Bu vazifalarning universal turlari har bir topshiriq doirasida har bir mashg'ulot turining vazifalari bilan belgilanadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

Taklif etilgan vazifalarning har bir turiga tavsif beramiz.

O'quv-mantiqiy vazifalar talabalarga differensial yondashuv asosida o'qitish bilan bog'liq uslubiy tushunchalarning muhim xususiyatlarini tushunishga imkon beradi. O'quv-mantiqiy vazifalar deganda, biz talaba kasbiy va pedagogik vazifalarni hal qilishning an'anaviy sxemalari mantiqini tushunadigan, ularning muqobil yechimlarini tahlil qiladigan va baholaydigan, o'z harakatlarining ma'lum bir to'planini tanlaydigan vazifalarni tushunamiz. Ushbu turdagi vazifalar faoliyatga taqlid qilish bilan tavsiflanadi. Bunda pedagogik muammoni (vazifani) tuzatmasdan hal

qilish uchun tavsiya etilgan sxemani tanlash imkoniyati bor. Chunki mantiqiy vazifalar o'quv materialini o'zlashtirishga ijodiy ta'sir qiladi. Mantiqiy tayyorgarlik darajasi past talabani faoliyat jarayonida muammolarga ko'plab duch kelishi, ularni hal qilolmasligi va oqibat kasbiy inqirozga yuz tutishi belgilanadi.

O'quv-mantiqiy vazifalarga yangi bilimlarni topish, ularni ta'lim doirasida izlash usullari kiradi. Ushbu turdagi vazifalar muammo bo'yicha haqiqiy materiallarni to'plashda alohida rol o'ynaydi. Agar o'quv va mantiqiy vazifalar reproduktiv faoliyat bilan bog'liq bo'lsa, mantiqiy vazifalar ko'proq izohlovchi (muammo bo'yicha materiallarni yig'ish va tahlil qilish, uning nazariy tushunchasi, shuningdek, ushbu faoliyatni amalga oshirish jarayoni) hisoblanadi. Demak, mantiqiy-izlash muammolari deganda, biz ularni yechish natijasida talaba o'zi uchun yangi bilimlarni yoki unga ma'lum bo'lgan bilim va yechim usullari asosida hal qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tadqiqotchilik vazifalari. Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida mazkur vazifa kognitiv va muammoli vazifaning ikkala xususiyatini ham o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi tushuncha hisoblanadi. Ushbu nuqtai nazardan hamjihatlik sifatida biz tadqiqot vazifalarini tushunamizki, bu jarayonda talaba o'ziga ma'lum bo'lgan va faoliyatni amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqqan holda foydalanishi hamda nazariy va amaliy shartlar asosida mustaqil xulosalarga kelish imkoniga ega bo'ladi.

Ijodiy vazifalar. Differensial yondashuv asosidagi ta'limni amalga oshirishda talabani kasbiy va ijodiy yo'nalishini shakllantirishni ta'minlaydigan muammoli vazifa mavjudligi ko'rinadi. Muammo ma'lum bir muammoli vaziyatga asoslanganligi sababli ba'zi bir dialektik qarama-qarshiliklarning yechimini topishda, vaqt va ma'lumotlarning yetishmasligi holatida o'rganiladigan muammo bo'yicha muqobil javoblarni taklif etish bilan bog'liq vaziyatlarni o'z ichiga oladi. Ijodiy muammolarni hal qilishning o'ziga xos xususiyatlariga biz individual fikrlash uslubini, ijodiy muammoning tarkibini qayta ishlashni, mustaqil izlanish shakllarini kiritamiz. Demak, bizningcha, ijodiy vazifalar

talabaning ijodiy faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantiradi.

Differensial yondashuv asosida **baholovchi-tuzatish turidagi vazifalarni** taklif etish talabani ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida refleksiv pozitsiyani shakllantirish zaruriyati bilan bog'liq bo'lib, bu vazifani shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. O'rganilayotgan faoliyatning introspeksiya o'zini o'zi qadrlash bilan bog'liq ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Ushbu vazifalar yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlash va tuzatish, faoliyatni amalga oshirishning barcha bosqichlarida samarali bo'lgan uslublar bilan o'zaro bog'liqlik mexanizmini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kasbiy va pedagogik vazifalarni ishlab chiqishda biz quyidagi talablarni inobatga oldik:

differensial yondashuv asosida talabalarning ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorgarligini ommalashtirish, bu ishini samarali talqin qilish, konstruktiv-ijodiy darajalarga qaratilgan vazifalarni birlashtirish kerak;

vazifalarning murakkabligi asta-sekinlik bilan o'sib borishi kerak; tizim nazorat qilish va o'zini o'zi nazorat qilishning ob'ektiv usullarini amalga oshirish uchun imkoniyatlar yaratishi kerak.

Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash mezonini aniqlab olish ham maqsadga muvofiq.

Aniqlangan mezon belgilariga ko'ra, har bir komponentning qisqacha tavsifini past darajadan yuqori ko'rsatkichlar bo'yicha o'zgarish dinamikasini namoyish etish uchun jadval ko'rinishiga keltirdik. (2.6-jadval).

2.6-jadval
Ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlik darajasi mezon

XUSUSIYAT-LAR	YUQORI	O'RTA	PAST
Ijtimoiy mas'uliyat –shaxsning jamiyat tomonidan qo'yiladigan axloqiy tamoyillar va huquqiy me'yorlarga oqib amal qilishi	Topshiriqni bajarish bilan ishga tayyorlik, ishti bajarishga mas'ullik	Ichki qarshilik bilan topshiriqni bajarish, guruhda ishlashga tayyorlik, individual topshiriqlardan qochish	Topshiriqni bajarishni istamaslik
Ijtimoiy faollik – qo'yilgan maqsadga erishishda faollik va qat'iylik	Maqsad qo'ya olish ko'nikmalari, ularni bajarishga ishonch va doimiy faol tayyorlik	Faollikning hamma vaqt namoyon bo'lmasiligi, qiyinchiliklarga bardoshsizlik	Faollik sezilarli darajada emas, aniq maqsadga erishishda sushtashlik
Kommunikativlik – ijtimoiy munosabatlarda oson mulotoqga kirishish	Shaxsning mulotoqga yo'nalganligi, kommu-nikativ ko'nikmaga egalik	Joziiali mulotoqga kirishishi, odamlarga samimiy munosabat	Mulotoq qilish istagining kuchsizligi, mulotoqga kirishishda muammoliilik
Ijtimoiy hamkorlik – shaxsningmunosa qila olish qobiliyati	Shaxsning xilma-xil fikr va qarashlarga ega bo'lishi, turli madaniyatga mansub shaxs va guruhlarining bir maqsad yo'l'idagi hamjihatligini tushuna oladi	Turli madaniyatga mansub shaxs va guruhlarining o'ziga xosligini tushunishda xatolarga yo'l qo'yish	Hamisha iklklanish
O'z-o'zini anglash – shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olish orqali o'ziga ob'ektiv bahho berish, o'zidan qoniqlash	Shaxs sifatida o'z qadr-qimmatini anglash	O'zini tushunish	Shaxsning o'zi to'g'risidagi shaxsiy fikrining atrofdagilar tomonidan unga berilayotgan bahoga mos kelmasiligi.


Ijodkorlik – ijtimoiy muammoli vaziyatlarni samarali hal etish qobiliyati	Yangiliklarni ko'ra olish va o'z faoliyatini o'zgartirish	Faoliyat shart-sharoitlarini, o'zgarishlarni sekin qabul qilishi	Neodaliy vaziyatga tayyor emaslik
Mustaqillik – muammoni aniqlash va shakllantirish, maqsad qo'yish va unga erishish	Samarali ko'rsatma berish malakasi, atrofda bilimlarni ishonitra olish	Boshqalarning yordamiga ehtiyoj sezish	Yordamchilar bilan birga ishlash
Layohatlik – nazariy va amaliy tayyorlik	Bilimlarni amaliyotda qo'llay olish	Bilimlarni hamma vaqt ham amaliyotda qo'llay olinmaslik	Tadbirkorlikka doir bilimlari yetarli emasligi

Har bir mezonni amalga oshirish darajasini aniqlashda ko'rsatkichlarning namoyon bo'lish dinamikasiga asoslanildi.

Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash shartlari va xususiyatlari to'g'risidagi bilimlarni egallash, ya'ni bunday bilimlar zamonaviy jamiyat uchun qanchalik ahamiyati va zarur ekanligini anglash muhimidir. Bugungi kunda talabada o'z kasbi uchun zarur hisoblangan kasbiy tafakkurning rivojlanishini ta'minlash, barqaror kasbiy qiziqishlarni shakllantirish lozim.

Shu tariqa talabani ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash mazkur masalalarni hal qilish orqali amalga oshadi:

1. Motivatsiya – talabalarning ijtimoiy pedagogik faoliyatning maqsadi, mazmunini anglashlari.
 2. Qiziqish – talabani hayotning ijtimoiy sohasidagi zarur faoliyat tajribasini aniqlashi.
 3. Egallash – hayotning ijtimoiy sohasidagi pedagogik faoliyat masalalari bo'yicha nazariy va amaliy o'quv-axborot bloki.
 4. O'z-o'zini nazorat qilish – olingan natijalar tahlili va ularni kutilganlari bilan qiyoslash.
- Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashni quyidagi pedagogik sharoitlar bilan amalga oshirishni nazarda tutganimiz.



2.4-rasm. Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash tuzilmasi

Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda nazariy, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish, shuningdek, mustaqil ta'lim topshirig'larini differensial taqdim etish talaba shaxsini amaliy kasbiy faoliyatga tayyorlashni samarali rivojiga xizmat qiladi.

Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda nazariy mashg'ulotlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- nazariya va amaliyot kabi falsafiy kategoriyalarni tushunish, shuningdek, ularning o'zaro ta'sirining murakkab dialektik mohiyatini anglash;
- ilmiy bilim maqomiga ega bo'lgan tushunchalar (uslub, model va boshqalar) haqida ilmiy bilimlarni rivojlantirish; ko'pgina fanlarga ta'sir qiluvchi nazariyalar: umumiy tizim nazariyasi, madaniyat nazariyasi va boshqalar;
- pedagogika metodologiyasini bilish (pedagogik bilimlarning tuzilishi, funksiyalari, fundamental pedagogik qoidalar, metodologik ma'noga ega nazariyalar, pedagogik tadqiqot usullari haqida o'qitish);
- tabaqalashtirilgan va individual ta'limning mohiyati, asosiy tamoyillari hamda ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik to'g'risida bilim;
- differentsiatsiya sharoitida o'qitish usullarini o'zlashtirish, ularning xususiyatlarini bilish;
- tabaqalashtirilgan ta'limni amalga oshirishda talabani bilimni

tekshirish va baholash usullarini o'zlashtirish.

2.7-jadval

Talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashga doir nazariy mashg'ulotlar vazifalari

Vazifalar turlari	Vazifalar xususiyatlari
O'quv- mantiqiy	Ijtimoiy pedagogik faoliyat bo'yicha: 1. Nazariy tushunchalarni o'zlashtirish vazifalari 2. Nazariya va amaliyot o'zaro ta'sirining dialektik tabiatini rivojlantirish uchun vazifalar 3. Ijtimoiy tizimlararo nazariyalarning mohiyatini tushunish uchun vazifalar (tizim nazariyasi va boshqalar) 4. Fundamental pedagogik nazariyalar va gipotezalarni ishlab chiqish bo'yicha vazifalar
Izlanish	1. Ijtimoiy pedagogik faoliyat bo'yicha nazariy tadqiqot usullarini o'zlashtirishga qaratilgan vazifalar 2. Empirik tadqiqot usullarini o'zlashtirishga qaratilgan vazifalar 3. Ijtimoiy faoliyatni amalga oshirishning aniq usullarini o'zlashtirishga qaratilgan vazifalar
Tadqiqotchilik	1. Ijtimoiy pedagogik faoliyat bo'yicha psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilishga qaratilgan vazifalar 2. Turli xil qarashlarni aniqlash, ularni tahlil qilish bilan bog'liq vazifalar
Ijodiy	1. Ijtimoiy pedagogik faoliyatning dolzarb muammolarini aniqlash qobiliyatiga oid vazifalar 2. Tizimli fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan vazifalar
Baholash va tuzatish	1. Ijtimoiy pedagogik faoliyat usullarini baholash bilan bog'liq vazifalar 2. Faoliyat jarayonida o'zini kuzatish va o'zini baholash bilan bog'liq vazifalar

Nazariy mashg'ulot talaba tomonidan kasbiy faoliyatining asosi bo'lgan bilimlar tizimini o'zlashtirishni nazarda tutadi. Tadqiqotning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, talaba faoliyatini amalga oshirishga tayyorlash asosiy g'oyalari, nazariyalar, qonunlar, tushunchalar to'plamini o'z ichiga olishi kerak.

Quyida "Ijtimoiy pedagogika" fani o'quv dasturi asosida nazariy mashg'ulotlarning sxematik tuzilishi va texnologiyasini keltirib o'tamiz. (fanning o'quv dasturi ilova qilinadi).

2.8-jadval Differensial yondashuvga asoslangan "Ijtimoiy pedagogika" fanidan "Ijtimoiy pedagogikaning tamoyillari" mavzusidagi ma'ruza darsning texnologik xaritasi

Bosqichlar	Mashg'ulot shakli	O'quvchi faoliyatining mazmuni	Talaba faoliyatining mazmuni	Ijtimoiy pedagogik faoliyatga motivatsiya berish
1-bosqich. Tashkiliy qism	Tashkiliy qism: salomlashish, davomatni so'rash	Talabalar darsga tayyorgarlik ko'rib, diqqatni jamlaydilar.		
2-bosqich. O'qilgan mavzuni takrorlash	O'qituvchi "Qora quti" metodidan foydalanib, o'quv-mantiqiy topshiriq beradi	Kasbiy pedagogika fanining mohiyati yuzasidan professor-o'qituvchi talabalarining birlash imkoniyatini hisobga olgan holda muammo qo'yadi	Doskada "Qora quti" metodi modeli ko'rsatiladi	
3-bosqich. Asosiy bo'lim. Mavzuga kirish	Mavzu rejasi va tayanch tushunchalar bilan tanishtiriladi	Tinglaydiveyozib oladi	Interaktiv doskada ma'ruza darsining namoyishi va rejasi namoyon bo'ladi	
4-bosqich. Yangi mavzu bayoni	Mavzu rejalarini video rolliklarni ko'rsatish orqali tushuntiriladi	Video rollikni tomosha qiladi va tinglaydi	Ijtimoiy rolilik namoyishi etiladi	
5-bosqich. Bilimlarni mustahkamlash uchun topshiriqlarga tayyorgarlik ko'rish	Yangi mavzu bo'yicha olingan bilimlarni mustahkamlash uchun o'qituvchi talabalarni guruhlariga ajratib topshiriqlar beradi	Talabalar guruhlariga bo'linadi	Har bir guruh uchun tabaqalashtirilgan topshiriqlar taklif etiladi	

5.1. Mavzuga oid mantiqiy masala	Topshiriq № 2. Differensial mantiqiy masala taklif etiladi	Talabalar o'z vategenlik tajribasi asosida muammoni hal qiladi	"Constructor" metodi
5.2. Keyzni bajarish	Topshiriq №7. Olingan bilimlar asosida keyzni bajarish beriladi	Guruh bo'lib ishlaydi	Interaktiv doskada keyz savoli namoyish etiladi
6-bosqich. Uyda mustaqil foydalanishga oid topshiriq berish	Talabning ish natijalarini tahlil qilish	Mavzuga oid uga differensial topshiriq beriladi	"Uch bosqichli topshiriq" metodi

Mavzu: Ijtimoiy pedagogikaning tamoyillari.

Ma'ruza darsining ta'limiy maqsadi: talabalarining ijtimoiy pedagogikaning tamoyillari haqidagi bilimlarini rivojlantirish hamda mustahkamlash.

Ma'ruza darsining tarbiyaviy maqsadi: talabalarining ijtimoiy pedagogik faoliyatida yetakchi tamoyillarning ahamiyatini tushuntirish orqali ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish.

Ma'ruza darsining rivojlantiruvchi maqsadi: talabalarining faoliyatga tayyorlashda kasbiy tayanch va xususiy kompetensiyalarni rivojlantirish.

Foydalaniladigan texnik va o'quv vositalar: Kompyuter va pedagogik dasturiy vositalar.

1-bosqich. Tashkiliy qism: salomlashish, davomatni aniqlash.

2-bosqich. O'tilgan mavzuни takrorlash: "Qora quti" metodidan foydalaniladi (2-8-rasmga qarang). "Qora quti" metodining mohiyati shundaki, unda qo'yilgan muammolar (qora qutining turli tomonlaridagi) yechimini yo'l-yo'lakay aniqlanadi. Bunda talabalarining metodik ko'nikmasi rivojlantiriladi.

1-tomon. Ijtimoiy pedagogika fanining mazmunini bilmaslik nimaga olib keladi?

88

2-tomon. Ijtimoiy pedagogika fanining metodlari, tayanch tushunchalarini farqlang.

3-tomon. Ijtimoiy pedagogika fanining metodologik asoslari nimalar?

4-tomon. Ijtimoiy faoliyat jarayonida kasb-hunar tarbiyasi haqidagi maqollarning ahamiyati bormi?

5-tomon. Fikringiz real voqeilikka asoslansin.



3-bosqich. Asosiy bo'lim. Mavzuga kirish. Mavzu rejasi va tayanch tushunchalar tanishtiriladi.

4-bosqich. Yangi mavzu bayoni: professor-o'qituvchi talabalar diqqatiga "Ijtimoiy pedagogikaning tamoyillari" haqida bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishga yo'naltirilgan g'oyalarni havola etadi hamda mavzuga mos g'oyalarni ajratib oladi. Mazkur tamoyillarning talaba faoliyatida tugagan o'rni ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda tushuntiradi.

Ijtimoiy pedagogika tamoyillarini ijtimoiy pedagogik faoliyatda qo'llash yo'llarini o'rgatishda talabalarining mustaqilligini sezilarli darajada oshirib, mavzuning asosiy mazmunini, umumiy pedagogik bilimlar tizimining mohiyatini ochib beradigan matn bilan ishlashni ko'rsatadi.

Shu bois mavzuga oid nazariy ma'lumotlarni berishda videoorliklardan foydalaniladi. (Ekkranda "Tashkiliy-ijtimoiy ilat" roliqi namoyish etiladi).

Talabalar yuqoridagi videoorliklarni tinglagandan so'ng, ijtimoiy pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi va bu borada pedagogning bilim darajasi qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi haqida tushunchalarga ega bo'ladi.

5-bosqich. Bilimlarni mustahkamlash uchun topshiriqlarga

89

tayyorgarlik ko'rish (auditorydagi talabalar 2 daqiqa mobaynida guruhlariga ajratiladi).

5.1. Mavzuga oid topshiriqlar.

Topshiriq №1. Yangi mavzu yuzasidan "Constructor" metodi yordamida talabalarining bilim o'zlashtirishlari amalga oshiriladi. Shu bois yangi mavzu yuzasidan "Constructor" metodi interaktiv doskada taqdim etiladi. Ushbu namoyon bo'lgan muammolarga talabalar javob topadi. Bunda differensial yondashuv asosida turli darajada tayyorlangan muammolar taqdim etiladi. Talabalar imkon darajasidagi muammoga munosabat bildiradilar.

"Constructor" metodi. Talabaning mavzu mohiyatini anglashini nazorat qilishga qaratilgan metod. Bunda talaba obrazlar vositasida mavzu mohiyatining o'z faoliyatidagi ahamiyatini miyasiga (xayoliga) kelgan barcha konstruksiyalarni tasvirlaydi. Har bir darajada berilgan vazifalarni talaba o'z imkoniyati doirasida hal qilishga harakat qiladi.

2.9-jadval

"Constructor" metodining daraja va bosqichlari

Oddiy daraja Tushunish bosqichi	Reproduktiv daraja Idrok etish bosqichi	Produktiv daraja Analitik bosqich	Ijodiy daraja Mustaqil idrok etish bosqichi(idrok etgan mavzuni sxema, rasm, shakl ko'rinishida taqdim etiladi)
Ijtimoiy pedagogikaning tamoyillarini sanab berib.	Tamoyillarning konvergensiya va divergensiya printsipini asosida qurilganligi nima bilan izohlanadi?	Umumkasbiy integral (ijtimoiy mas'uliyatlik, refleksivlik, muomalalilik) sifatlarni tarbiyalashda tamoyillarning ahamiyatini.	Maxsus integral (bag'rikenglik, ijtimoiy faollik, empatiyalik) kabi sifatlarni rivojlantirish nimaga asos bo'ladi?

5.2. Keysni bajarish (3 daqiqa).

Topshiriq №3. Interaktiv doskada olingan bilimlar asosida tuzilgan turli darajadagi keys savoli namoyon bo'ladi.

Yangi darajadagi keys. Pedagogik amaliyotga berilayotgan boshlang'ich yo'llanma paytida tashkilot mutasaddi xodimi talabalarga umumiy tushuncha va yakka tartibdagi topshiriqlar berdi. Bu ishlarni bajarish rejasini tuzishni ham talabalarining o'ziga topshirdi.

Keys bo'yicha savol va vazifalar:

1. Xodim to'g'ri ish tutdimi?
2. Bu uslubning didaktik xususiyatlari nima iborat?
3. Xodim qaysi tamoyillarga amal qildi? Qanday natija beradi?

O'rta darajadagi keys. Pedagogik amaliyot kunlarining birida bir nechta talabalar tushlikka boshqalardan oldinroq ketib qolishdi. Tushlikdan so'ng tashkilotning mas'ul xodimi bu talabalarni boshqa a'zolar oldida kechirim so'rashga majbur qildi.

Keys bo'yicha savol va vazifalar:

1. Mas'ul xodimning xatti-harakatlarini tahlil qiling. Bu usul qanday sharoitda samara berishi mumkin?
2. Qaysi tamoyil buzildi?

Yuqori darajadagi keys. Aziz ismli talaba mustaqil ish uchun berilgan topshiriqni tez va sifati qilib tayyorladi. Bundan o'zi ham xursand bo'ldi. Amaliyot jarayonida talabalar uchun mas'ul bo'lgan xodim unga e'tibor ham bermadi. Bundan Azizning kayfiyati buzildi. Axir u boshqalarga o'zining yaxshi ishlay olishini ko'rsatib qo'yimogchi edi-ku! Birlaniga bunday befarqlik.

Keys bo'yicha savol va vazifalar:

1. Tashkilot xodimining xatti-harakatini psixologik nuqtai nazaridan baholang.
2. Xodimning kommunikativ qobiliyatiga tavsif bering.
3. Umumkasbiy integral sifatlarning ijtimoiy pedagogik faoliyatdagi ahamiyati qanday?

7-bosqich. Uyda mustaqil foydalanishga oid differensial topshiriq berish.

“Uch bosqichli topshiriq” metodi

Bu usulda o'qituvchi bir vaqtning o'zida uch bosqichda topshiriqni beradi. Birinchi bosqich majburiy minimum. Bu vazifaning xususiyati uning barcha talabalarga tushunariligi va bajarilishida.

Ikkinchi bosqich mashqli vazifalar. Bu vazifalarni fanni yaxshi bilishni istaydigan va dasturni qiyinchiliksiz o'zlashtiradigan talabalar bajaradilar. Bu talabalar 1-bosqichdagi vazifalarni bajarishdan ozol bo'ladi.

Uchinchi bosqich darsning mavzusi, talabaning tayyorgarligiga ko'ra o'qituvchi tomonidan qo'llaniladi. Bu ijodiy topshiriq. Bu vazifa ixtiyoriy bajariladi va o'qituvchi tomonidan yuqori baho va olqishlar bilan rag'batlantiriladi. Ijodiy topshiriqlar ko'labi juda ham keng bo'lishi mumkin. Ya'ni o'quv materiallari bo'yicha masalalar, misollar, chaynovorlar, krossvorlar, skanvorlar, o'quv komiksleri, plakatlarda tayanch chizmalar, formulalar ko'rinishida.

Differensial yondashuv asosida tashkil etiladigan ma'ruza mashg'ulotlari talabalarni o'z imkoniyatlarini anglashga o'rgatish bilan birga, ularda harakatchanlik, o'z ustida izlanish, imkoniyatlarini yanada boyitishga zamin yaratadi.

Ma'ruza mashg'ulotlarida o'zlashtirilgan o'quv materiallari amaliy-seminar mashg'ulotlarida tizimli davom etib borishi lozim, deb hisobladik. Chunki, differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda amaliy mashg'ulotning o'ri ahamiyatli.


Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlik darajasini baholashda hamda kasbiy rivojlantirishda amaliy topshiriqlar texnologiyalarini yaratish va foydalanishning tuzilmasini ko'rib o'tamiz (2.5-rasmga qarang)

Ushbu tuzilmadan amaliy mashg'ulotning ta'lim texnologiyalari yordamida mavzular o'rganiladi. (amaliy mavzular ilovada berilgan). Bunda har bir topshiriq differensial yondashuv asosida taklif etiladi. Bunda talabalar o'lgan bilim, ko'nikma va malakalari hamda fanga nisbatan qiziqishi oshadi.

Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda an'anaviy o'qitish metodlaridan foydalaniladi.

Ma'lum bilimlarni o'zlashtirish uchun tushuntirishli-illustrativ, ma'ruza, subba, tushuntirish, bilimlarni mustahkamlash uchun reproduktiv mashqlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash va boshqalar muhim.

O'qitishning muqobil metodlari sifatida ijtimoiy-pedagogik muammolarni hal etishda namoyon bo'ladigan o'ziga xos ijtimoiy-pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va ijtimoiy loyihalash metodi kabi muammoli metodlardan foydalaniladi.



2.5-rasm. Talabalarni amaliy mashg'ulotlar yordamida ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash tuzilmasi

Faol ta'lim metodlarining o'ziga xosligi shundaki, ular tajribada quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- har bir talabani passiv bilim olish emas, balki faol shaxsiy bilish,

olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash va bu bilimlarni qacda, va qanday maqsadlarda foydalanish mumkinligini aniq tushunish uchun samarali o'zlashtirishga va kasbiy yo'naltirigan jarayonga jalb qilish;

- talabalarining ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorgarligi bilan bog'liq turli muammolarni hal qilishda hamkorlikda, birgalikda ish olib borish;

- muayyan kasbiy muammo bo'yicha o'z mustaqil, lekin asosli fikrini shakllantirish maqsadida axborotni qidirish, qayta ishlash va undan foydalanish;

- rivojlanayotgan kasbiy muammolarni aniqlash va ularni birgalikda hal qilish.

Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan:

- bo'lajak pedagoglar orasida, xususan, ijtimoiy-pedagogik muammolarni hal etish, vazifa va uning yechimi haqida yetarli tushuncha hosil qilish;

- bo'lajak pedagogning keyingi kasbiy faoliyati muvaffaqiyati uchun muammolarni hal qilish ko'nikmasi va qobiliyatini rivojlantirish;

-ijtimoiy va pedagogik muammolarni hal etish usullarini o'zlashtirishni va o'z-o'zini nazorat qilishni amalga oshirish.

Shunday ekan, mazkur vazifalarni hal etishda talabalarga differensial topshiriqlar tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashga doir amaliy mashg'ulotlar tuzilmasi

Vazifalar turlari	Vazifalar xususiyatlari
O'quv-mantiqiy	1. Ijtimoiy pedagogik faoliyatning zarurligini isbotlovchi vazifalar. 2. Samarali pedagogik tajribani o'tkazish usullarini o'rganish bilan bog'liq vazifalar.
Izlanish	1. Talabalarining individual xususiyatlarini aniqlash va ularning rivojlanish darajasini diagnostika qilish bo'yicha vazifalar. 2. Texnologik yechimlarni, vositalarni tanlash va qo'llash bilan bog'liq vazifalar.
Tadqiqot-chilik	Ilg'or tajribalarni o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirishga qaratilgan vazifalar.

Ijodiy	Pedagogik faoliyatda ijodiy harakatni amalga oshirish, yangi g'oyalarni shakllantirishga oid vazifalar.
Husholash va tuzatish	Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan vazifalar.

Yuqoridagi jadvallarda taklif etilgan vazifalarni differensial yondashuv asosida o'quv-mantiqiy, izlanishli, tadqiqotchilik, ijodiy vazifalarni "Assisment" texnikasi orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq. Chunki mazkur texnologiya talaba faoliyatini bir butun baholash imkoniyatini beradi.

1-ASSISEMENT

2.11-jadval

MANTIQIY MASALA	TADQIQOTCHILIK
1. Ijtimoiy muammolar deganda nimani tushunasiz?	Kelajak tasviri. Faraz qiling, 2030 yil... Siz ijtimoiy pedagogsiz. O'z faoliyatingiz aks etgan logotipni chizma tarzida ifodalab ko'rsating.
2. Ijtimoiy muammolarni hal qilishda mas'uliyat kimga tushadi?	
3. Ijtimoiy pedagogik faoliyatning bu borada zarurati bormi?	
IZLANISHGA DOIR TOPSHIRIQ	IJODIY VAZIFA
6 nafar ota-onalardan farzandini ingliz tili chuqurlashtirilib o'tiladigan 5-sinfga qabul qilinishi so'ralgan ariza berildi. Sinfga faqatgina bir nafar o'quvchini qabul qilish imkoniyati bor. Ijtimoiy pedagog sifatida qanday fikrdasiz, kimni qabul qilasiz? Ariza bergan o'quvchilarning ijtimoiy ahvolini asoslovchi holatlari:	Siz ijtimoiy pedagog sifatida "Yetinchi qit'a" - ni kashf etishingiz kerak. Sizningcha, "Yetinchi qit'a" -
1-o'quvchi: boshqa tumanda istiqomat qiladi, maktab yonida uning buvisi yashaydi, qolaversa, u tabiiy fanlardan a'lo baholarga o'qiydi.	
2-o'quvchi: maktab joylashgan hududda istiqomat qiladi, uning	

mahalladagi barcha do'stlari ana shu sinfda ta'lim olishganligi sababi shu maktabga o'tishga qaror qilgan. 3-o'quvchi: boshqa shahardan kelgan, uning ota-onasi diplomat, shu sababi o'quvchi ingliz tilini mukammal biladi, qolaversa, 3 oydan so'ng ular boshqa davlatga ko'chib ketadi. 4-o'quvchi: ikkinchi yilga qolgan, 4 fanni "qoniqarsiz" bahoga o'zlashtiradi, qolaversa, ichki ishlar bo'limida ro'yxatda turadi, biroq maktab joylashgan hududda istiqomat qiladi. 5-o'quvchi: qishloqdan ko'chib kelgan, u yerdagi maktabda esa ingliz tili o'qitilmagan, maktab joylashgan hududda istiqomat qiladi, ko'p vaqtini bekor o'tkazadi. 6-o'quvchi: bolalikdan 2-guruh nogironi, bolalar selebral paralichi (BSP) tashxisiga ega, fanlarni "4" va "5" baholarga o'zlashtiradi, yolg'iz onaning qo'lida tarbiyalanadi, shu bilan birga, maktab joylashgan hududda istiqomat qiladi. Izlanishlaringiz asosida muammoga yechim toping?	
--	--

2-ASSISMENT

MANTIQUIY VAZIFA	VETAGEN TOPSHIRIQ
"A" guruh "Imkoniyati cheklanganlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kuni" munosabati bilan nogironlar jamg'armasiga yordam ko'rsatish maqsadida sifatli qutilar va sunkalarda oziq-ovqat va kiyim-kechak tarqatishdi. Ushbu xarakatlarni suratga olib, jamoatchilikka yetkazishadi. Internet	Pedagog sifatida, siz masalan, «Aholini bandligini ta'minlash» rejasi asosida imkoniyati cheklanganlarni tanlash nogironlar assotsiatsiyasi — xizmatlaridan foydalanish

baytlarning birida imkoniyati cheklanganlarga ko'mak va yordam berish muhimligi to'g'risidagi maqola suratlilar bilan birga e'lon qilinadi. Maqola va rasmlar reklama xuquqi asosida e'lon qilinadi. Topshiriq. Ijtimoiy pedagogik faoliyat sifatida mazkur faoliyatni qanday baholaysiz? AMALIY KO'NIKMA «Agar bir odamga yordam berishni istasang, unga baliq bermak, balki unga qaymoq berib, baliq tutishni o'rgat», — degan qadimiy dono maqolini qanday baholaysiz? https://www.gazeta.uz/uz/2021/04/22/soci-al-corporate-responsibility/	yoki www.ishbor.uz portalidagi bo'sh ish o'rinlarini taklif qilishingiz kerak bo'ladi. Taklif etishga o'rinish ko'ring? VAZIRATLI MASALA Bir bola og'ir toshni o'rnidan qo'zg'atmoqchi bo'ldi. Lekin uddasidan chiqolmadi. Uni kuzatib turgan otasi: – Bor kuching bilan harakat qildingmi? – deya so'radi. Terga botgan bola: – Ha, qo'limdan kelgan barchasini qildim. Biroq toshni siljita olmadim, - deb javob berdi. Ota esa shunday dedi: – Yo'q o'g'lim, hamma sinini qilganing yo'q. Hali mendan yordam so'ramadingku.... 1. Vaziyatni tahlil qiling. Ota o'g'li inobatga olmagan qaysi imkoniyatga urg'u bermogda? 2. Ijtimoiy pedagog o'z faoliyatida "ishning o'zini emas, ko'zini bil" ishi deganda nimani tushunasiz?..
--	--

3-ASSISMENT

VAZIYATLI MASALA Alloh taolo «Bagara» surasida aytadi: «...Sendan yetinlar haqida so'ralar. Sen: «Ulariga isloh qilish yaxshidir», - deb ayt. Agar ularning (mollarini) aralashirib yuborsangiz, bas. Alloh buzg'unchini ham, islohcini ham biladi. Agar xohlasa, Alloh sizlarni qiyinchilikka soladi. Albatta, Alloh aziz va hikmatli zotdir» (Bagara surasi 220-oyat). Yetimlarga yaxshi qarash har bir jamiyadagi ijtimoiy tenglikning muhim omillaridan biridir. Siz bu borada qanday bilimlarga tayanasiz? Ham ilmiy, ham diniy bilimlar orqali o'z faoliyatingizni amalga oshira olasizmi?	BLIS- TOPSHIRIQ: Ijtimoiy mas'uliyat, bu nimadan boshlanadi?
AMALIY KO'NIKMA Qiziqish- shaxsning o'zi uchun qimmatli va yoqimli bo'lgan muayyan narsa va hodisaga munosabati. Bunda insonning o'ziga xos xususiyati bevosita mujassamlashadi. Qiziqish bilimlarni ongli, puxta, barqaror, anglagan holda o'zlashtirishda, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda qo'l keladi, shaxs qobiliyati, zehni, uquvchanligini rivojlantirishga, olamni mukammalroq tushunishiga yordam beradi. Hurmatli talabalar! Siz ham ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlanishingizda sizni nimalar bezovta qilyapti? Marhamat, sizni o'ylantirgan savollarni yozib qoldiring: 1. ----- 2. ----- old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/21891 islom.uz/view/etimlarga-yahshilik-kilis	TEST Ijtimoiylashuv nima? A. Moslashuv B. Muvofig-lashtirish S. Tenglik D. Jamiyatga qo'shilish

Amaliy mashg'ulotlarda bu kabi differensial vazifalarni taklif etish talabalarning o'quv-biluv faoliyatiga qiziqishini oshiribgina qolmasdan, ularni o'z imkoniyatidan to'liq foydalanish imkoniyatini ham beradi.

Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda mustaqil ta'lim topshiriqlari ham o'z potentsialiga ega. Shuni ta'kidlash lozimki, mustaqil ishning faoliyati xarakteri barcha zamonaviy olimlar tomonidan ham qayd etilgan. Axir asosiy sub'ektlarning - o'qituvchi va talabaning o'zaro ta'siri barcha ta'lim faoliyati jaryonida amalga oshirilib, uning shakllaridan biri o'z-o'zini o'qitish faoliyati mustaqil ta'lim ishlari hisoblanadi.

O'z-o'zini o'qitish - bu o'qituvchining ishtirokisiz ta'lim oluvchining shaxsiyati tomonidan boshqariladigan maqsadli ta'lim sifatida aniqlanadi. Mustaqil o'quv ishlari - bu o'qituvchining bevosita ishtirokisiz amalga oshiriladigan bir qator tarkibiy qismlardan tashkil topgan (shu jumladan, o'quv materialini ijodiy idrok etish va tushunish, o'quv ishlarning barcha tomlariga tayyorgarlik ko'rish, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish) talabalarning bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish bo'yicha alohida yoki guruhviy ta'lim faoliyati o'qituvchi topshiriqlariga binoan va uning nazorati ostida amalga oshiriladi.

Mustaqil ish talabaning o'zi tomonidan "ichki kognitiv motivlari" to'layli uyushtirilgan faoliyat sifatida o'qituvchi tomonidan "vositachilik qilingan tizimli boshqaruv" asosida talabalarning o'z-o'zini boshqarish jaryonida tashkil qilinadi. Bu nafaqat o'qituvchi tomonidan olib boriladigan o'quv harakatlari rejasini aniq anglash, balki yangi ta'lim muammolarini hal qilish jaryonida o'quv fanini o'zlashtirishning ma'lum bir sxemasi sifatida uni ongli ravishda shakllantirish zarurligini anglatadi. Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyati ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatini modellashirishdir, bunda o'qituvchilar bo'lmaydi, lekin odarda mustaqillik talab qilinadigan kasbiy fazilatlardan biri sifatida baholaydigan rahbarlar bo'ladi. Bu har qanday kasbiy faoliyatga tatbiq etiladigan o'ziga xos universal kompetentlikdir.

Mustaqil ish - ta'limning majburiy elementi, bu insonning butun hayoti davomida mutaxassisning kasbiy va shaxsiy o'sishi uchun tayyorlashda alohida ahamiyatga ega ekanligini e'tiborga olib, mazkur

tadqiqot ishida mustaqil ishlash vositalarining umumiyligi ta'lim sifatini ta'minlovchi omil sifatida aniqlanadi. Talabalarining mustaqil ishi o'liy o'quv yurtlarida ta'lim sifatini ta'minlash omili sifatida kelgusidagi mutaxassislarining shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini o'qitishga va o'z-o'zini rivojlantirishga tayyorligi hamda bargaror ehtiyojini shakllantirish uchun inson salohiyatini ochib berishning asosiy sababi bo'lib, uni amalga oshirish uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratish zarur.

Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda ularning qiziqishlari, imkoniyatlari va bilimlarni o'zlashtirish darajalarini inobatga olgan holda quyidagicha guruhlار kesimida ishlab chiqildi:

Birinchi guruh – iqtidorli talabalar guruhi. Bu guruhga yuqori darajada o'zlashtirish va o'quv imkoniyatlariga ega bo'lgan talabalar kiritiladi. Shuningdek, ushbu guruhga o'rta darajada o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ega bo'lsa-da, ushbu fanni o'zlashtirishga kuchli qiziqishi bo'lgan talabalarni ham kiritishi mumkin. Bu guruh talabalarining ichki ehtiyojlariga tayangan holda ko'proq mustaqil ishlashlariga e'tibor qaratiladi. Iqtidorli talabalar uchun individual topshiriqlar ishlab chiqiladi.

Ikkinchi guruh–o'rta darajada o'zlashtiruvchi talabalar guruhi. Bu guruh talabalar bilan ishlashda ularning fanga nisbatan qiziqishlarini oshirish, ichki motivatsiyani o'stirishga va aqliy faoliyatga munosabatini o'zgartirishga e'tibor qaratiladi. Ular berilgan topshiriqni vaqtida bajarishga harakat qiladilar, ammo qo'shimcha ishlash uchun ularda ishtiyok past.

Uchinchi guruh past darajada o'zlashtiruvchi talabalar guruhi bo'lib, bu guruhga faoliyatga qiziqishi, o'zlashtirishi va iqtidorli past darajada shakllangan talabalar guruhi kiritiladi. Bunday talabalar topshiriqlarini mustaqil bajarishga va vaqtda ulgurishga qiyinaladilar.

Mustaqil ta'lim topshiriqlarini differensial yondashuv tamoyillari asosida taklif qilishda vazifalar quyidagi tartibda belgilanishi mumkin.

2.12-jadval
Mustaqil ta'lim topshiriqlarini differensial yondashuv tamoyillari asosida taklif qilish vazifalari

Vazifa turi	1-guruh uchun mustaqil ta'lim topshiriq'i	2-guruh uchun mustaqil ta'lim topshiriq'i	3-guruh uchun mustaqil ta'lim topshiriq'i
O'quv-mustaqil vazifalar	Ijtimoiy pedagogik faoliyatni amalga oshirishda talabalarining xatti-harakatlarini aniqlash bo'yicha vazifalar	Ijtimoiy pedagogik faoliyatning usullari va uslublari to'g'risida kerakli ma'lumot manbasini tanlash qobiliyatiga oid vazifalar	Turli tadbirlarni rejalashtirish va tashkil etish bilan bog'liq vazifalar
Izlanishga doir vazifalar	Ijtimoiy pedagogik faoliyatni amalga oshirishda muayyan vaziyatlarda talabalarining harakatlarini algoritmлаstirish bilan bog'liq vazifalar	Muammoni ob'ektiv ochib beradigan axborot kanallarini tanlash qobiliyatiga oid vazifalar	Treninglarni amalga qo'llash bilan bog'liq vazifalar
Tadqiqotchi-ilkka doir vazifalar	Faoliyatni amalga oshirish muvaffaqiyatining protsessual va moddiy omillarini aniqlash bilan bog'liq vazifalar	Ijtimoiy tajribalarni tahlil qilish bilan bog'liq vazifalar	Ijtimoiy pedagogik hodisalar va omillarni kuzatish hamda tahlil qilish bilan bog'liq vazifalar
Ijodiy vazifalar	Muammolarning nostandart yechimini aniqlashga doir vazifalar	Tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantiradigan vazifalar	Ijtimoiy qarama-qarshiliklarni aniqlash vazifalari
Baholash-tuzatish	Ijtimoiy faoliyatli talaba qabul qilgan qaror mustaqilligini baholovchi vazifalar	Yangi texnologik yechimlarning introspektivlasini va o'zini o'zi baholashni tuzatuvchi vazifalar	Yangi pedagogik texnologiyalarni baholashga oid vazifalar.

Mustaqil ta'lim topshiriqlarini differensial yondashuv asosida taklif etish talabalarni ijtimoiy pedagogik bilimlarni o'zlashtirishlari, amalda qo'llash jarayonida qulaylikni yuzaga keltiradi. (differensial mustaqil ta'lim topshiriqlari ilovaga berilgan).

“Yosh pedagog” to‘g‘arak mashg‘ulotlari taqvim mavzu rejasi

No	Mavzular nomi	Soatlar
1.	Ijtimoiy pedagogik faoliyat va uning mazmuni	2
2.	Talabalarda ijtimoiy mas‘uliyatni shakllantirish	2
3.	Xorijda ijtimoiy pedagogik faoliyat	2
4.	Ijtimoiy hamkorlik-talaba faolligini faollashtirish	2
5.	Talabalarda aadriyatli mulooat madaniyatini	2
6.	Samazali mulooat texnikasi	2
7.	Madaniyatlararo mulooat	2
8.	Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish	2
Jami:		16

“Yosh pedagog” maxsus to‘g‘arak mashg‘ulotlari jarayonida suhbat, munozara, loyihalash, vaziyatlarni tahlil qilish metodlaridan unumli foydalanildi. Mashg‘ulotlarda talabalarining mustaqil, guruhli hamda yakka tartibdagi differensial yondashuv asosida topshiriqlarni bajarishlari uchun alohida sharoitlar yaratildi. Talabalarga mustaqil ishlar sifatida muammoli mavollar berildi va treninglar tashkil etildi.

Ma‘lumki, talabalarining kognitiv faolligini boshqarish ularning individual psixologik xususiyatlarini ham, dominant xususiyatlarini ham hisobga olgan holda olib boriladigan o‘z quv jarayonidir. Bundan kelib chiqib, talabalarni differensial yondashuv asosida ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda biz ularning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirishni nazarda tutamiz.

Differensial yondashuv asosida oliy ta‘lim talabalarini ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashga metodik tayyorgarlik mazmunining elementlari haqida gapirganda, biz quyidagi nuqtai nazarga: tabiat, jamiyat, texnologiya va faoliyat usullari; faoliyat usullarini joriy etish tajribasi; ijodiy faoliyat tajribasi; dunyoga hissiy-qadriyatli munosabat tajribasiga amal qilamiz. Shunga asoslanib, biz tarkibga kiritadigan o‘z quv materiallari axborot qismi va vazifalar, topshiriqlar, savollarni o‘z ichiga olgan amaliy qismdan iborat bo‘lishiga ahamiyat qaratildi.

Axborot qismi o‘z quv matnlari va harakat usullarining tavsiflarini o‘z

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni ta‘kidlaymizki, kasbiy va pedagogik vazifalarni tasniflash nazariy va amaliy ahamiyatga ega, bu vazifani differensial yondashuv asosida amalga oshirish talabaning kasbiy tayyorgarligi tuzilishiga asoslanadi. Kasbiy faoliyatning har bir tarkibiy qismi - nazariy, metodik va amaliy bilan o‘z quv-mantiqiy, izlanishli, ijodiy va baholash xarakteridagi muayyan vazifalar to‘planini o‘zaro bog‘lash mumkin. Ushbu muammolarning yechimi tabaqalashtirilgan ta‘limning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq. Bu esa:

- ta‘limning noan‘anaviy shakllardan, o‘qitish usullaridan foydalanish;
- talabalar bilim va ko‘nikmalarini nazorat qilish;
- yuqori sifatli moddiy-texnik va uslubiy ta‘minot;
- o‘z quv jarayonini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari;
- yuqori malakali professor-o‘qituvchilar bilan ta‘minlash;
- differensial ta‘lim asosida belgilangan faoliyat turini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan eng yangi ta‘lim texnologiyalari va vositalaridan foydalanishni taqozo etadi.

Differensial yondashuvni amalga oshirish uchun talabani tayyorlashning ishlab chiqilgan tizimi uni amalga oshirishning yetarli shakllari va usullaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Nazariy va amaliyotda zamonaviy ta‘lim tizimini qayta qurish bilan bog‘liq holda ta‘lim jarayonini loyihalashni intensiv ta‘lim mazmuni va uning tashkiliy shakllarini izlash maqsadga muvofiq.

Ta‘lim jarayonida talabalarni **“Ijtimoiy pedagogika”** fani orqali ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda differensial topshiriqlarni taklif etish bilan birga **“Yosh pedagog”** to‘g‘arak dasturining imkoniyatini ham e‘tiborga olish muhim.

“Yosh pedagog” nomli maxsus to‘g‘arak mashg‘ulotlari taqvim mavzu rejasi ishlab bo‘yicha ishlab chiqildi. Mazkur to‘g‘arak mashg‘ulotlari rejasining mazmuni quyidagi jadvalda o‘z ifodasini topgan (2.13-jadval).

ichiga oladi. Ularni o'zlashtirish talabalarining pedagogik faoliyat bo'yicha amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarini shakllantirishga olib keladi. Boshqacha qilib aytganda, axborot qismisiz mazmunning birinchi va ikkinchi elementlarini o'zlashtirish mumkin emas. Bundan tashqari, yuqorida aytib o'tilganidek, matnning axborot qismiga kiritilishi tufayli, tushunish uchun ikkita ma'lumot birligi o'rtasida aloqa o'rnatish zarur. Mazmunning uchinchi elementi - ijodiy faoliyat tajribasi amalga oshiriladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, agar talaba ma'lumotni qayta ishlab chiqishi, belgilangan maqsadga (vazifaga) muvofiq zarur bo'lgan ma'lumotlardan tanlab olishi, ma'lumotning tegishli qismlari o'rtasida aloqa o'rnatishi va shu singari ko'nikmalarni egallashi zarur. Bu ko'nikmalarni egallash uchun ustubiy tayyorgarlik mazmuniga tegishli differensial vazifalar va savollarni kiritish zarur. Shunday qilib, kontent amaliy qismining birinchi vazifasi bilimni amalga oshirishga qaratilishi hisoblanadi. Xuddi shu funksiya talabalar o'z-o'zini shakllantirish, yangi bilimlarni kashf qilish bilan bog'liq vazifalarni bajaranda ham sodir bo'ladi. Bundan tashqari, bunday ishlar jarayonida talabalar ijodiy faoliyat tajribasiga ega bo'lishadi. Bu kontent amaliy qismining ikkinchi vazifasi. Kontent qismining uchinchi vazifasi shundan iboratki, topshiriqlarni bajarishda, savollarga javoblarni tayyorlashda, muammolarni hal qilishda talabalar harakat usullarini amalga oshirish tajribasini to'playdilar, ya'ni ular pedagogik faoliyat uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantiradi.

O'quv materiallarining amaliy qismining to'rtinchi vazifasi talabalarni psixologiya va pedagogika kurslarida tegishli materialni takrorlash, konkretlashtirish, umumlashtirishga yo'naltirish. Bu esa talabalarining o'ziga xos xususiyatlari - ularning shaxsiga, rivojlanishiga, bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyatini shakllantirishga imkon yaratadi. Shu sababli talabalarni to'g'arak mashg'ulotlarida differensial topshiriqlar orqali ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda muammo yechimiga xizmat qiladigan innovatsion ta'lim texnologiyalari - "Piramida", "Svot-tahlil", "Kubik", "Blis-so'rov" kabi metodlar, keyslar hamda muammoli vaziyatlardan foydalandik. Biz quyida "Yosh pedagog" maxsus to'g'arak mashg'ulotlarida "Talabalarida ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish" mavzusini differensial yondashuv asosida tashkil etish imkoniyatlarini

104

kelitirib o'tamiz.

"Yosh pedagog" nomli maxsus to'g'arak mashg'uloti mavzusi: **"Talabalarida ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish"**

Maqsad: differensial topshiriqlar asosida talabalarni "ijtimoiy mas'uliyat" mohiyatini anglashga, o'z oila a'zolariga, atrof-muhitiga nisbatan "majburiyat" tushunchasini rivojlantirishga erishish.

Mashg'ulot shakli: auditoridan tashqari, mustaqil faoliyat


Mashg'ulot metodlari: innovatsion ta'lim metodlari- "Piramida", SWOT tahlil, Blis-so'rov.

Insonlar bilan munosabatlar va xatti-harakatlar tajribasini talabalar o'z jamoasida o'zlashtiradi.

Mashg'ulotning borishi: talabalar qiziqishlari va bilim darajasi doirasida kichik guruhlariga bo'linishadi. Har bir guruh o'ziga xos tartibda berilgan differensial vazifalarni bajarishi talab etiladi.

1-guruh - qiziqishlari va bilim darajasi yuqori bo'lgan talabalarga quyidagi ta'lim metodlari orqali mavzu mohiyatini tushuntirish talab etiladi.

1. Talabalarga quyidagi "Piramida" taklif qilinadi.



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy barqarorlikka erishishda faqat birgina odamga e'tibor qaratish faoliyatning samaradorligini oshirmaydi. Ijtimoiy barqarorlik doirasida har bir elementni birlashtirish va ularda ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bunda "Har bir

105

talaba qanday qilib mas'uliyatni his etishi kerak?", "Sizga o'z mas'uliyatingizni eslatib turish kerakmi?", "Jamiyat a'zolarigach?", "Natija nimaga olib keladi?" kabi savollarga javob topildi.

2-guruh - Qiziqishlari va bilimi o'ra darajadagi talabalarga quyidagi topshiriqni bajarish taklif etiladi.

2.14-jadval

"Jitimoiy mas'uliyatni anglash" mavzusi bo'yicha SWOT tahlili.

S	Strengths – kuchi tomonlar	O'z burchini anglash va bajarishga yordam beradi. Insonlarning xatti-harakatlari tahlil qilinadi, baholanadi. Mas'uliyat va burchni his etish yoki etmaslik o'zaro solishtirilib, tahlil qilinadi. Talabarning mas'uliyati bo'lishidagi ichki muammolarga yechim topishga va harakat rejasini tuzishga imkoniyat yaratadi. Insoniyatini his etishga o'rgatadi.
W	Weaknesses – oqizlik yoki muammolar	Insonning o'z majburiyatini doimo anglamasligi, unutilib qo'yishi, majburiyat hissin har kim o'z dunyoqarashiga moslab olishga urinishi.
O	Opportunities – ichki imkoniyatlar	Jitimoiy mas'uliyat mohiyatini yaqinlariga, do'stlariga tushuntirish imkonining mavjudligi. Mas'uliyatni anglamaslikning oqibati to'g'risida munozara qilish istagining ustuvorligi. Mas'uliyatli insonlar hayoti va tajribasini o'zlashtirish.
T	Threats – tashqi xavf-xatar, tahdidlar	Mas'uliyat muammosi bo'yicha mas'uliyatsiz, burchini anglamaydigan insonlarga berilgan ma'lumotlar aks ta'sir qilish ehtimolining yuqoriligi

Talabalar o'zlarining majburiyatlari nimalardan iboratligini ham aytib berishadi. Majburiyatni bajarish har doim ham oson emas, lekin u zaruradir, chunki har bir insonga boshqalarning muvaffaqiyati bog'liq bo'lib, barcha insonlar o'z majburiyatlarini bajarishlari bir-birlari oldilaridagi mas'uliyatni his etishlariga olib keladi. O'z majburiyatlarini bajarishni esidan chiqarib qo'ysa, nima bo'lishi haqida mulohaza yuritiladi (mas'uliyatsiz xatti-harakat bunga misol bo'ladi). Nima qilish lozimligini insonning o'zi tanlaydi. Lekin u nafaqat o'zini o'ylashi, balki atrofidagilarni ham o'ylashi lozimligi haqida xulosa berishadi.

3-guruh - Qiziqishlari va bilim darajasi past talabalar bilan ishlashda o'ziga hos "Blis-so'rov" o'tkaziladi. Mazkur metod orgali talabalar o'z fikrlarini erkin ayitishga, bilimlarini, tajribalarini taklif etishga harakat qilish orgali asta-sekin yuqori darajadagi guruhlariga qo'shilishga imkon yaratiladi. Eng yaxshi, faol javob bergan talabalar 1 yoki 2-guruhlar safiga qo'shiladi. "Blis-so'rov" savolnomasida:

Bozoriga kim boradi?

Kim tozalikka e'tibor qiladi?

Kim xonalarni tartibga keltiradi?

Siz odada nima bilan mashg'ul bo'lasiz?

Kim og'ir ishlarni qiladi?

Sizning ishingizni kimdir bajarsa nima qilasiz?

Siz o'zingizning kerak ekanligingizni his qilasizmi? kabi savollar muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalar 3 ta darajadagi topshiriqlardan jitimoiy majburiyat haqida quyidagicha xulosa chiqarishadi: boshqalar oldidagi aniq bir bajarishi lozim bo'lgan holat bo'lib, u insonga tashabbusiga ko'ra yoki boshqalarining shartlashishiga ko'ra ish taqsimotidir, u har bir insonning vaqtini tejashga imkon beradi.

"Yosh pedagog" nomli maxsus to'garak mashg'ulotini differensial yondashuv asosida tizimli olib borish natijasida:

- Talabalarda o'quv-bilish faoliyatiga qiziqishni oshib borishiga;
- Mustaqil ta'lim potensialini anglashga;
- O'z-o'zini rivojlantirib borishga;

- Har bir erishiladigan yutuqlar insonning o'z harakatiga va mehnatiga bog'liq ekanligini anglashga o'rgatib boradi.

Talabalarni differensial yondashuv asosida jitimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda keyingi taklif etgan pedagogik imkoniyatimiz- **"Jitimoiy pedagogik faoliyat va talaba"** mavzusida variativ o'quv seminarlarining tizimli tashkil etilganligi.

O'quv - seminarining taqvim mavzu rejasida quyida keltirib o'tilgan bo'lib, mazkur o'quv - seminarlari guruh murabbiylari tomonidan olib boriladi. (2.15-jadval)

2.15-jadval
“Ijtimoiy pedagogik faoliyat va talaba” mavzusida o‘quv
seminarining taqvim mavzu rejas

t/r	Mavzular	Soat	Shakli	Izoh
3-4 semestr				
1.	Ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish funksiyalari.	2	Binar ma'ruza	
2.	Ijtimoiy pedagogik faoliyatni shakllantirishda motivatsiya.	2	Davra suhbat	
3.	Nizoli vaziyatlar va ularni bartaraf etish.	4	Psixologlar bilan trening	
4.	Fan va ta'limning ijtimoiy-iqtisodiy uyg'unlashuvi.	2	Ijtimoiy institutlar vakillari bilan uchrashuv	
5.	Ijtimoiy pedagogik faoliyatni shakllantirishga differensial yondashuv.	2	Subbat-trening	
6.	Ijtimoiy pedagogning yetim bolalar bilan olib boriladigan pedagogning ilg'or metod, shakl va vositalari.	2	Amaliy trening	
7.	Pedagogik faoliyatga tayyorlashda ta'lim texnologiyasining tadbiqi.	2	Davra suhbat	
	Jami	16		

Mazkur o'quv-seminarida har bir mavzu o'ziga xos shaklda ma'ruza, davra suhbat, trening ko'rinishida olib borilgan bo'lib, har bir mavzu mohiyati differensial yondashuv asosida talabalar ongiga singdirib borildi.

O'quv - seminarlarida talabalarining faolligi, qiziqishlari, o'zlashtirish imkoniyatlari e'tiborga olindi. Jumladan, “Ijtimoiy pedagogik faoliyatni shakllantirishga differensial yondashuv” mavzusidagi suhbat-treningda

“Uch bahodir”, “Mulogot”, “Rad etish”, “Kinga nima kerak?”, “Hamdardlik” kabi masbqlardan tizimli foydalaniladi. Quyida foydalanilgan trening-masbqlardan ayrimlarini keltirib o'tamiz.

“Uch bahodir” treningi.

Maqсад: talabalarda har turli vaziyatlarda o'zini tuta olish ko'nikmasini shakllantirish, ijtimoiy hamkorlik qila olish imkoniyatini kengaytirish, mulogotchilikni rivojlantirish.

Tavsif. Malika rolini o'ynaydigan bitta ishtirokchidan tashqari butun guruh 3-4 kishidan iborat jamoalarga bo'lingan.

1-bosqich. Pedagog guruhga o'zbek xalq ertagi “Uch og'ayni botirlar” ertagini eslashni va sahnalashtirishni taklif qiladi. Xususan, malikani uch. bahodirdan biri bilan qolishga ko'ndirish talab etiladi.

2-bosqich. Malikani ishtonirishda bir qator tajribadan o'tgan ishtonirish metodlaridan foydalanish orqali amalga oshirishligi ta'kidlanadi.

3-bosqich. Har bir kichik guruh malikani qahramonlar bilan qolishga ko'ndirish yo'lida ertak oxirining barcha afzalliklarini ko'rsatish uchun jozibali taklifi tayyorlashi kerak bo'ladi.

4-muhokama. Guruhlar taklifidan so'ng, malika qahramonlar bilan qolishni xohlagan yoki yo'qligini, har bir sahnada qanday ortiqcha va kamchiliklarni ko'rganini ma'lum qiladi.

“Rad etish” treningi

Maqсад: talabalarda nizoli vaziyatlarda o'zini yo'qotib qo'ymaslik ko'nikmasini shakllantirish.

1. bosqich. Talabalar juftlikka ajratiladi.

2. bosqich. Pedagog trening qoidasini tushuntiradi. Bunda juftliklardan biri mulogot qilishdan qat'iy bosh tortishi kerakligi tushuntiriladi.

3. bosqich. Har kim o'zi uchun adabiy qahramon tanlaydi va uning nomidan o'ynaydi. (Masalan, Yusufbek hoji, Anvar mirzo va h.)

4. bosqich. Guruh juftlarining birinchisi ikkinchisiga hamdardlik bildiradi, e'tibor ko'rsatadi, mulogotda faollik qiladi, lekin ikkinchisi uning teskarisi, unga qiziq emas. Bu vaziyatdan qanday chiqish kerak, har

kim o'zi uchun qaror qiladi. O'z tanlagan qahramonlari obrazlari yordamida vaziyatni yumshatishi kerak bo'ladi. (Adabiy qahramonlarning yurakka eng yaqin so'zlari, subbataridan foydalaniladi).

5. *bosqich*. Har xil xarakterdagi 2-3 vaziyat o'ynaladi (vaziyat juft-juft bo'lib muhokama qilinadi).

6. *muhokama*. Talabalar mulog'ot jarayonida qanday his-tuyg'ularni boshdan kechirdilar? Qaysi his-tuyg'ularni uyg'otish "foydaliroq" va yoqimsiz oqibatlariga olib kelishi mumkin?

Bu kabi o'quv-seminarlarda talabalar o'z bilim, ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga ijodiy ishlash imkoniyatlarini kengaytirish, tajriba almashish, amaliyotda qo'llashda samaradorlikka erishib boradilar.

Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda iqtidorli talabalar uchun "Kasbiy rivojlanish" (<http://kasbiyriyoj.uz/>) nomli saytining yaratilishi va amaliyotga tatbiq etilishi talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashga alohida xizmat qildi. Mazkur saytdagi "Yaxshilik", "Yaxshilik qiling", "Shisha", "Mehr", "Ichkilik-ijtimoiy illar", "Nizolarning yengil yechimi", "Murosa" va boshqa shu kabi video-rolklar talaba shaxsini ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda yordam berdi. Iqtidorli va ko'ngilli talabalar mazkur videoroliklarni tahlil qilishga va munosabat bildirishga harakat qilishdi. Bu esa har bir talabaning o'z kasbini mazmun – mohiyatini anglashga, o'z oldiga aniq maqsadlar qo'yishga, kasbiy rivojlanishga, yuksak martalarni egallash tuyg'ularini his etishiga sabab bo'ldi.

Ikkinchi bob yuzasidan xulosalar

1. Differensial ta'lim berish zamonaviy oliy ta'limdagi eng samarali texnologiyalardan biridir, chunki u talabalarda bilimdan differensial foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi; elektiv va tor empirik yo'nalishni istisno qiluvchi murakkab muammolarni hal qilishning oqilona yo'llarini ishlab chiqaradi; yangi fikrlash usulini, xususiylikdan umumiylikni ko'rish va xususiylikni umumiy nuqtai nazardan tahlil qilish qobiliyatini sezilarli darajada faollashtiradi.

2. Ijtimoiy pedagogik faoliyatda raqobat quyidagi mahoratga ega bo'lgan pedagoglarga xosdir:

1) kasbiy kompetentlik kasbiy vazifalarini hal qilish uchun yetarli darajada bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisidir;

2) maxsus shaxsiy fazilatlar majmui. Bular: faollik, samaradorlik, mehnatsevarlik, maqsadga muvofiqlik, dikkashlik, qat'iylilik, majburiyat, intizom, aloqa, tashabbuskorlik, ishonch, harakatchanlik, yetakchilik, diqqatlilik, mustaqillik.

3. Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash metodik tizimini qurishga nisbatan tizimli yondashuv ushbu tizimning turli jihatlari haqida o'ziga xos ilmiy-nazariy bilimlarni qurishdir, buning uchun bo'lajak ijtimoiy pedagoglarni faoliyatga tayyorlash metodik tizimining asosiy elementlarini aniqlash; tizim tuzilmasini ushbu elementlar va uning turli darajalari o'rtasidagi barqaror tizim hosil qiluvchi ierarxik munosabatlarning birligi sifatida aniqlash; tizimning shaxsiy darajalari va elementlarining funksiyalarini aniqlash.

4. Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda innovatsion ta'lim metodlaridan foydalaniladi. Ma'lum bilimlarni o'zlashtirish uchun tushuntirishli-illustrativ: ma'ruza, subbat, tushuntirish, bilimlarni mustahkamlash uchun reproduktiv; mashqlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash va boshqalar. O'qitishning muqobil metodlari sifatida ijtimoiy-pedagogik muammolarni hal etishda namoyon bo'ladigan o'ziga xos ijtimoiy-pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va ijtimoiy loyihalash metodi kabi muammoli metodlardan foydalaniladi.

XULOSALAR

1. Talabalarni ijtimoiy faoliyatga differensial yondashuv asosida tayyorlash tamoyillari umumkasbiy integral (ijtimoiy mas'uliyatlilik, reflektivlik, muomalalilik) va maxsus integral (bag'rikenglik, ijtimoiy faollik, empatiyalik) kabi sifatlarni nazarda tutuvchi kasbiy ijtimoiy pedagogik ta'limni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'lib, ularni rivojlantirish bitiruvchining kasbiy raqobatbardosh yaxlit shaxsiyatini shakllantirishga ko'maklashadi. Ijtimoiy soha tarkibiga ijtimoiy faoliyat, ijtimoiy tarkibiy tuzilish, ijtimoiy infrastruktura hamda xususiy va tor ma'nodagi ijtimoiy munosabatlar kabi unsurlar kiradi.

2. Zamonaviy pedagogikada ta'limni texnologiyalashtirish muammosi chuqur kirib borayotganligini inobatga olgan holda, differensial ta'lim texnologiyasi o'quv jarayoni maqsadiga erishish uchun o'qituvchi, tabaqalashtirilgan talabalar guruhlari, ta'lim vositalarining o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini loyihalashtirish, tashkil etish va boshqarish tizimidir.

Differensial ta'lim jarayoni individual va guruhli shakllarda tashkil etilib, ichki va tashqi turlarga ajratiladi. Bunda ichki differentsiatsiya – bir guruh ichida talabalarni kichik guruhlarga ajratish. Bu kichik guruhlar bitta auditoriyada bir xil fanni o'qiydilar, ammo bilim berish metod va vositalari turlicha tanlanadi. Tashqi differentsiatsiya – talabalarni qiziqishlariga ko'ra guruhlarga ajratish va har bir guruhni alohida dastur asosida o'qitishni nazarda tutadi.

3. Differensial ta'lim berish zamonaviy oliy ta'limdagi eng samarali texnologiyalardan biridir, chunki u talabalarda bilimdan differensial foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi; elektiv va tor emperik yo'nalishni istisno qiluvchi murakkab muammolarni hal qilishning oqilona yo'llarini ishlab chiqaradi. Ijtimoiy pedagogik faoliyat sohasida raqobat quyidagi mahoratga ega bo'lgan mutaxassislariga xosdir:

- 1) kasbiy kompetentlik, kasbiy vazifalarni hal qilish uchun yetarli darajada bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisiga ega bo'lgan;
- 2) maxsus shaxsiy fazilatlar majmui mavjudlar. Bular: faollik, samaradorlik, mehnatsevarlik, maqsadga muvofiqlik, diqqatlilik,

qat'iyatlilik, majburiyat, intizom, aloqa, tashabbuskorlik, ishonch, harakatchanlik, yetakchilik, diqqatlilik, mustaqillik.

4. Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash ijtimoiy-pedagogik hodisa va jarayondir. Tizimli modellashtrishning amaliy asosi esa ijtimoiy fanlarning integratsiyalashuv darajasidir. Modellashtrish doirasi mohiyatan cheksizdir. Uning asosiy vazifasi mavjud ob'ekt, uning o'rmini bosuvchi boshqa ob'ekt bilan o'xshashlikka asoslangan holda qayta ishlab chiqishdir. Model esa asl nusxaning analogidir. Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash modeli ijtimoiy ta'limning ko'p funksiyali ekanligini hisobga oladi va izchillik, yaxlitlik, sub'ektivlik, integrallash kabi tamoyillarga tayanadi.

5. Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda taklif etilgan modelni barcha bosqichlarda qo'llash hamda pedagogik faoliyatda o'zgarishlar dinamikasi uning uzluksiz kasbiy rivojlanishining barcha bosqichlarida aks ettirildi. Har bir bosqichda pedagogik faoliyatning tarkibiy qismlari aniqlanib, ijtimoiy pedagogning kasbiy funksiyalarini bajarish uchun asos bo'lib xizmat qildi (motivatsiya, maqsadli va tezkor) va rivojlantirishga olib keldi.

6. Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda innovatsion ta'lim metodlaridan foydalaniladi. Ma'lum bilimlarni o'zlashtirish uchun tushuntirishi-illustrativ: ma'ruza, subbat, tushuntirish, bilimlarni mustahkamlash uchun reproduktiv; mashqlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash va boshqalar. O'qitishning muqobil metodlari sifatida ijtimoiy-pedagogik muammolarni hal etishda namoyon bo'ladigan o'ziga xos ijtimoiy-pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va ijtimoiy loyihalash metodi kabi muammoli metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

7. Talabalarni pedagogik kasbiy faoliyatga tayyorlash metodik tizimini takomillashtirishga nisbatan differensial yondashuv ushbu tizimning turi jihatlari haqida o'ziga xos ilmiy-nazariy bilimlarni qurishdir, buning uchun tizim hosil qiluvchi ierarxik munosabatlarning birligi sifatida tizimning shaxsiy darajalari va elementlarining funksiyalarini aniqlash muhim. Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash quyidagi: aksiologik, marketing, tashkiliy jarayoniy, monitoring

funksiyalari orqali amalga oshiriladi.

8. Differensial yondashuv asosida hal etish mexanizmini takomillashtirishda talabalarni "Ijtimoiy pedagogika" fani orqali ijtimoiy faoliyatga tayyorlashning turli interfaol metodlarini qo'llash, "Yosh pedagog" to'g'arak dasturini taklif etish, "Ijtimoiy pedagogik faoliyat va talaba" nomli o'quv-seminarlarining taqvim mavzu rejasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, shuningdek, iqtidorli talabalar uchun "Kashiy rivojlanish" (<http://kashiyrivoj.uz/>) sayti yaratish va amaliyotga qo'llash orqali amalga oshirildi. To'g'arak mashg'ulotlari va o'quv seminarlari taqvim mavzu rejasini ishlab chiqishda talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning konseptual g'oyalari, nazariy-pedagogik asoslariga tayyanildi.

TAVSIYALAR

1. Ta'lim jarayoniga differensial yondashuvni amalga oshirish ta'limni individuallashtirish, insonparvarlashtirish tamoyillariga muvofiq kelishini inobatga olgan holda, uning amaliyotga tatbiqini oshirish maqsadida uzluksiz ta'limning turli bosqichlarida differensiallashtirishga doir zaruriy metodik qo'llanmalar yaratish maqsadga muvofiqdir.

2. Oliy pedagogik ta'limda mutaxassislik fanlarini differensial yondashuv asosida tashkil etishda har bir amaliy mashg'ulot topshiriqlari va mustaqil ishlarni toifalarga ajratish va talabalarining imkoniyatlari hamda ehtiyojlariga ko'ra tanlash imkoniyatini berish lozim. Buning uchun differensial topshiriqlar tizimini ishlab chiqish muhimdir.

3. Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash uchun professor-o'qituvchilarni malaka oshirish kurslarida differensial yondashuvga tayyorlash uchun "Ta'limga differensial yondashuv" maxsus kursini o'qitish kelajakda ularning faoliyatini tizimli tashkil etishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/3107036>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151 son qarori. <https://lex.uz/docs/3286194>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyunidagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovi islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/3765586>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/3171590>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risidagi PQ-5847-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/4545884>
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/5193564>
8. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olibanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T: O'zbekiston, 2017. - 488 b.
9. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent.: O'zbekiston. 2021. -B. 465.
10. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 5520100-Ijtimoiy ish (oilalar va bolalar bilan) bakalavriat ta'lim yo'nalishi DTS va malaka talablari.

11. Avloniy A. Turkiy gʻuliston yoxud axloq. - Toshkent: O'qituvchi 1992. - 160 b.
12. Behbudiy Mahmudxo'ja. Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma'naviyat, 2006. - 280 b.
13. Buxoriy Imom Ismoil. Al-jomi' as-sahih. Toshkent, 1991. - 328 b.
14. Egamberdieva N. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. 220 b.
15. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri.-Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993.-224 b.
16. Harvey L. External quality monitoring in the market place // Tertiary Education and Management. Vol.3, № 1 / 1997. - R. 25-35.
17. Hoffmann T. The meanings of competency / T. Hoffmann // Journal of European Industrial. 1999. V. 23. 6. - P. 275-285.
18. <https://auic.ru/tehnologiya-differentsirovannogo-obucheniya/>
19. Ibriso A. Abu Ali ibn Sino. - Toshkent, 1980. - 208 b.
20. Jo'raev A. Ijtimoiy faol o'qituvchi shaxsi shakllanishining pedagogik-psixologik omillari. (o'quv-uslubiy qo'llanma). Toshkent-2011. 48 b.
21. Jo'raeva S.N. O'qituvchi imidji mas'uliyati bilan o'zaro aloqadorlik uy'g'unligi // Psixologiya. - 2021. - № 2. - B.65-69.
22. Malcolm, Shirley, Cetto, A. M., Dickson, D., Gaillard, J., Schaeffer, D. & Yves Quere. (2002). Science Education and Capacity Building for Sustainable Development. ICSU Series on Science for Sustainable Development no. 5.31 p.
23. Magsadova M. Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligining psixologik asoslari. Psixol.fan.nom. ... diss. Toshkent, 2011. - 162 b.
24. Moore A. Teaching and Learning Pedagogy, Curriculum and Culture. London and New York. 2012.
25. Navoiy Alisher. Mahbub ul-qulub. - Toshkent, 1983. - 112 b.
26. Nupillaeva Sh.U. Pedagogik mahorat va kompetentlik: mazmuni, shakllanish metodikasi va rivojlanish yo'llari // Pedagogik mahorat. № 1. 2021. 19-22 b.
27. Ochilov M. Muallim - qalb me'mori. Toshkent: O'qituvchi, 2001. - 432 b.
28. Qoraev S. Fanlarni o'qitishda tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyasini joriy etish masalalari // Zamonaviy ta'lim. 2016. № 12. B.45-50.
29. Rajabova L. Integrativ-differensial yondashuv asosida bo'lajak ijtimoiy soha mutaxassislarini o'qitish metodikasi. Mug'allim hem uzluksiz bilimlendiro'jumlari. № 4 Nekis. -2021, 67-70 b.
30. Rajabova L. Integrativ-differensial yondashuv asosida bo'lajak ijtimoiy soha mutaxassislarini o'qitish nazariyasi. Xalq ta'limi. 2021, №5, 75-81 b.
31. Ro'zieva D. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. 128 b.
32. Safarova R. Tabaqalashtirilgan ta'limga o'tishning aytim masalalari // «Ummat'ilm maktablari» tabaqalashtirib o'qitish muammolari» Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. T.: O'zPFTL. 2003. - B.124-127.
33. Sattorov E.N. Ummiy o'tta ta'lim maktablari tabaqalashtirib o'qitishning tashkiliy jihatlarini // «Ummat'ilm maktablari» tabaqalashtirib o'qitish muammolari» Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. T.: O'zPFTL. 2003. - B.118-121.
34. Yo'ldoshev J., Nasanov S. "Avesto"da axloqiy-ta'limiy qarashlar. Toshkent: O'qituvchi, 1992. 68 b.
35. Zupimov A. O'zbek pedagogikasi tarixi. - Toshkent: O'qituvchi, 1997. - 272 b.
36. Аришина Е.С. Старовойтова Л.И. Преподаватель университета как субъект формирования готовности студентов к профессиональной деятельности. Проблемы современного педагогического образования. // - 2018. - № 61-4. - С. 11-14.
37. Булаева М. Н. Методология системного подхода к проблеме обучения будущих менеджеров образования. Вестник Вятского государственного гуманитарного университета. 2009. - № 2-1. С. 95-99.

38. Дегтерев В.А. Ларионова И.А. Качество профессиональной подготовки специалистов социальной сферы как фактор обеспечения конкурентоспособности выпускника вуза. 2019. № 2. С.13-25.

39. Дифференцированное обучение (по материалам Т.В. Машаровой, А.В. Матвеева, Л.В. Байбородовой). URL: <http://cito-web.yuspu.org/link/metod/met49/node16.html> (data obnasheniya 11.01.2013).

40. Еремينا Ю.С. Личностная готовность будущего социального педагога к работе с детьми – сиротами. Новая наука: теоретический и практический взгляд. 2016. С. 30-32.

41. Косыков Д. (<https://zaochnik.com/spravochnik/pedagogika/teoriya-obucheniya/differentsirovannoe-obucheniye/>)

42. Помещенко В.Н. К вопросу о необходимости формирования социальной активности у воспитанников суворовского военного училища. Наука современности: проблемы и решения. 2019. С.67-70.

43. Роберт И.В. Методология научно-педагогического исследования в области информатизации образования. Педагогическая информатика. 2019. №3, С.109-130.

44. Снигирев И.В. Формирование профессионально-педагогической компетентности у будущего учителя музыки во внеаудиторной деятельности. Вестник Чувашского государственного педагогического университета им. И.Д. Яковлева 2010. № 1.(65) С. 150-155.

45. Сухомлинский В.А. Мен юрагимни болаларга бераман. - Киев, 1969. – 120 б.

46. Унт И. Индивидуализация и дифференциация обучения / И. Унт. М.: Просвещение, 1990. -280 с.

ИЛОВАЛАР

1-илова.

Талабалар uchun anketa

1. Siz o'z tanlagan kasbingizga qiziqasizmi?
2. Tanlagan kasbingizning zaruratini nimada deb o'ylaysiz?
3. Ijtimoiy pedagogik faoliyat mohiyatini qanday izohlaysiz?
4. Sizningcha, kasbiy bilim va ko'nikmani rivojlantirishda nimalarga ahamiyat berish lozim?
5. Ijtimoiy pedagogik faoliyat uchun zarur sifatlarni sanab ko'rsating?
6. Ijtimoiy pedagogik faoliyat uchun zarur sifatlarni sizda mavjudmi?
7. Ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda o'qituvchining dars o'tish mahorati ahamiyatlimi?
8. O'qituvchilar talabani ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda nimalarga e'tibor berishlari kerak deb hisoblaysiz?
9. Siz muloqotga kirisha olasizmi?
10. Ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyor bo'lish deganda nimani tushunasiz?

2-илова.

Талабаларни ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlik darajasini aniqlash maqsadida psixodiagnostik testlardan ham foydalanildi.
O'z-o'zini aniqlash testi.

Kamdan-kam – 1ball.

Ba'zan – 2 ball.

Ko'pincha – 3 ball.

Har doim – 4 ball.

Yig'ilgan ballar 10-15 orasida bo'lsa, o'zini o'zi qadrlashning past darajasi, unda odam kamdan-kam hollarda "paslik majmuasi"dan aziyat chekadi va faqat vaqti-vaqti bilan boshqalarning fikriga moslashishga harakat qiladi.

Yig'ilgan ballar 15-25 orasida bo'lsa, o'zini o'zi qadrlashning o'tacha darajasi, unda odam ba'zan ko'tarinkilik his qiladi. Ba'zi hollarda boshqalarning fikriga moslashishga harakat qiladi.

Yig'ilgan ballar 26-40 orasida bo'lsa, o'zini o'zi qadrlashning yuqori darajasi, unda odam doim ko'tarinkilik his qiladi. Unda doimiy hollarda boshqalar fikr almashishga ehtiyoj seziladi.

1. Men doimo ish uchun mas'uliyatimni his qilaman.

Kamdan-kam.

Ba'zan.

Ko'pincha.

Deyarli har doim.

2. Men kelajagim haqida qayg'uraman.

Kamdan-kam.

Ba'zan.

Ko'pincha.

Deyarli har doim.

3. Ko'p odamlar meni yomon ko'rishadi.

Kamdan-kam.

Ba'zan.

Ko'pincha.

Deyarli har doim.

4. Menda boshqalarga qaraganda tashabbus kam.

Kamdan-kam.

Ba'zan.

Ko'pincha.

Deyarli har doim.

5. Men ruhiy holatimdan xavotirdaman.

Kamdan-kam.

Ba'zan.

Ko'pincha.

Deyarli har doim.

6. Men keraksiz bo'lib qolishdan qo'rqaman.

Kamdan-kam.

Ba'zan.

Ko'pincha.

Deyarli har doim.

7. Boshqalar mendan ko'ra yaxshiroq ko'rinadi.

120

Kamdan-kam.

Ba'zan.

Ko'pincha.

Deyarli har doim.

8. Men begonalar oldida nutq so'zlashdan qo'rqaman.

Kamdan-kam.

Ba'zan.

Ko'pincha.

Deyarli har doim.

9. Men juda ko'p xatolarga yo'l qo'yaman.

Kamdan-kam.

Ba'zan.

Ko'pincha.

Deyarli har doim.

10. Afsuski, men odamlar bilan qanday gaplashishni bilmayman.

Kamdan-kam.

Ba'zan.

Ko'pincha.

Deyarli har doim.

Mulogotchanlikni aniqlash testi

3-ilova.

To'plagan ballar 8-16 orasida bo'lsa, jamiyatda siz o'zingizni yetarlicha ishonchli his qilmaysiz, sizdan qochishni afzal ko'rgan ko'plab odamlar mavjud. Siz tezda samarali mulotot mashg'ulotlariga qatnashishingiz muhim.

To'plagan ballar 17-24 orasida bo'lsa, sizning jamiyatdagi mulogotchanligingiz o'rta darajada. Agar sizning ishingiz odamlar bilan bog'liq bo'lsa, vaqtigingizni va mablag'ingizning bir qismini mulotot mashg'ulotlariga sarflashingiz kerak. Bu juda yaxshi samara beradi.

To'plagan ballar 25-32 orasida bo'lsa, siz jamiyatda o'zingizni yetarlicha ishonchli his qilasiz, sizdan o'rganish kerak.

1. Siz qanchalik tez-tez odamlar orasida bo'lishga harakat qilasiz?
Juda tez-tez -1.

Ko'pincha -2.

121

Vaziyatga bog'liq – 3.

Kamdan kam – 4.

2. Siz qanchalik tez-tez boshqalarning ishlarida qatnashishni xohlaysiz?

Juda tez-tez – 1.

Ko'pincha – 2.

Vaziyatga bog'liq – 3.

Kamdan kam – 4.

3. Guruh mashg'ulotlarida qatnashishga necha marta harakat qilasiz?

Juda tez-tez – 4.

Ko'pincha – 3.

Vaziyatga bog'liq – 2.

Kamdan kam – 1.

4. Siz qanchalik tez-tez yolg'iz qolishni xohlaysiz?

Juda tez-tez – 1.

Ko'pincha – 2.

Vaziyatga bog'liq – 3.

Juda tez-tez – 1.

Vaziyatga bog'liq – 3.

Kamdan kam – 4.

Juda katta miqdor bilan – 4.

Vaziyatga bog'liq – 3.

Kichik miqdor bilan – 2.

Juda oz miqdorda – 1.

7. Masofangizni necha kishidan uzoqroq tutishni xohlar edingiz?

Juda ko'p odamlardan – 1.

Ko'p odamlardan – 2.

Vaziyatga bog'liq – 3.

Juda oz miqdordan – 4.

8. Siz bilan uzoq vaqt suhbatlashadigan odamlar ko'pmi?

Juda ko'p – 4.

Vaziyatga bog'liq – 3.

Kam – 2.

Juda kam – 1.

Ittimoiy mas'uliyatni aniqlash testi

1. Shunday bo'ldiki, ishda kimdir sizga berilgan topshiriqni bajardi, lekin buni juda yomon bajardi. Sizning harakatlaringiz...

Kutilganidek jimgina takrorlayman – 0.

Men buni takrorlayman, lekin barchaga ma'lum qilaman, aslida bu bilan mening hech qanday aloqam yo'q – 2.

Boshliqqa meni almashtirayotgan odamning to'lovga layoqatsizligi to'g'risida xabar beraman – 1.

2. Sizni tadbirga taklif qilishadi, lekin ayni damda do'stingiz ham sizni taklif qiladi

Do'stingizning taklifini rad eting, chunki ular sizni allaqachon boshqa joyda kutishmoqda – 1.

Siz do'stingizga qo'ng'iroq qiling – 0.

Do'stingizning taklifini qabul qiling va tadbir sizsiz bo'lib o'tgani yaxshi – 2.

3. Siz ortiqcha ishladingiz va o'z vaqtida ish joyiga kelmadingiz.....

Mutasaddilarga borib o'zingizni aybdor deb ayting, ammo bu boshqa takrorlamaydi – 2.

Kechikish uchun yaxshi sabab, mantiqiy bahona bilan keling – 1.

Ish joyiga yashirincha kirib, hech narsa bo'lmaganday qilib ko'rsatish-0.

4. Siz ko'pincha ortiqcha ishlaysizmi (o'qiyasizmi)?

Har safar kerak bo'lganda – 1.

Faqat keyinroq, u ishdan bo'shatish yoki ikki marta to'lash bilan qoplanadi – 2.

Gapni tushunmayapman, ish qochib ketmaydi, uni boshqa kunda bajarish mumkin – 0.

5. Sizning xo'jayiningiz yo'q bo'lganda sizning ish kuningiz qanday?

Bu hech narsani o'zgartirmaydi – 3.

Odadagidan kamroq harakat qilaman – 2.

Men vaziyatdan to'liq foydalanaman, o'zimni dam olish kunimni tashkil qilaman – 1.

6. Boshliqlarim menga muhim ishlarni ishonib topshirishganda, men ...

Men bundan faxrlanaman, demak ular qadrlashadi – 3.

Men g'ayratli emasman, agar dosh berolmasam, qiyinchiliklardan qochib bo'lmaydi – 1.

Men bunday imkoniyatdan voz kechishga bor kuchim bilan harakat qilaman – 2.

7. Qarindoshlaringiz sizdan tez-tez yordam so'rashadimi?

Albatta, ularxafa qilmasligimni bilishadi – 3.

Ba'zan shunday bo'ladi – 1.

Yo'q, ular bilishadi, men zo'rliqshini yoqitmayman – 2.

8. Agar ish natijasi ahamiyatsiz bo'lib chiqsa, men ...

Ayblanadigan hech kim yo'qligini tushunaman, javobgarlik to'liq mening zimmanda – 2.

Yana kim aybdor bo'lishi mumkinligini eslashga harakat qilaman – 3.

Men vaziyatni, boshqa odamlarni, kimnidir ayblayman, lekin nima bo'lganda ham o'zimni emas – 1.

9. Men o'z-o'zidan ish bilan shug'ullanmayman, avval aniq harakat qilish rejasini o'ylayman ...

Bu mening odatiy taktikam – 2.

Faqat juda qiyin tuyulsa – 1.

Bu befoйда, men o'z sezgimga to'liq ishonaman – 3.

10. Mas'uliyatsiz odamlar bilan yaqin aloqada bo'lmasslikka harakat qilasizmi?

Ha, chunki men o'zimni o'ta mas'uliyatli odam deb bilaman va bir xil do'stlarga ega bo'lishni xohlayman – 3.

Agar umuman odam qoniqsa, men ba'zi zaif tomonlariga ko'zlarimni yumaman – 1.

Kunduzi chiroq yoqib ham ishonchli odamlarni topa olmaymiz, shuning uchun men bu sifatga e'tibor bermayman – 2.

11. Agar sizda uy hayvonlari yoki uy o'simliklari bo'lsa ...

Ular zavq bilan va muntazam ravishda g'amxo'rlik qilaman – 2.

Avval men ishtiyok bilan harakat qilaman, keyin e'tiborim susayadi – 1.

Men qo'shimcha vazifalardan tezda charchayman, gullar quridi, men uy hayvonlarini ishonchli qo'llarga beraman – 0.

12. Agar siz kasal qarindoshingizga dori olib kelishni va'da qilsangiz,

lekin o'zingizni yomon his qilsangiz?

Men yaqin kishiga yordam beraman, keyin o'zimni davolayman – 1.

Uning uchun bu qanchalik muhimligini va boshqa birov bu topshiriqni bajara oladimi-yo'qligini aniqlab beraman – 2.

Yordam berishning iloji bo'lmaydi deb darhol xabar beraman, chunki o'zimni yaxshi his qilmayapman – 3.

13. O'qish paytida siz imtihonga tayyorgarlikni boshladingiz ...

Imkon boricha tezda – 2.

Bir necha kun ichida – 3.

Taslim bo'lishdan oldin oxirgi kunda – 1.

14. Siz hech kim tekshirmaydigan topshiriqni bajarishga qanchalik mas'uliyat bilan yo'ndoshasiz?

Men buni baribir yaxshilab bajaraman – 3.

Men qilaman, lekin yarim yo'lda – 2.

Men buni umuman qilmayman – 1.

15. Agar siz o'z vaqtda yetib kelsangiz, kechikkanlarni qancha vaqt kutasiz?

Qancha kerak bo'lsa – 0.

30 daqiqadan oshmasligi kerak – 3.

10-15 daqiqada, endi yo'q – 1.

10-15 ball. Agar umuman vaziyatni baholasak, javobgarlik darajasi past. Muhim va qimmatli topshiriqlarni aynan kutiganidek bajarmaysiz. Ammo ahamiyatsiz deb hisoblagan masalalar bo'yicha siz o'zingizning

xohishingizga ko'ra harakat qilishingiz mumkin, ko'pincha siz ular bilan ishlashning hojati yo'q deb hisoblaysiz.

16-24 ball. Javobgarlik darajasi pastdan yuqori. Bundan tashqari, siz haqiqatan ham barcha mas'uliyatni o'zingizning zimmanızga olishni yoqitmaymiz, lekin buni birov bilan baham ko'rishni afzal bilasiz.

24 balldan yuqori. Agar umuman vaziyatni baholasak, javobgarlik darajasi ancha yuqori. Muhim va qimmatli topshiriqlarni aynan kutiganidek bajarasiz. Bundan tashqari, siz haqiqatan ham barcha mas'uliyatni o'zingizning zimmanızga olishni yoqitarsiz, lekin buni birov bilan baham ko'rishni afzal ko'rmaysiz.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. DIFFERENSIAL TA'LIM ASOSIDA TALABALARNI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI	6
1.1-§. O'qituvchi shaxsi va uning jamiyatda tutgan o'rni – pedagogik muammo sifatida	6
1.2-§. Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash tamoyillari	19
1.3-§. Differensial ta'lim mazmuni, tamoyillari va uning pedagogik imkoniyatlari	30
Birinchi bob yuzasidan xulosalar	42
II BOB. TALABALARNI IJTIMOY PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASI	44
2.1-§. Oliy pedagogik ta'lim jarayonini differensial yondashuv asosida tashkil etishning funksional modeli	44
2.2-§. Talabalarni differensial pedagogik ta'limga tayyorlashga doir diagnostik metodlar	57
2.3-§. Ijtimoiy pedagogik ta'limni differensial yondashuv asosida tashkil etish yo'llari	78
Ikkinchi bob yuzasidan xulosalar	110
XULOSALAR	112
TAVSIYALAR	114

— 4384 —

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI O'LIY TALIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

Ilmiy nashr

D.O.XIMMATALIYEV
L.R.RAJABOVA

DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNI IJTIMOY PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Monografiya

Muharrir: Alijon Jo'raev
Texnik Muharrir: Marguoba Kurbanova

Bichimi 60x84, Hajmi 8 bosma taboq.
Ofset usulida bosildi. Buyurtma – 60.
Adadi 100 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

«USMON NOSIR MEDIA» NASHRIYOTI
Namangan shaxri, Navoiy ko'chasi, 36
Nashriyot litsenziya raqami AI - 156
2019 yil 14-avgustda berilgan.

“FAZILAT ORGTEX SERVICE”
hususiy korxonasi boshqaruvida chop etildi.
Manzili: Namangan sh. Amir Temur ko'chasi 97 uy.
Tel: (+998) 91-346-44-43, (+998) 99-608-69-44